





ORIENTAL UNIVERSITETI

SOBIROV ZUHRIDDIN NAJMIDDIN O'G'LI

DINSHUNOSLIK

(Zamonaviy diniy harakatlar va oqimlar)

Uslubiy qo'llanma




Toshkent-2026

DINSHUNOSLIK

(Zamonaviy diniy harakatlar va oqimlar)

Uslubiy qo'llanma



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**



ORIENTAL UNIVERSITETI

SOBIROV ZUHRIDDIN NAJMIDDIN O‘G‘LI

DINSHUNOSLIK

(Zamonaviy diniy harakatlar va oqimlar)

Uslubiy qo‘llanma

Toshkent-2026

UO‘K21/29

KBK 86.2

S 70

Sobirov Z.N

DINSHUNOSLIK Uslubiy qo‘llanma/ Z.N Sobirov. – Toshkent: «ZUXRO BARAKA BIZNES» nashriyoti, 2026. – 191 b.

Taqrizchilar:

D.K.Nishanova

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

A.Sh.Shukurov

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd)

Mazkur uslubiy qo‘llanmada zamonaviy ilmiy konsepsiyalarga tayangan holda, mavzularni bir-biri bilan uzviy bog‘liqligi, tarixiylik, mintaqaviylik tamoyillari qo‘llanildi. Uslubiy qo‘llanma fan dasturi asosiy adabiyotlari asosida tuzilgan bo‘lib, butunlay yangicha uslub va mazmuni bilan ushbu sohada ilgari yozilgan uslubiy qo‘llanmalardan ajralib turadi.

Mazkur uslubiy qo‘llanmada yangi diniy ta‘limotlar va sektalar, kiber makonda din, missionerlik va prozelitizmning ijtimoiy-siyosiy xavfi va diniy fanatizm, ekstremizm, fundamentalizm, terrorizmning tarixi va ularning hozirgi davrda xavfsizlikga tahdidiga oid dinshunoslik bilan bog‘liq mavzular ketma-ketligida batafsil yoritilgan. Shuningdek, ushbu uslubiy qo‘llanma talabalarda barcha dinlar qadriyatlariga hurmat bilan qarash madaniyatini shakllantirib, jamiyatda tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Uslubiy qo‘llanma oliy ta‘lim tizimining “Gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar” blokidagi “Dinshunoslik” fanidan uslubiy qo‘llanma sifatida tavsiya etiladi.

Ushbu uslubiy qo‘llanma “Oriental universiteti” o‘quv-uslubiy kengashining 2026-yil 23-fevral oyidagi 5-sonli bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

Sobirov Zuhridin Najmiddin o‘g‘li, 2026.

© Oriental universiteti, 2026.

KIRISH

So‘ngi yillarda mamlakat hayotida katta o‘zgarishlar va yuksalishlarga boy bo‘ldi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan diniy qadriyatlarimizni qayta tiklash va rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Boshqa sohalar bilan birga, ilmiy-ijodiy, diniy ta‘lim sohalariga ham katta e‘tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, 2018-yil 16-aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Diniy-ma‘rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi tarixiy Farmoni juda ko‘p imkoniyatlar eshigini ochib berdi.

Taraqqiyotimizning yangi davrida diniy va milliy qadriyatlar yanada rivoj topib, ajdodlarimizning diniy ma‘rifiy merosini teran o‘rganish va tahlil qilish, ularning ilmiy an‘analarini munosib davom ettirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Dinshunoslik gumanitar fanlar qatoridagi insoniyatning madaniy, ma‘rifiy, fikriy tarixini o‘z ichiga olgan ilmlar qatoriga kiradi. O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim tizimining umumiy o‘rta ta‘lim bosqichida o‘qitiladigan «Dunyo dinlari tarixi», o‘rta maxsus ta‘lim tizimidagi «Dinshunoslik» fanlari doirasida dinlar tarixi, ta‘limoti, manbalari kabi dinshunoslikning boshlang‘ich asoslari o‘qitiladi. Shu sababli ham oliy ta‘lim tizimining bakalavr bosqichidagi «Dinshunoslik» fani doirasida quyi bosqichda berilgan ma‘lumotlar asosida dinlarning rivojlanish tendensiyalari, bugungi kundagi holati hamda din niqobidagi turli buzg‘unchi g‘oyalarning kelib chiqish sabablari, oldini olish yo‘llari haqidagi ma‘lumotlar taqdim etilishi maqsadga muvofiq. Ushbu konsepsiyadan kelib chiqqan holda ushbu uslubiy qo‘llanmada asosan tahliliy ma‘lumotlar keltirildi.

Respublikadagi ko'pkonfessiyalilik sharoitida turli millat, elat va din vakillari orasidagi totuvlikni ta'minlash, jahonda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash ishiga munosib hissa qo'shish har bir fuqaroning, ayniqsa, oliy ma'lumotli ziyolining muqaddas burchidir. Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan ta'kidlanganidek, «Jamiyatimizda diniy konfessiyalar o'rtasida hamjihatlik va fuqarolar totuvligini mustahkamlashni biz bundan buyon ham eng dolzarb va ezgu vazifamiz deb bilamiz».

Dunyo miqyosida millatlararo va konfessiyalararo hamkorlik, hamjihatlikni mustahkamlash ko'p jihatdan jamiyat hayotiga bag'rikenglik tamoyillarining samarali joriy etilishiga bog'liq. Jahondagi murakkab va ziddiyatli kechayotgan jarayonlar turli din vakillari o'rtasida o'zaro hurmat, hamkorlik va hamjihatlik ruhidagi aloqalarni mustahkamlash tarixiy zaruriyat ekanini ko'rsatmoqda. Shuning uchun ham mamlakatimizda qabul qilingan «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi»ning beshinchi bandida «xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat» mamlakatimizda asosiy vazifalardan biri sifatida belgilandi.

O'zbekistonda davlat va din masalalarini bilish jamiyatimizning har bir ilg'or fuqarosining burchidir. Davlat va din o'zaro munosabatlarini tartibga solish bo'yicha respublikamizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ishlar hatto butun jahon miqyosida ham e'tiborga loyiq. Uslubiy qo'llanmada davlat va din munosabatlariga oid taqdim etilgan ma'lumotlar kelgusida Vatan taraqqiyotiga o'z hissasini

qo‘shish niyatida bo‘lgan yoshlarimizning amaliy faoliyatida dasturul amal bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda globallashuv jarayonlari faol kechayotgan bir vaqtda, ming afsuski, dindan o‘z g‘arazli maqsadlarini amalga oshirishda foydalanishga intilayotgan kuchlar ko‘plab topilmoqda. Diniy ekstremizm, mutaassiblik, missionerlik, tarixda o‘tgan hamda yangi paydo bo‘layotgan destruktiv sekta va oqimlar harakatlari shular jumlasidandir. Ushbu uslubiy qo‘llanmada ularning namoyon bo‘lish turlari, o‘z-o‘zini niqoblash usullari va ularga qarshi «jaholatga qarshi ma’rifat» shiori ostida kurash olib borish yo‘llari ko‘rsatib berilgan. Ayniqsa, hozirda ommaviy axborot vositalari orasida eng faol vosita bo‘lib qolgan internet va kibermakondagi diniy-mafkuraviy xurujlar, ularga qarshi yoshlarda immunitet hosil qilish masalalariga keng o‘rin ajratilgan.

1-MAVZU. YANGI DINIY TA'LIMOTLAR VA SEKTALAR

Darsning maqsadi: Konfessiya, sekta tushunchalarining mazmun-mohiyati, bugungi kunda dunyoning konfessional xaritasida bo'layotgan o'zgarishlar, dinlarning geografiyasidagi yangi tendensiyalar va ularni keltirib chiqarayotgan omillar haqida talabalarda keng tasavvur hosil qilish.

REJA:

1. Yangi diniy harakatlar paydo bo'lishining sabablari va yo'nalishlari. Bahoiylik va qodiyoniylik (ahmadiylik) harakatlari. Xalqaro Krishnani anglash jamoasi va baxshillochilar jamoasining maqsadlari. Yangi xristianlik harakatlarining yo'nalishlari;
2. O'zbekistonda faoliyati kuzatilgan norasmiy diniy jamoalarning faoliyati. Sekta tushunchasining mohiyati va unung yo'nalishlari;
3. Cherkov va sekta faoliyatidagi farqlar. Zamonaviy diniy sektalar va ularning barqaror taraqqiyot maqsadlariga salbiy ta'siri.

Tayanch tushunchalar: *konfessiya, sekta, diniy tashkilot, missionerlik, xarizmatika, xristianlik, islom, buddaviylik, hinduiylik, Xitoy dinlari, O'zbekistondagi diniy konfessiyalar, mormonlar, Krishnani anglash jamiyati, Yahve shohidlari, Bahoiylik, Bobiylik, noan'anaviy diniy oqimlar, Ahmadiylik.*

1. Yangi diniy harakatlar paydo bo'lishining sabablari va yo'nalishlari. Bahoiylik va qodiyoniylik (ahmadiylik) harakatlari.

Xalqaro Krishnani anglash jamoasi va baxshillochilar jamoasining maqsadlari. Yangi xristianlik harakatlarining yo'nalishlari.

XIX-XX asrlarda yirik dinlar doirasida yuzaga kelgan diniy tashkilotlar, ularning e'tiqodi va faoliyati, jamiyatga ta'siri haqida tasavvur hosil qilish lozim. Bugungi kundagi o'zgarishlar haqida so'z ketar ekan quyidagilarni alohida qayd etish lozim. Eng avvalo, shakllangan dinlar doirasida muayyan o'ziga xosliklarga ega bo'lgan yangi yo'nalish va sektalarning paydo bo'lishi davom etmoqda. Masalan, mutaxassislar ma'lumotlariga ko'ra, XX asrning ikkinchi yarmida xristianlik, buddaviylik, islom va boshqa dinlar doirasida yuzlab sektalar paydo bo'lgan. Bu shunday jarayonlar kelajakda davom etishi mumkinligini taxmin qilish imkonini beradi.

Yangi diniy harakatlar deganda odatda XX asrning 70-yillarida Yevropa va AQSHda tarqalgan noan'anaviy diniy guruhlar va oqimlar nazarda tutiladi. Tadqiqotchilar bunga an'anaviy dinlardagi inqiroz davri sabab bo'lganligini ta'kidlaydilar. Yangi diniy harakatlar liderlari jamiyat kayfiyatidagi o'zgarishlarni, bu "o'tkinchi dunyo"ning nuqsonlarini fosh qilib, o'zlarini "xaloskor", yuksak axloqli "haqiqatgo'y" sifatida ko'rsatdilar. Yangi diniy harakatlar to'riga ko'proq yoshlar ilinadilar.

Odatda Yangi diniy harakatlar qat'iy ta'limotga ega bo'lmagan tashkilot bo'lib, uning faoliyati lider roli bilan belgilanadi. Liderlar an'anaviy diniy qadriyatlarga qarshi tashviqot ishlarini olib boradilar. Diniy hayot maxsus ishlab chiqilgan tartib qoida va nizomlar orqali amalga oshiriladi. Yangi diniy harakatlarning ba'zilari dunyoning turli burchaklarida o'z bo'linmalariga ega bo'lgan, biznes bilan

shug‘ullanuvchi yirik xalqaro korporatsiyalarga aylangan. Yangi diniy harakatlar meditatsiya amaliyotini keng qo‘llaydilar, tashkiliy jihatdan piramida shaklida boshqariladi. Ularning aksariyati noqonuniy faoliyat yurituvchi, kriminal tashkilotlardir. Masalan, “Aum Sinrikyo” (Yaponiya), «Quyosh ehromi» (Fransiya va Kanada) va b.

Diniy ta’limotlarni buzib talqin qiluvchi harakatlarga:

- protestantlarning “ikkilamchi” birlashmalari – «Yahve shohidlari» («Svideteli Iegovoo»), «Oxirgi kun avliyolari Iso Masih cherkovi» (mormonlar), «Masih cherkovi» (Boston harakati);
- soxta xristian harakatlar – «Mun birlashtirish cherkovi», «Vissarion oxirgi Ahdi cherkovi», «Oq birodarlar»;
- sayentologik kultlar – «Xristian ilmi», «Ron Xabbard sayentologiya markazi», «Kloneyd», «Oq ekologlar» harakati;
- neo va kvaziorientalistik maktablar va kultlar – “Tirik axloq” (Agni yoga), «Krishnani anglash jamiyati», «Transsendental’ meditatsiya», «Aum-Sinrikyo», «Saxadja-yoga» va b.;
- Yangi majusiy tashkilotlar va kultlar – “Runvira” ukrain milliy e’tiqodi cherkovi, Rossiya jarangli kedrlari, Omsk “qadimgi diniy e’tiqodiga qaytish kulti” va boshqalar kiradi.

Mavjud diniy ta’limotlar, ulardagi muayyan qoidalarni davr talabiga moslashtirish, boshqacha aytganda, modernizatsiya qilish jarayoni ham davom etmoqda. Masalan, xristianlar amalga oshirgan inkvizitsiya va salb yurishlari xato bo’lganini tan olib, Rim Papasi hatto, rasman kechirim ham so’radi. 1992 yilda Papa Ioann Pavel II o’z

paytida Yerning Quyosh atrofida aylanishi haqidagi qarashlarni yoqlagani uchun cherkov tribunali tomonidan tavba qildirilib, o'z qarashlaridan voz kechishga majbur qilingan Galileo Galileyning haq bo'lganini tan olib, barchadan uzr so'ragani ham bunga misol bo'la oladi. Shuningdek, mavjud dinlarning tarqalish hududida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'layotganini ta'kidlash zarur. Masalan, o'tgan asrda asosan xristianlar yashab kelgan Yevropada bugungi kunda 20-25 million atrofida musulmonlar istiqomat qilmoqdalar. Jumladan, Buyuk Britaniyada – 3 million, Germaniyada – 5 million, Fransiyada – 6-7 million islomga e'tiqod qiluvchi fuqarolar yashamoqda. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, hozirda aynan islom e'tiqodchilari soni eng tez ko'payib borayotgan din hisoblanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, islomning yillik o'sish sur'ati 6,4 foizni tashkil etib, 1989 yildan 2011 yilga qadar musulmon aholi soni Shimoliy Amerikada – 25, Afrikada – 2,15, Osiyoda-12,57, Yevropada-142,35, Avstraliya va Okeaniyada-257,01 foizga ko'paygan. Faqat Lotin Amerikasida islomga e'tiqod qiluvchilar ulushi 4,73 foizga kamaygan. Bunday o'zgarishlar, bir tomondan, globallashuv keltirib chiqarayotgan odamlar migratsiyasi natijasida, ikkinchi tomondan, kishilarning buddaviylik, ko'pgina hollarda va asosan islomni ongli tarzda qabul qilishi bilan bog'liq.

Shuningdek, aholisi an'anaviy ravishda buddaviylik va islomga e'tiqod qilib kelgan o'lkalarda xristianlikni yoyishga intilish kuzatilmoqda. BMT ma'lumotlariga ko'ra xristianlikning o'sish ko'rsatkichi yiliga 1,46 foizni tashkil qiladi. Mazkur jarayon ayrim

xristian tashkilotlari va yo'nalishlarining faol missionerlik harakati natijasida sodir bo'lmoqda.

Qayd etilgan mulohazalar bugungi kunda ham dunyoning diniy manzarasida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'layotganidan dalolat beradi. Diniy konfessiyalar manzarasi rang-barangligini O'zbekistonda rasman ro'yxatdan o'tib faoliyat yuritayotgan diniy konfessiyalar misolida ham ko'rish mumkin. Xristianlikka mansub bo'lsa-da, yurtimizdagi 11 ta yo'nalishning har biri o'zini alohida diniy konfessiya, deb hisoblashi fikrimizning isboti bo'la oladi.

Noan'anaviy diniy tashkilot yoki oqim deganda bir mintaqa, hudud aholisi uchun begona bo'lgan, muayyan tarixiy sharoit yoki ijtimoiy vaziyat sababli o'sha yerga kirib kelgan yoki kirishga harakat qiladigan dinlar tushuniladi.

Bahoyilik diniy –siyosiy harakat bo'lib, 19 asrning 2 – yarmida Eronda paydo bo'gan. Uning asoschisi Mirzo Xusayn Ali Nuriy “Bahullo” degan nomi bilan tanilgan. Bahullo Bobiylar harakatining ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biri. Mazondaronda to'g'ilgan. Bobiylarning Eron shohiga uyushtirgan suiqasdi muvaffiyatsizlikka uchragandan keyin Baxullo 1852 yilda Iroqqa qochgan, bu erda o'zini Bob ishini davom ettiruvchi va xudodan vahiy olgan mahdiy deb e'lon qilgan. Bohoiylarning teologik va etik normalarni ishlab chiqish jarayoni 1850 yillarning o'rtalaridan boshlanib, baholulloxning vafotiga qadar qirq yil davom etdi. 1858 yilda Bog'dodda chiqqan “Kitobi imon” (“Ishonch kitobi”) asarida Bob ta'limotiga bo'lgan munosabat aks ettirilgan.

U 1873 yilda Falastinda “Kitob al-aqdas” (“Eng muvaqqaddas kitob”) asarini yozadi, unda bahoyilik mafkurasining asosiy g’oyalarini bayon etadi. bahoyilikning “Muvaqqaddas eri” Akka shaxridir.

Bahoyilik ta’limotiga ko’ra, Bahullo oxirgi payg’ambardir. Undan keyingi payg’ambar esa ming yildan so’ng kelishi mumkinligi da’vo qilinadi. Ta’limot o’zining quyosh tavqimiga ega: unga muvofiq bir yilda 19 oy bo’lib, har bir oyda 19 kun bor. Shuningdek, bahoyilarning buzuq aqidasiga ko’ra, mavjud dinlarni yo’qotishning hojati yo’q, ularni qandaydir bir nuqsonsiz ta’limot asosida birlashtirish lozim.

Aslida hamma dinlar yaxshi, faqat ularni ortiqcha aqida va urf-odatlardan tozalash kerak. Muhimi- Xudoni sevish kerak, chunki muhabbat-tarqqiyotning sharti va koinot qonunidir. Bahoyilik aqidasining ayrim qismlari Islom va nasroniylikdan olingan. Bundan tashqari, daosizm, zardushtiylik, konfustiylik va krishnachilikdan ham foydalanilgan. Bahoyilar bahs va munozarada turli dinlarning diniy adabiyotlariga murojaat etadilar va ularni asos qilib keltiradilar.

Bahoyilarning xudosi musulmonlarning Allohiga tenglashtiriladi. Nasroniylarning uchligi, Injil va Iso masihning otasiz dunyoga kelishi rad etiladi. Iblis va salbiy kuchlar mutloqa rad etiladi, chunki bahoyilar aqidasiga ko’ra yomonlik bu yaxshilikning mavjud bo’lmasligidir. Jannat ruhiyatining kamolatga erishishi deb qaralsa, do’zah esa buning aksidir.

Bahoyilar Islomning 5 ustunini ham rad etadi. bahoyilar qiyomatga va o’liklar tirilishiga ishonadilar, lekin isoning qayta tirilishini inkor etadilar. Ibodatxonalarini 9 eshik va 9 ustundan tarkib topgan. Bu 9 dinni

bir joyga jamlangan ramzidir. Bohoyilar fikriga ko'ra, din ilm va fanga qarshi bo'lmasligi kerak, shu tufayli ular inson paydo bo'lish evolyustiyasi va erning tabiiy paydo bo'lish nazariyalarini maqullaydilar.

Bahoullo tomonidan ishlab chiqilgan bahoyilar jamoasini tashkil qilgan va boshqaqarish tizimi mahalliy, milliy va xalqaro darajalarni o'zi ichiga oladi. Jamiyatga 21 yoshga to'lganlar qabul qilinadi.

Jamoa a'zolari faqat o'zlarining jamoalari uchun ishlaydilar. Xayr-ehsonlar faqat bahoyilardan qabul qilinadi. Ayollar hukumatning yuqori tizimga qo'yilmaydi.

Bahoyilarning oliy ma'muriy markazi "Umumjahon adolat uyi" deb ataladi. U Xayfa shahrida joylashgan. Bahoyilarning "Umumjahon adolat uyi" xayr-exson hisobiga faoliyat ko'rsatadi. U 9 kishidan iborat haqiqiy a'zolari ("Xalqar majlis") tomonidan boshqariladi. Ular "Milliy majlis"lar raislari tomonidan qurultoyda yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadilar. 1963 yilda –birinchi, 1998 yilda esa sakkizinchi qurultoy bo'lib o'tgan. Bahoyilar harakatini boshqarishda mintaqaviy maslahatchilar instituti muhim o'rin tutadi. Ular "Umumjahon adolat uyi" tomonidan 5 yil muddatga tayinlanadilar.

1990 yil ma'lumotlarga ko'ra, ularning umumiy soni 81 kishini tashkil etgan. "Umumjahon adolat uyi"da -9 kishi, Afrikada-18 kishi, Shimoliy va Janubiy Amerikada 17 kishi, Osiyoda-216, Avstraliya va Okeaniyada-63 kishi, Evropada-72 kishi. Milliy majlis-bahoiy jamoalari ko'pchilikni tashkil etgan davlatlarga saylanadilar. Mahalliy majlis-bahoiylar nisbatan oz joylarga saylanib, mahalliy jamoani boshqaradilar.

1998 yilga kelib, dunyoning turli mamlakatlarida bahoiylarning 175 ta milliy va 17867 ta mahalliy jamoalari faoliyat ko'rsatgani qayd etilgan.

Bahoiylarning yirik jamoalari diniy marosimlarini "Ta'zim uyi"da bajaradilar. "Ta'zim uyi"da Xudoning tasviri, shuningdek, hech qanday bezaklar bo'lmaydi. U erda faqat ibodat qilinib, muqaddas yozuvlardan iborat parchalar o'qiladi. Hozirgi vaqtda dunyoda 7 ta "Ta'zim uyi" mavjud bo'lib, ular AQSh (Chikago, 1953), Avstraliya (Sidney, 1961), Uganda (Kampala, 1961), Germaniya (Frankfurt, 1964), Panama (Panama, 1972), Harbiy Samoa (Apia, 1984) va Xindistonda (Dehli, 1986) joylashgan.

Bahoyilar missionerlik faoliyatini ekologiya, oila, dunyoviylik g'oyalari va boshqa dolzarb muammolariga bog'lagan holda, o'ziga hos "jozibali" tarzda olib boradilar. Natijada, dunyo miqyosda bahoyilar soni ortib borib bormoqda. Bugungi kunda bahoiylarning o'z manbalariga ko'ra, XX asr oxirlariga kelib dunyo miqyosida 6 million bahoyi hisoblangan. Ular 200 dan ortiq mamlakatga yoyilgan. Bahoyilar o'z an'anaviy bayramlarini o'tkazadi. Xayfa shahriga ziyoratga borib turadilar.

Bahoyilik dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida tarqalganligi sababli xalqaro tashkilotlarga ham kirib bormoqda. 1948 yilda bahoiylarning xalqaro birlashmasi (BXB) BMT huzurida noxukumat tashkilot sifatida qayd qilingan. 1970-yilda BXB BMTning iqtisodiy va ijtimoiy kengashi va Bolalar fondida maslahatchi statusini olgan. Bundan tashqari, BXB xalqaro sog'liqni saqlash tashkiloti va BMTning Atrof-muhitini muhofaza qilish dasturilari bilan hamkorlik qilmoqda.

O‘zbekiston hududida bahoyilarning ilk vakillari 19 asr oxirlarida Samarqand shahrida paydo bo‘lgan. Ularning faoliyati natijasida 1928 yilga kelib bahoyilarning birinchi mahalliy jamoasi tashkil topgan. Keyinchalik Buxoro, Toshkent, Kogon, Andijon va boshqa shaharlarda ham mahalliy jamoalar tuzilgan.

“Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahriri qabul qilingan davrigacha bahoyilar jamoalari Toshkent, Samarqand va Navoiy shaharlarida ro‘yxatdan o‘tib faoliyat ko‘rsatib kelgan. Vaholanki, O‘zbekistonda bahoyilarning 19ta mahalliy jamoasi mavjud bo‘lgan. Demak, Toshkent, Samarqand va Navoiy shaharlarida rasman faoliyat ko‘rsatib kelgan jamoalardan tashqari, ularning 16 jamoasi norasmiy ish olib borgan.

Garchand bahoiy jamoalari tomonidan ichki barqarorlikka tahdid soluvchi harakatlar sodir etilmagan bo‘lsa-da, ularning missionerlik faoliyati O‘zbekistonda keng tarqalgan an’anaviy diniy konfessiyalar tomonidan qoralanadi. Bahoiylarning ayrim hududlaridagi xatti-harakatlari tub aholining noroziligini ham keltirib chiqargan holatlari mavjud.

Ahmadiya — XIX asr oxirida Hindistonda vujudga kelgan diniy harakat. Mirza G‘ulom Ahmad Qodiyoniy (1835—1908) asos solgan. U XIX asrning 70-yillarida Panjob musulmonlari o‘rtasida yirik ulamo va avliyo sifatida nom chiqargan. Islom tarixi va ilohiyot bo‘yicha bir necha asar yozgan. 1891-yilda “Anjumani Ahmadiya“ diniy tashkilotini tuzgan. Izdoshlari uni “payg‘ambar”, deb e‘lon etgan. Vafotidan keyin uning o‘rniga Hakim Nuriddin qolgan. Bashar Ahmad ibn G‘ulom ham

taniqli ahmadiya arboblardan hisoblanadi, “Siyrat ul Mahdiy” (“Mahdiyning hayot yo‘li”), “Kalimat ulfadl” (“Ajratuvchi so‘z”) va boshqa kitoblari bor.

Dastavval «Mirzoiya», keyinchalik esa vujudga kelgan joyga nisbatan – «Qodiyoniya» deb nomlangan. Mirzo G‘ulomning 1900 yil 4 noyabrdagi bayonotiga binoan oxir oqibat «Ahmadiya» nomini olgan. G‘ulom Ahmadning islom asoslaridan chetlashishiga va g‘ayriislomiy g‘oyalarni yaratishiga zamin yaratgan bir qator omillarni qayd etish mumkin. Xususan, G‘ulom Ahmad tabib otasidan tibbiyotga oid ilmlarni o‘zlashtirgan bo‘lsa-da, diniy ilmlarni hech kimga shogird tushmay mustaqil o‘rgangan.

G‘ulom Ahmadning o‘g‘li Mahmud Ahmad ibn G‘ulom otasi haqidagi “Siyrat ul-Mahdiy” (“Mahdiyning hayot yo‘li”) nomli kitobida uning ilm olishda birorta ustoz bo‘lmaganini yozgani ham fikrimizning isboti bo‘la oladi. G‘ulom Ahmadning yoshligidan hinduiylik, yahudiylik, xristianlik aqidalari bilan tanishgani ham uning dunyoqaraashiga kuchli ta’sir o‘tkazgan. Uning o‘zini hinduiylarning Avatari (hinduiylik ta’limotiga ko‘ra, Xudoning Yerdagi ko‘rinishi), yahudiylarning Mashiahi (yahudiylikka ko‘ra, Isroil xalqi va insoniyatni qutqarish uchun Yaratgan tomonidan yuboriladi, deb ishhoniladigan Dovud payg‘ambar avlodidan bo‘lgan shoh), xristianlarning xaloskori va buddaviylarning Maytreyasi (buddaviylar tomonidan Yerda paydo bo‘lishi kutiladigan iloh) deb e’lon qilgani ham shunday xulosa chiqarish imkonini beradi.

Bu bir tomondan, ushbu ta'limotning mazkur dinlarning g'oyalari qorishmasidan iborat ekaninni va ikkinchi tomondan, G'ulom Ahmad islomga mutlaqo yot bo'lgan aqida va jamoaga asos solganini ko'rsatadi.

Jamoa dastlab, ba'zi mustamlakachi davlatlarning ma'lum maqsadli rejasi asosida yuzaga kelib, ularning himoyasi ostida shakllangan. Uning hayot yo'lini qunt bilan o'rganib chiqqan ulamolarimiz, avval boshda Panjob viloyatiga bostirib kirib, o'rnatib olishga muvaffaq bo'lgan ingliz mustamlakachilariga sidqidildan xizmat qilgani, faoliyatini dastlab islomga chaqirirq bilan boshlab, atrofiga muxlislar orttirgach, o'zini Alloh tomonidan yuborilgan "mujaddid" (dinni yangilovchi — reformator) deb da'vo qila boshlaganini ta'kidlashadi.

Keyinchalik esa ergashuvchilari ko'paygach, avvaldan rejalashtirilgan maqsadga ko'ra, kutilgan Mahdiy va va'da qilingan Masih, so'ngra payg'ambarlik da'vosi bilan chiqqan, hatto uning payg'ambarligi Muhammad (s.a.v) nubuvvatidan ham a'lo va yuksak ekani e'lon qilingan.

Asli marokashlik tahlilchi Idris Shomixning „Qodiyoniylik — mustamlakachilik mahsuli“ maqolasida ta'kidlanishicha, 1869-yilda Britaniya qirolligi Hindistonadagi vaziyatni tahlil qilish maqsadida ushbu mamlakatga bir guruh olim va din ulamolarini yuborgan. O'rganish natijalariga ko'ra, hukumatga taqdim etilgan hisobotda Hindistondagi musulmonlar o'z rahbarlarigagina bo'ysunishi, agar "Ilohiy ilhom" sohibi bo'lgan biror yangi diniy rahnamo bo'lsa, uning ortidan ko'plab odamlar ergashib ketishi mumkinligi haqidagi g'oya

bayon etilgan. Mutaxassislar aynan shu xulosaga tayaniib, dinni yangilash bayrog‘i ostida musulmonlarni Britaniya imperiyasiga tobe bo‘lishga chaqiruvchi, Vatan mustaqilligi uchun kurash tuyg‘usini so‘ndiruvchi yangi harakatni shakllantirish rejasi ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilinganini qayd etadilar.

G‘ulom Ahmad o‘z faoliyatini avvaldan puxta ishlangan reja asosida tizimli raviishda amalga oshirib borgani, o‘z asarlarida mustamlakachilarga nisbatan yuksak ehtirom bilan munosabatda bo‘lgani ham bunday xulosalarning o‘rinli ekanini ko‘rsatadi. O‘ziga ikki marta ingliz tilida vahiy yuborilgani, ularni yosh yigit suratidagi bir ingliz odam keltirishi borasidagi iddaosi va Hindiston xalqi ozodlikka erishishi yo‘lida harakat qilgan bir vaqtda G‘ulom Ahmadning aksincha, Vatanni ozod qilish yo‘lidagi urushlarni qoralab, mustamlakachi hukmdorlarga sodiq bo‘lishga chaqirgani bir tomondan, uning mustamlakachi xojalarini ulug‘lash yo‘lida hech narsadan tap tortmaganini, ikkinchi tomondan, harakat ortida aslida qanday kuchlar turganini fosh qiladi.

Ahmadiylarga ko‘ra barcha dinlar, qandaydir xaloskorni kutadilar, uni kelishi ilinji bilan yashaydilar. Agar kutilayotgan qutqaruvchi, bir odamda mujassam bo‘lsa, dinlararo kelishmovchilik yo‘qotilgan va bashariyat hamohanglikka etganlar bo‘lar edi.

Mirzo G‘ulom Ahmad 1908 yil 26 mayda Lahorda vafot etgan. Qabri Qodiyonga olib ketilgan va tarafdorlari uchun muhim ziyoratgohga aylangan. Mirzo G‘ulom Ahmadning o‘limidan keyin shogirdlari uning fikrlarini yig‘ishda davom etdilar va natijada

«Sinkretik Qodiyoniylik/Ahmadiylik harakati» yuzaga kelgan. Keyinchalik oqim «Qodiyon ahmadiylari» va «Lahor ahmadiylari» nomli ikki jamoaga bo‘linib ketdi.

Dastlab, payg‘ambarlikning Muhammad (s.a.v) bilan tugagani va qiyomatgacha undan boshqa payg‘ambar kelmasligini tan olishini ta’kidlagan Mirzo G‘ulom, 1901 yildagi «Juma xutbasi»da uning izdoshi bo‘lgan Mavlaviy Abdulkarim Mirzo G‘ulom Ahmad uchun «nabiy» va «rasul» sifatlarining ishlatish mumkin deb e’lon qilgan. Avvalroq, «Muqaddas» (xitob qilinib, gaplashilgan) deb nomlangan Mirzo G‘ulom keyinchalik muhaddaslikni bir ma’noda juz’iy nabiylik sifatida baholagan; butunlay payg‘ambarlikning tugaganini, lekin juz’iy nabiylikning qolganligini ochiqcha aytgan.

Nihoyat 1902 yili u quyidagi so‘zlar bilan haqiqiy niyatini va maqsadini ma’lum qilgan: «Qayta-qayta aytganim kabi, men sizlarga o‘qib bergan bu so‘zlar, qat’iy va aniq shaklda Qur’on va Tavrot kabi Allohning so‘zidir. Men Allohning zilliy va Buruziy nabiyisiman va har bir musulmon diniy ishlarda menga itoat qilishi kerak. Har bir musulmonning mening Mav’ud (va’da qilingan) Masih ekanimga ishonishi kerak. Chaqirig‘im (da’vatim) yetib borgan har bir inson meni ishlarida xoqon deb bilmasa, mening Mav’ud Masih ekanligimga ishonmasa va menga kelgan vahiyning Allohdan kelganligini qabul qilmasa, garchi musulmon bo‘lsa-da, o‘z davrida qabul qilishi kerak bo‘lgan narsani inkor qilgani uchun osmonlarda jazoga loyiq va mas’ul bo‘ladi».

Qodiyoniylar aqidasi ko'ra, Alloh ro'za tutadi, namoz o'qiydi, uxlaydi, uyg'onadi, yozadi, imzo chekadi, ba'zan adashib ham turadi. Farishtalar ko'z bilan emas, ruh bilan ko'rilishi mumkin. Ular vahiy olib keluvchi, Allohning buyurganlarini elchilariga o'rgatuvchi, imon egalari quvvat bag'ishlovchi, insonlar uchun shafobatda bo'luvchi, insonlarning ruhiy jihatdan yuksalishlarini va yaxshi ishlarga yo'nalishlarini ta'minlovchi mavjudotlardir.

Mirzo G'ulom Ahmad, Muhammad (s.a.v)dan keyin (shariat olib kelgan) vahyning kelmasligi fikrini olib, haqiqiy nabiylk uchun Jabroil (a.s.)ning kelishi kerakligi haqidagi aqidani olg'a surgan. Ahmadiylarning e'tiqodiy mavzulardagi eng qiziq fikrlari oxirat bilan bog'liqdir. Ahmadiylarga ko'ra, oxirat, yangi bir holat emas; haqiqatda u, hozirgi ma'naviy hayotimizning mukammal va qusursiz ko'rinishidir; oxiratning ne'matlari ma'naviydir. Har bir qodiyoniy oylik daromadining 1/16 qismini mazhabga ajratishi va buni vasiyatiga qo'shib yozishi talab qilinadi.

Qodiyoniylik izdoshlari 5-6 millionga yaqin deb taxmin qilinadi. Bu miqdor biroz ko'paytirilgan bo'lishi ham mumkin. Hozirgi kunda ahmadiylar Hindiston va Pokistondan tashqari, bir necha arab mamlakatlari, Eron, Afg'oniston, Afrika hamda G'arb mamlakatlarida tarqalgan. Londonda ularning katta markazi bor. Ahmadiylar MDH hududiga keyinga yillarda kirib keldi. Ko'proq ishbiarmon, tojir va xayriya jamiyati vakillari sifatida Tatariston va boshqa joylarda rasmiy ro'yxatdan o'tgan. Robita al-olam al-islomiy (Islom olami ittifoqi) Ahmadiyani «islomga yot oqim» deb e'lon qilgan.

Xalqaro Krishnani anglash jamiyati. Shрила Bxaktivedanta Svami Prabhupada nomi bilan tanilgan asli hindistonlik Abhay Charan De (1896-1977) tomonidan tashkil etilgan. U 1947 yilda «Veda» falsafasi bilimdoni sifatida «Bxaktivedanta» (sanskrit. «sodiqlik», «fidokorona xizmat») unvoniga sazovor bo‘ladi. Sanskrit tilidan ingliz tiliga ko‘pgina «Veda» matnlari, jumladan, «Bxagavadgita» («Xudo qo‘shiqlari»)ni sharhlar bilan tarjima qildi. 1959 yilda 63 yoshida dunyodan voz kechishga ahd qiladi va Svami («Aql va hissiyotlar egasi») unvoniga erishadi.

1965 yilda A.Ch.Bxaktivedanta Svami AQShga ko‘chib o‘tdi va «Xalqaro Krishnani anglash jamiyati»ga asos soldi. Bu davrda Sharq mistik ta’limotiga nisbatan katta qiziqish Krishnani anglash falsafasini targ‘ib qilish uchun qulay shart-sharoit yaratdi va harakat tez rivoj topdi. Ma’lumotlarga ko‘ra, bugungi kunda dunyoning turli burchaklarida ularning 150 dan ortiq ibodatxonalar mavjud.

Krishnachilik (vayshnaviylik) odam qiyofasidagi xudo Krishna (Vishnu)ga e’tiqod qilishga asoslangan hinduiylikning ikki asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Krishnachilikning muqaddas yozuvlariga «Bxagavatgita»dan tashqari boshqa «Veda» matnlari ham kiradi.

Krishnachilik yakkaxudolikka, ya’ni yagona va mutlaq xudo – Krishnani tan olishga asoslanadi. U abadiy, yaratilmagan va cheksiz shakllarga kirish qobiliyatiga ega. Krishnachilik ta’limotiga ko‘ra, olam ruhiy va moddiy dunyoga bo‘linadi. Insonning ruhi tanasiga nisbatan

birlamchidir. Krishnachilar ruhni rivojlantirib ichki komillikka erishish va shu yo‘l bilan xudoga qo‘shilishni oliy maqsad, deb biladilar.

«Xalqaro Krishnani anglash jamiyati»da o‘z ergashuvchilarining mol-mulklarini jamiyat hisobiga xayr-ehson qilishlari hamda ibodatxonada ruhoniylk vazifasiga o‘tishlari rag‘batlantiriladi. Bu ta’limotni qabul qilgan har bir kishiga yangi - sanskritcha nom beriladi. Jamoa a’zolari sari, dxoti va boshqa hind milliy liboslarini kiyadilar.

Krishnachilar tomonidan missionerlik faoliyati o‘tgan asrning 70-yillarida boshlangan. Ular tomonidan amalga oshiriladigan targ‘ibotchilik harakatining o‘ziga xos xususiyatlari qatorida ko‘chalarda ibodat kiyimlarida yurib qo‘shiqlar aytish va adabiyotlarini tarqatish, «Hayot uchun ozuqa» deb nomlanadigan, bepul oziq-ovqat tarqatish aksiyalari o‘tkazilishini ko‘rsatish mumkin. Bunday harakatlarning asosiy ob’ektlari sifatida odatda talabalar, maktab o‘quvchilari, qariyalar va mehribonlik uylarida istiqomat qiluvchilar tanlab olinadi.

2. O‘zbekistonda faoliyati kuzatilgan norasmiy diniy jamoa va sektalar.

Tarix shuni ko‘rsatadiki, chuqur ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar boshidan kechirayotgan jamiyatda rivojlanishning «yagona to‘g‘ri yo‘li»ni, agar jamiyatdagi vaziyat salbiy tomonga yo‘nalgan bo‘lsa, «yagona najot yo‘li»ni bilishga da’vo qiluvchi turli diniy jamoalar yoki sektalar vujudga kelishi kuzatiladi.

O‘zbekistonda ham 1990-yillarning boshida muayyan darajada xarizma va tashkilotchilik qobiliyatlariga ega, o‘ziga ishonchi yuqori bo‘lgan ayrim «yangi dindorlar» o‘z g‘oyalarini boshqalarga ham targ‘ib

qila boshladilar. Oqibatda respublikada bir necha norasmiy diniy jamoalar shakllandi. Ularning a'zolari orasida maxsus diniy ma'lumotga ega shaxslar deyarli uchramaydi. Hozirgi kunda respublikada faoliyati kuzatilayotgan norasmiy diniy jamoalar qatoriga «Ma'rifatchilar», «Shohidiylar» va «Baxshillochilar»ni kiritish mumkin.

«Ma'rifatchilar» jamoasiga 1990-yillarning o'rtasida Farg'ona viloyati Toshloq tumanida yashovchi Bahodir Mamajonov (1950 y.t.) tomonidan asos solingan. Jamoaning g'oyaviy ta'limoti B.Mamajonov tomonidan yozilgan va noqonuniy tarzda chop etilgan, diniy va ilmiy asossiz yozilgan «Ma'rifat», «Tilak», «Namoz-Sig'inish», «Rost-Qur'on» kitoblari hisoblanadi.

«Ma'rifat» kitobi B.Mamajonovning diniy mavzudagi fikrlari va nozil bo'lish tartibiga ko'ra joylashtirilgan bir necha suralarning tarjimasidan iborat. Ushbu kitob nomidan kelib chiqqan holda aholi ichida B.Mamajonovning izdoshlari «Ma'rifatchilar» deb tanilgan. B.Mamajonov esa o'zini va tarafdorlarini «To'g'ri din»dagilar deb hisoblaydi.

«Namoz-Sig'inish» kitobida B.Mamajonov tomonidan belgilangan namoz tartibi bayon qilingan. «Rost-Qur'on» kitobida ham go'yoki «Usmon ibn Affon davrida Qur'on noto'g'ri tartiblangan» degan da'vo ostida suralar nozil bo'lish tartibiga ko'ra joylashtirilgan.

«Ma'rifatchilar»ning an'anaviy islom ta'limotiga zid da'volari:

- Qur'on va namoz milliy tilda, ya'ni o'zbek tilida o'qilishi shart hisoblanib, go'yoki «o'zi aniq bilmagan narsaga erishish» shirk ekani e'lon qilinib, «ota-bobolarimiz ... mushrik edilar» deb hisoblanadi;

- O‘zbekiston aholisi faqat 1990 yili «Sharq yulduzi» jurnalida chop etilgan Qur‘on tarjimalari orqali haqiqiy Qur‘onga (B.Mamajonovning da‘vosicha – «Rost-Qur‘on») erishgan, ungacha Qur‘onga go‘yoki «shayton suralari qo‘shilgan» deb da‘vo qilinadi hamda mavjud tafsirlar tan olinmaydi;

- Muhammad payg‘ambarga «vositachi», «uning vazifasi faqat Qur‘onni yetkazish edi» degan da‘vo bilan hurmat ko‘rsatilmaydi, «xulafoi roshidin»dan keyingi xalifalar «do‘zaxi» sanaladi;

- Qur‘on - yagona muqaddas manba, hadislar tan olinmaydi;

- dunyoviy partiya va boshqa dindagilar, shu jumladan, yahudiy va xristianlar «shaytonga ergashgan»lar deb qaraladi;

- mazhablarga ergashish «shirk» amal hisoblanadi;

- mayyitni kafanlash va «janoza» o‘qish islomda yo‘q amallar, deb qaraladi;

- go‘yoki isrof bahonasida davlat bayramlari va tug‘ilgan kunlarni nishonlash, to‘y-ma‘rakalar o‘tkazish, diniy marosim va urf-odatlar dindan chiqaruvchi shirk amallar qatoriga kiritilgan;

- namoz va ibodatda ishlatiladigan sano va salovotlarning barchasi o‘zbek tilida o‘qilishi joriy qilingan, namoz vaqti va tartibi e‘tiborga olinmaydi, bir sutkada besh mahal azonsiz, B.Mamajonov belgilagan vaqt va tartibda 17 rakat, kechasi 2 rakat sunnat namozi o‘qiladi.

Jamoa a‘zolarining asosiy qismini B.Mamajonovning qarindoshlari va yaqinlari tashkil etadi. Ayrim a‘zolar O‘zbekiston islom harakatining

jangovar lagerlarida «hijrat»da bo‘lib qaytganlar. Hozirda jamoaning kam sonli a‘zolari Farg‘ona viloyatining Toshloq tumani va Samarqand viloyatining Ishtixon tumanida istiqomat qiladi.

«Shohidiylar» jamoasiga 1990-yillarning boshida diniy ma’lumotga ega bo‘lmagan andijonlik Karimov Xabib (1944 y.t.) asos solgan. Jamoa tarafdorlari 52 nafarni tashkil qilib, Andijon shahri va Andijon tumanidagi fuqarolar yig‘inlarida faol harakat qilganlar. Oqim tarafdorlari navbati bilan davriy ravishda (15 kunda bir) o‘z xonadonlarida yig‘ilishlar tashkil qilib, oqimning «Qur’ondan ma’ruf» nomli kitobi asosida diniy darslar o‘tkazganlar. Ushbu jamoa diniy qarashlarida islom ta’limotiga zid quyidagi tamoyillar mavjud:

- *Qur’on tafsirlari va hadislar inkor qilinadi;*
- *namoz besh mahal emas, istalgan vaqtda ikki rakat o‘qiladi, go‘yoki soliq amallar namoz hisobiga o‘tadi deb hisoblanadi;*
- *Makka shahridagi «Masjidul Harom»dan boshqa masjidlar tan olinmaydi, imom-xatiblar go‘yoki sof islomdan qaytgan hisoblanib, jamoa a‘zolariga namoz uchun masjidga borish man etilgan, juma namozi faqat Makka ahliga farz etilgan deb da’vo qilinadi;*
- *islomiy marosimlar o‘tkazilmaydi. Jumladan, 2001 yilning sentabrida X.Karimov onasi vafot etganda mayyitni kechasi yashirincha, «janoza» o‘qimay ko‘mib kelgan;*
- *jamoa a‘zolariga to‘y va boshqa dunyoviy marosimlarni o‘tkazish yoki ishtirok etish ta’qiqlangan;*

- *quda-andachilik munosabatlari faqat oqim a'zolari o'rtasida o'rnatiladi;*

- *spirtli ichimliklarni ma'lum bir me'yorda (mast holatga keltirmaydigan) iste'mol qilish harom sanalmaydi.*

«Shohidiylar» jamoaga yangi a'zolari asosan o'zlarining yaqin qarindoshlari ichidan jalb qiladilar. Quda bo'lish ham odatda faqat jamoa doirasida amalga oshiriladi. Yangi a'zolarga oq matoga o'ng qo'lini qo'ygan holda qasamyod qilishi va 70 kun ro'za tutishi yoki kuniga 800-1000 so'm (jami 56-70 ming so'm) miqdorida a'zolik badali to'lashi buyuriladi. Jamoa a'zolariga diniy tushunchalar «Qur'ondan ma'ruf» nomli kitob asosida beriladi. Ushbu kitob 1960-yillarda Toshkent shahri va viloyatida vujudga kelib, hozir faoliyati kuzatilmayotgan, hadislarning muqaddasligini va mazhablarga ergashishni rad etgan «Ahli Qur'on» norasmiy diniy jamoasi a'zolari tomonidan tayyorlangan.

Ma'lumki, islomda harom qilingan amal yoki narsani halol hisoblash e'tiqodiy shirk hisoblanadi. «Ma'rifatchilar» va «Shohidiylar» jamoasiga a'zo bo'lgan shaxslar shariat hukmiga ko'ra dindan chiqqan hisoblanadi. «Shohidiylar» hozirda Andijon shahri va Andijon tumani hududida istiqomat qiladilar.

«**Baxshillochilar**» norasmiy jamoasiga Buxoro viloyatida tug'ilgan Aliev Baxshillo 1997 yilda asos solgan. Uning diniy qarashlari quyidagi holatlarga ko'ra islom ta'limotiga zid sanaladi:

- B.Aliev o'zini avval qiyomatdan oldin keladigan Mahdiy, keyinchalik esa payg'ambar, turmush o'rtog'i Mohira Alievani

«musulmonlar onasi», farzandlarini «musulmonlar amiri», yaqin izdoshlarini «sahobiylar» deb e'lon qilgan;

- jamoada shahodat kalimasida B.Alievni payg'ambar deb tan olish joriy qilingan;

- B.Aliev go'yoki uni ziyorat etgan shaxs ham amalini bajargan odamning savobini olishini, o'ziga ergashganlarga qiyomatda savol-javob yo'qligi, ular qanday holatda vafot etishidan qat'iy nazar, shahidlik maqomi berilishi, hatto barcha erkak maslakdoshlariga payg'ambarlik darajasi berilishi haqida targ'ib qiladi;

- namoz besh emas, go'yoki uch mahal farz qilingan;

- o'g'il farzandlarni islom talablariga muvofiq xatna qildirish bekor qilingan.

Jamoada tartib diniy sekta shaklida tashkil etilib, jamiyat bilan ijtimoiy aloqalari buzilgan. Jamoa a'zolari rahbarning barcha ko'rsatmalarini so'zsiz bajaradilar va unga tegishli buyumlarni «tabarruk» sanaydilar. Ba'zi adeptlar turmush o'rtoqlarini M.Alievga «muxlisa» etishi oqibatida jamoada o'ziga xos «ayollar qanoti» vujudga kelgan. B.Aliev 1990-yillarning oxirida aholi ichida diniy va milliy asosda nizo keltirib chiqarishga qaratilgan jinoiy xatti-harakatlar sodir etgani uchun jazoga tortilgan.

2006 yilda ozodlikka chiqqach, Rossiya Federatsiyasiga doimiy yashash uchun ko'chib ketgan. Aynan mana shu davrda B.Aliev izdoshlari ichida uni ziyorat qilganlarga go'yo hoji maqomi berilishi haqidagi g'oyalarni tarqatgan. Rossiyaga borgan «Baxshillochilar»

B.Alievga katta miqdorda pul berishlari, ishga yollanib, daromadlarining asosiy qismini jamoa yetakchisiga topshirishlari kuzatilgan. 2008-2010 yillar davomida jamoa a'zolari shu tariqa «hijrat»ga chiqib, o'z yetakchilariga «baytulmol» sifatida pul to'plab berganlar.

«Baxshillochilar» asosan Buxoro va Kogon shaharlarida istiqomat qiladilar. Ta'kidlash joizki, norasmiy diniy jamoalarning faoliyatida ishtirok etish, jamoa g'oyalari asosida diniy ta'lim olish yoki o'rgatish O'zbekiston Respublikasi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonunning 5 va 9-moddalarini buzish hisoblanib, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining tegishli moddalarida belgilangan qonuniy jazo qo'llanishiga olib keladi.

Yangi xristianlik harakatlarining yo'nalishlari. Zamonaviy voqelik diniy-ekstremistik xarakterdagi sektalarning inson ongi va qalbi uchun kurash yo'lidagi faoliyatining jonlanishi kuzatilayotganini ko'rsatmoqda. Xususan, ma'lumotlarga ko'ra, qo'shni davlatlarda “Bogorodichiy sentr”, “Serkov' ob'edineniya”, “Serkov Isusa”, “Serkov' Novogo Zaveta”, “Beloe bratstvo”, “Bojestvenniy orden Pervogo Angela” kabi o'nlab diniy sektalar noqonuniy ravishda faoliyat olib bormoqda. “Satanizm” deb ataladigan sekta ham keng tarqalgan. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, o'ta xavfli bo'lgan bu sektaning Rossiyada 100 ming, Yer yuzida 5 milliondan ortiq tarafdorlari bor.

Ular aholining diniy bilimlari pastligidan foydalanib, oxiratning yaqinligi bilan qo'rqitish hamda asosan yoshlar va moddiy ahvoli nochor bo'lganlar ichida ish olib borish yo'li bilan o'z tarafdorlarini

ko'paytirishga harakat qilmoqdalar. Bunday sektalarga asos solgan "avliyo"lar o'z izdoshlarini aldash yo'li bilan ularning mol-mulklariga egalik qilishga urinmoqdalar.

Yashirin faoliyat olib borishi, sekta ichida bo'layotgan voqealarning ko'pchilikka ma'lum bo'lib qolmasligining qattiq nazorat qilinishi, ular faoliyatidan jamoatchilikning bexabar qolishini keltirib chiqarmoqda. Jahon xristianlarini birlashtirish yo'lidagi Muqaddas Ruh assosiasiyasi («Assosiasiya Svyatogo Duxa za ob'edinenie mirovogo xristianstva») (ASD-OMX) bo'lib, «Mun San Men birlashtirish cherkovi», «Birlashtirish harakati», «Munchilar» («Munisti») kabi nomlar bilan ham ataladi.

Birlashtirish cherkovi asoschisi Sun M'yunq Men 1920 yilda Shimoliy Koreyada mahalliy presviterian cherkoviga e'tiqod qiluvchi dehqon oilasida tug'ilgan. Maktabda o'qish davrida u pyatidesyatniklar yig'inlarida qatnashgan. 1936 yili Pasxa bayramida unga "vahiy" kelgan: Iso Masih unga ko'rinib, uni taxminan 2000 yil avval boshlagan missiyasini yakunlash uchun "tanlangan"ini aytgan. Ma'lumotlarga ko'ra, bu voqea sodir bo'lganda osmondan: "Sen insonlarni halokatdan qutqarasan, sen Masihning ikkinchi bor zohir bo'lishisan!". Shu voqea sabab u o'z ismining birinchi bo'lagi - Sun (ajdarho)ni -San (nur taratuvchi)ga o'zgartirdi va bu bilan u o'zini "ilohiy" kelib chiqishini bildirdi. Shu yo'l bilan yangi "payg'ambar"- Mun San Men vujudga keldi.

Mun 1948 yilda ma'naviy buzuqligi, "jamoat tartibini buzganligi" uchun 100 kunga, keyinroq esa qo'shxotinlik bilan ayblanib

5 yilga qamalgan. 1955 yilda Mun 10 dan ortiq ayollarning nomusiga tajovuz qilishda ayblanib sudga tortilgan. Ayblarni yumshatish, janjallarga barham berish uchun o'sha ayollardan biri Seuldagi "Rixva" universiteti talabasi 18 yoshlik Xak Xok Djaga 1960 yilda uylanadi ("svad'ba agnsev"). To'y sovg'asi sifatida "payg'ambar" o'z rafiqasiga "olamni yaratuvchi ona" ("mat' mirozdaniya") unvoni (tituli)ni beradi va o'zining Muqaddas kitoblarga "Bibliya"ga qo'shimcha ravishda yozgan "Ilohiy tamoyillar" ("Bojestvennie Prinsipi") nomli kitobini unga sovg'a qiladi.

1976 yildan boshlab birlashtirish cherkovi bir necha bor moliyaviy masalalar bo'yicha janjalli voqealarga sabab bo'lgan. 80-yillarning boshlarida dunyo bo'ylab birlashtirish cherkovining 150 dan ortiq korporatsiyalari tuzilgan bo'lib, ularga turli sohalarga oid korxonalar qarashli bo'lgan. 1992 yilda Mun o'zini yangi insoniyatning "Haqiqiy Ota"si deb e'lon qilgan, 1993 yilda "Yangi Ahd davri" tugab, "Ahdning yakuniy davri" ("Era Zaversheniya Zaveta") boshlanganini bildirgan. Munchilar to'liq va yakuniy haqiqatga "Haqiqiy Ota" orqali erishiladi, deb ishonadilar.

Mun va uning xotini yaqinda "Iso Masih"ga rafika topishgan va Iso Masih ularga ko'rinib minnatdorchilik bildirgan. Munchilarning ommaviy nikoh tantanalari "Unashtirish" marosimi munchilarning amaliyotida markaziy o'rinda turadi. U 2 qismdan iborat: "muqaddas vino" marosimi va "muqaddas nikoh". Ushbu marosimlar vino orqali unashtirilayotganlar odamzotning "birinchi gunohi"dan poklanib, yangi "haqiqiy" hayotni boshlashlarini anglatadi. Nikoh marosimidan avval "unashtirish" bo'lib o'tadi. Bo'lg'usi kelin-kuyovlar o'z juftlarini

topishni Mun va uning tajribali mintaqaviy liderlariga to'lig'icha ishonadilar. Ayrimlar o'z juftini nikoh tantanasidan bir necha kun avvalgina taniydilar. "Muqaddas vino" yoki "Nasabni o'zgartirish" marosimi orqali munchilar Mun va uning oilasi bilan qarindoshlik rishtalarini bog'laydilar

Mun ta'rificha: "Bu marosimlar shayton dunyosidan saqlovchi va "Haqiqiy ota-onalar"ga yaqinlashish bo'yicha o'ziga xos "emlash" vositasidir. Vinoda 21 bitta unsur (element) va "Ota va Ona"ning qoni jamlangan bo'lib, uni iste'mol qilgan inson o'z ajdodlaridan voz kechadi. Boshqa bir ma'lumotlarga qaraganda, ushbu ichimlik tarkibiga Mun va xotinining boshqa narsalari ham solinadi.

"Aum sinrikyo" - Aum (sanskritcha "olam") haqiqati ta'limoti; ingliz tilida «Supreme truth», ya'ni "oliy haqiqat» deb tarjima qilingan. Ushbu sekta 2000 yildan boshlab "Alef" nomi bilan faoliyat yuritmoqda (somiylar alifbosidagi birinchi harfi bo'yicha). "Aum sinrikyo" yangi diniy, sinkretik, terroristik, ekstremistik, totalitar, destruktiv sekta bo'lib, vadjrayana buddizmi asosida Yaponiyada vujudga kelgan. Sektaga yaponiyalik Syoko Asaxara 1987 yili asos solgan, u 1995 yilda Tokio metrosidagi zaharli gazlar portlatishni uyushtirgandan so'ng mashhur bo'lib ketgan. Hozirda sekta terroristik tashkilotlar ro'yxatiga kiritilgan. Yevropa Ittifoqi, Kanada, Rossiya, AQSH va boshqa davlatlarda faoliyati ta'qiqlangan.

"Aum sinrikyo"dan Rossiyada 24000, Yaponiyada 6600 kishi jabrlangan. 1990 yillarda sektaning N'yu York, Bonn, Shri Lankada markazlari faoliyat yuritgan. 1986 yilda ushbu sekta tashkilotiga diniy

tus berildi va u «AUM Sinsen-no-kay» («Ma'naviy rivojlangan va notabiiy kuch quvvatga ega kishilar jamiyati) deb ataldi. Shu yili Asaxara Himolayda «butunlay azoblardan qutilib, Nurlanishga erishdi». Tashkilot 1987 yilning iyulidan “Aum sinrikyo” nomi ostida butun mamlakat bo‘ylab bo‘linmalariga ega bo‘ldi. 1989 yil avgustidan sekta diniy tashkilot sifatida tanildi. U Yaponiyaning oliy tabaqadagi universitetining talabalarini o‘ziga jalb qilib, ikkinchi nom - «elita vakillari dini»ga ega bo‘ldi.

1995 yil 20 martda «Aum sinrikyo»ning 10 ta a'zosi tomonidan terroristik akt sodir etilgan. Ular Tokio metrosida zarin zaharli gazi yordamida gazli portlatish sodir etishgan. Natijada 12 kishi vafot etgan, o‘nlab kishilar zaharlangan, 1000 kishining ko‘rish qobiliyati pasaygan. Yaralanganlarda tananing ayrim a'zolarida paralich, so‘zlash qobiliyatining yo‘qolishi, tayanch harakat a'zolarining shikastlanishi, ko‘r bo‘lib qolish holatlari ham uchragan. Ularning fikricha, Oxirzamon kelishi, yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi oxirgi urush kutilmoqda va urushda barcha “gunohkorlar” qirib tashlanadi.

Polisiyachilar tomonidan sekta markazlari tekshirilganda kimyoviy va biologik qurollarning komponentlari (“Sibir yarasi” (“Sibirskaya yazva”) va “Ebola virusi”) topilgan. Bundan tashqari Zairdan keltirilgan Mi-17 harbiy vertolyoti bo‘lgan. Kimyoviy zaxira zarin tayyorlash orqali 4 million kishini o‘ldirishga yetadigan bo‘lgan.

«Oq birodarlik tashkiloti» (OBT) eng janjalkash sektalardan biri bo‘lib, Nyu Eyj harakati bilan o‘zaro bog‘liq. Uning g‘oyalarida ham «Baliq erasi» (Iso Masih davri) yakunlanib, Suvchi (Vodoley) erasi,

ya'ni yer yuzida Ilohiy boshqaruv davri boshlanishini da'vo qiladilar. Asoschisi va yaqin yillarga qadar rahbari Yuriy Krivonogov texnika fanlari nomzodi bo'lib, Kievning nevrologiya va psixiatriya institutida ishlagan. U ko'plab yangi g'oyalar muallifi, inson shaxsiyatiga ta'sir o'tkazish masalalariga qiziqqan. O'z qiziqishlari o'laroq, biroz muddat Krishnani anglash jamiyatiga a'zo bo'ladi va turli uslublarni o'rganadi. U "Atma" nomli "Qalb instituti"ni ochadi va "Znanie" nashriyoti orqali ko'plab risolalar chop etadi.

Krivonogov ko'p shaharlarda ma'ruzalar o'qib yuradi va Dnepropetrovskda bo'lg'usi xotini Mariya Svigunni uchratadi va to'y arafasi Mariyani yerdagi "Xudo" deb e'lon qiladi. Krivonogov o'zini turli avliyolar nomi bilan atab chiqqan (Ioann Predtech, Yoqub payg'ambar, Nuh payg'ambar, Ioann Krestitel', Tutanxamon, shoh Vladimir, v.h) va oxiri Yuoann Svami ismida to'xtagan. Mariya ham dastlab Xudoning onasi, keyin Ota Xudo, O'g'il Xudo, Muqaddas Ruhga aylangan, nihoyat Mariya Devi Xristos nomini olgan. Mariya yer yuzida uch yarim yil yashab 144 ming eng e'tiqodli kishilarni, ya'ni "haqiqiy e'tiqodlilar"ni jamlashi kerak bo'lgan. Bu kishilar yusmalianning yangi xalqi bo'lishi kerak edi (YuSMALOS bu "Yuoann Svami Mariya Logos" abbreviaturasi, shuningdek, "Jus malos" so'zining "yovuzlik qonuni" ma'nosi ham bor).

Yusmalos "olanmi qutqarish" missiyasi 1990 yil 1 iyuldan 1993 yil 24 noyabrga qadar etib belgilangandi. Yerdan oxirgi bo'lib bu er xotin ketishi, ularni chormixlashlari lozim bo'lgan. Jasadlar uch kun ko'chada turib, uchinchi kuni qayta tirilishlari va osmonga ko'tarilishlari kerak edi. O'sha kuni Oxirzamon bo'lib, yer yuzi vayron bo'lishi,

insoniyat halokatga uchrashi, keyin esa yusmalos xalqi yerda yangi hayotni boshlashi, ular jannatda, qolganlar do‘zaxda bo‘lishi ta’kidlangan. Belgilangan sanada Kievda bir necha ming tarafdorlar yig‘iladilar. Tabiiyki, Oxirzamon bo‘lmadi. Kievdagi muqaddas Sofiya ibodatxonasi oldida to‘polon uyushtirildi. Er va xotin ichki ishlar xodimlari tomonidan qamoqqa olindi.

“Butunjahon oq birodarlik” (yoki “Bolgariya oq birodarligi”) tashkiloti Bolgariyada 1900 yilda Petr Dinov tomonidan asos solingan. Bu tashkilot sinkretik, diniy, afsungarlikka asoslangan g‘oyalarga ega bo‘lib, xristianlik, hinduiylik, yoga ta’limotlari qorishmasidan iborat. Taniqli liderlaridan biri Mikael Ayvanxovdir (Mixail Ivanov — «Ayvanxov» — familiyasining inglizcha o‘qilishi «Ivanhov»). 1937 yili Petr Dinov o‘z shogirdi Ivanovni Fransiyaga tashkilot g‘oyalarini tarqatishga yuboradi. Ayvanxov Parijda 1947 yili tashkilot bo‘linmasini ochadi va unga «Izgreva» (bolg. «ko‘tarilish») deb nom beradi. 1953 yilda esa mamlakat janubida Riv'erada maxsus maktab ochadi («Bonfan»). 1960 yilning boshida Ayvanxov Hindistonga borib, ximolaylik rohibdan duo oladi va «Omraam» ismini qabul qiladi. Bu ism «ko‘rinmas, tutqich bermas g‘oyalarni yer yuzida amalga oshirish jarayonlarni jadallashtiruvchi”ga berilgan. Ayvanxov ma’ruzalari asosida ko‘plab kitoblar (32 tom) chop etilgan. Ular hozirgi BOB tashkiloti g‘oyalariga asos bo‘lgan. Ko‘pchiligi rus va esperanto tillariga tarjima qilingan. Sosialistik tuzum davrida tashkilot faoliyati to‘xtatildi, hozirda yana jonlangan. Ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning keskinlashib ketishi, ochlik, fuqarolar urushlari,

ommaviy epidemiyalar, spidning tarqalishi yuqoridagi kabi sektalarning keng yoyilishiga olib kelmoqda.

Umuman olganda, bunday sektalarning barchasi insonning ojizligi, ma'naviy va jismoniy kamolotga erishishga bo'lgan intilishi, kishilar hayotda duch keladigan qiyinchiliklardan o'zlarining g'arazli maqsadlari yo'lida shaxsiy boylik orttirish niyatida foydalanadilar.

Yahve shohidlari (yoki Iegovo shohidlari) yo'nalishiga 1873 yilda Charl'z Teyz Rassel (1852-1916) tomonidan asos solingan. Yo'nalishning diniy ta'limoti uning yetti tomlik "Muqaddas Yozuvni o'rganish" kitobiga asoslanadi.

Ch.Rassel vafotidan keyin tashkilotga rahbarlik qilgan Iosif (Djozef) Franklin Ruzerford Iegovoochilikka "armageddon" (ya'ni, go'yoki, oxirzamonda Iso boshchiligidagi Iegovoochilar va Shayton boshchiligidagi jinlar qo'shini o'rtasida bo'lib o'tadigan jang) tushunchasini kiritdi. Shuningdek, u har yili Iegovoochilarning xalqaro konferensiyalarini o'tkazishni, 50 ga yaqin kitob muallifi sifatida targ'ibot ishlarida radio va grammo-plastinkalardan foydalanishni yo'lga qo'ydi.

"Iegovo shohidlari" Uchlik haqidagi aqidani rad etishadi, lekin boshqa yo'nalishlar kabi uning barcha ko'rinishlarini izohlashadi. Ular xudoning o'z shaxsiy ismi bor, bu ism "Iegovo"dir va u barcha narsalarning asosi va yaratuvchisi, deb hisoblaydilar. Iegovochilar Iso Xudoning O'g'li bo'lgan deb e'tiqod qilsa-da, uning Xudo bo'lganini inkor qilishadi. Ularning ta'limotiga ko'ra, Iso Iegovoo tomonidan yaratilgan yagona insondir, qolgan barcha insonlar Masih orqali

yaratilgan. Muqaddas Ruh - Xudoning ko‘rinmas kuchi bo‘lib, u dunyo yaratilishida qatnashgan. Iso Golgofa tog‘ida xochga emas, balki ustunga mixlangan deb hisoblaganlari sababli ishlatilmaydi.

Iegovo butun insoniyat tarixida 144 ming kishini tanlab olgan, ular o‘lgandan so‘ng to‘g‘ridan-to‘g‘ri tiriladi va osmon podshohligiga o‘tib ketishadi. Hozirgi kunda o‘sha tanlangan 144 ming kishi, ya‘ni "kichik poda"dan (imoni mustahkam va din yo‘lida ko‘p xizmat qilgan) 11 mingtasi tirik, deb e‘tiqod qilinadi. Qolgan imonlilar, ya‘ni Iegovoo shohidlariga qo‘shilgan "qo‘ylar"ga (oddiy dindorlar) Yer yuzida abadiy jannatda yashashlari va‘da qilinadi.

“Iegovo shohidlari” faqatgina Iso Masih o‘limini eslash kechalari bilan bog‘liq bayramni nishonlaydilar. Shu kuni jamoa a‘zolari qarindosh va tanishlarini uylariga taklif qilishadi. Dasturxonda Isoning tana va qonining ifodasi deb bilinadigan xamirturishsiz non va qizil, quruq vino bo‘lishi shart. “Iegovoa shohidlari” diniy tashkiloti qat‘iy markazlashgan xarakterga ega. Uning diniy-ma‘muriy markazi - Boshqaruv korporatsiyasi hisoblanadi. U 15kishidan iborat bo‘lib, Bruklinda (AQSH, N‘yu-York) joylashgan. Boshqaruv korporatsiyasining 90 dan ortiq filiallari dunyoning turli mamlakatlarida targ‘ibot ishlarini olib boradi. Xristianlikning ko‘zga ko‘ringan vakillari Iegovoochilarning xristianlik bilan hech qanday umumiyligi yo‘q, degan fikrdalar.

Markaziy Osiyoda “Iegovo shohidlari” diniy tashkilotining birinchi jamiyatlari 1950-yillarda paydo bo‘lgan va norasmiy ravishda faoliyat ko‘rsatib kelgan. Bugungi kunda respublikamizda “Iegovo

shohidlari”ning 1 ta tashkiloti rasman ro‘yxatga olingan. “Iegovo shohidlari” missionerlikka katta e’tibor beradi. Jamoa paydo bo‘lgan davrdan boshlab, asosan uyma-uy yurish va adabiyotlar tarqatish bilan o‘z izdoshlarini ko‘paytirishga harakat qiladi. Ayrim ma'lumotlarga ko‘ra, hozirgi kunda Iegovoochi missionerlarning soni 700 mingdan ortiq kishini tashkil etadi. Jamoa rahbariyati tomonidan missionerlarni tayyorlash ishlariga katta ahamiyat beriladi. AQSHning Nyu-York shahrida, jamoaning bosh ofisi bilan bir joyda “Galaad” nomli missionerlar tayyorlash markazi mavjud. Ushbu markazda tashkil etilgan besh oylik kurslarda butun dunyodan kelgan missionerlar tahsil olishadi.

Missionerlik faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va adabiyotlarni nashr etish uchun “Qo‘riqchi minora”, “Bibliya” va “Risolalar jamiyati” tuzilgan. Ushbu jamiyat korporatsiya deb atalib, bosh qarorgohi tashkilot asosiy binosi bilan bir joyda, AQSHning Bruklin shahrida joylashgan. Korporatsiyani yetti direktordan iborat boshqaruv kengashi boshqaradi va ular korporatsiya prezidentini saylaydilar.

Hozirgi kunda “Iegovo shohidlari” 230 dan ortiq mamlakatda faoliyat olib boradi va dunyo bo‘yicha 111 ta mintaqaviy vakolatxonalarga ega. Iegovochilar missionerlikni o‘ziga xos tarzda va tizimli tashkil etganlar. Mutaxassislar fikricha, “Iegovo shohidlari” o‘z tarafdorlarini shakllantirishda jalb etishning 80 dan ortiq usulidan foydalanadilar. Jumladan, ular o‘z da'vatchilarining ovoz ohanglarida tinchlantirish va mehr tuyg‘ulari bo‘lishiga alohida e'tibor beradilar. Iegovochilar missionerlikni: 1) o‘z qarashlariga zarracha bo‘lsa ham qiziqish bildirgan odamlarni qidirib topish va so‘ng ularni ta'limotni

qabul qilishga tayyorlash; 2) da'vat qilinayotgan odamning ongiga "Bibliya" kurslari va uning matnini o'rganish orqali diniy ta'limotni singdirish; 3) prozelitlarni suv bilan cho'qintirish; 3) ularni missionerlik faoliyatiga tayyorlash kabi to'rt bosqichda amalga oshiradilar.

Iegovochilikning o'ziga xos jihatlaridan yana biri shuki, unda har bir a'zo missionerlik faoliyatida qatnashishi shart. Jumladan, jamoa rahbariyati tomonidan har bir a'zo oyiga 10 soatdan 150 soatgacha missionerlik faoliyatiga sarflashlari talab qilinadi. Jamoa a'zolari qancha ko'p vaqtlarini missionerlikka sarflaganlariga qarab tashkilot ierarxiyasida ko'tarilib boradi. So'nggi paytlarda Iegovochilar maktab o'quvchilari va yoshlar orasida targ'ibot ishlarini olib borishga intilish kuchli namoyon bo'layotganini ta'kidlash zarur. Ana shunday maqsadli faoliyat natijasida Iegovochilar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, hozirda Iegovochilar soni dunyo bo'yicha qariyb 7 millionni tashkil etadi. Ularning bosh tashkiloti tomonidan adabiyotlar nashr etish, cherkovlar faoliyatini ta'minlashga ketadigan sarf-xarajatlardan tashqari missionerlarning kundalik xarajatlariga yiliga 100 million AQSH dollariga yaqin mablag' sarflanadi.

Mormonlar. Mazkur oqimga 1830 yili N'yu-York (AQSH) shahrida Jozef Smit (1805-1844) ismli shaxs tomonidan asos solingan. Smit 1823 yilda Vermont shahridagi Sheron o'rmonida kambag'al va bechora tarafdorlariga Moroni nomli bir farishtaning o'ziga vahiy olib kelganini da'vo qiladi. Unga ko'ra Moroni, Smitga N'yu-Yorkdagi Kumora tepaligiga ko'milgan, qadimgi Misr tilida yozilgan oltin lavhlar va ularni tarjima qilish uchun Urim va Thummin toshlarini keltirib bergan.

Jozef Smit matnlarni o'qigani va farishta yordamida tarjima qilganini e'lon qiladi va uni nashr ettiradi. Shunday qilib, 1830 yilda "Mormon kitobi" bosib chiqarilgan. Kitobdagi buyruqqa binoan yangi bir cherkov qurilgan. Bu cherkov, "Iso Masihning oxirgi kun azizlari cherkovi" deb nomlangan. Uning tarafdorlari esa shundan so'ng "Mormonlar" deyila boshlangan. Mormonlar e'tiqodiga ko'ra, amerikaliklar isroil qabilalaridan kelib chiqqan va qizil oq tanlilardan tashkil topgan. Iso tirilganidan keyin oq tanlilar orasida faoliyat olib borgan, lekin uning cherkovi qizil tanlilar tomonidan vayron qilingan. Oxirgi oqtanlilar XVasrda yashagan Mormon bilan uning o'g'li Moronidir. Lavhlarni ana o'shalar ko'mgan va ularni Smit topib olgan. Smit 1831 yilda yangi Quddusning Kirtlandda (Ogayo shtati, AQSH) qurilishiga doir vahiy olganini aytgan. Tarafdorlar sonini orttirish maqsadida mormonlar faol ravishda missionerlik bilan shug'ullanganlar. Siquvga olingan Mormonlar, Kirtlandni tashlab Missuriga; u yerda ham ayni holga duch kelgach esa Illinoysga ko'chishga majbur bo'lishadi. 1840 yilda botqoqzor o'rnida Navu shahrini qurib, o'z markazlarini shu yerda tashkil etadilar. Omadli kechgan bir-ikki yildan keyin Smit "Mormon kitobi"da aksi yozilgan bo'lishiga qaramasdan, yangi bir "vahiy"ga asoslanib, ko'pxotinlilikni targ'ib qilgan va o'zi bu ishni boshlab bergan. Uning bu fikriga jiddiy qarshiliklar bo'lgan, natijada Smit ukasi va tarafdorlari bilan qamoqxonaga tashlangan. Qisqa bir muddatdan keyin ular mahbuslar tomonidan o'ldirilgan.

Smitdan keyin mormonlarga Brijman Yang boshchilik qildi. U o'limi ortidan 178 ta xotin va 49 ta bolani qoldirib ketdi. Mormonlar Yutada "Buyuk tuz ko'li" qirg'og'ida, "Tuz ko'li shahri" hozirgi Solt

Leyk Siti shahrini qurganlar. Ular bu yerda juda ham kuchayib ketganlar va ulkan mormon ibodatxonasini barpo etganlar.

“Iso Masihning oxirgi kun azizlari” sifatida o‘zlariga baho beruvchi mormonlarning e’tiqod asoslari J.Smit tomonidan tartibga solingan. Cherkov boshlig‘i “rais” deb nomlanadi. Mormonlar Ota-Xudo, Iso Masih va Muqaddas Ruh bilan bog‘liq e’tiqodni tan oladilar. Ularga ko‘ra, Injil Xudoning so‘zidir, uni, xato qilmaslik sharti bilan tarjima qilish mumkin. Mormon kitobi ham Xudoning so‘zidir. Iso Masihning qayta tirilish joyi Amerika qit'asidir. Yangi Quddus Amerikada quriladi; shaxsan Isoning o‘zi uni boshqaradi, dunyo yangilanadi va xuddi jannatdek ko‘rinish oladi. Iso ming yillik saltanat quradi va unga imon keltirganlar, yordamchi bo‘lgan (mormon) lar najot topadilar.

Ular cho‘qintirishda suvga bo‘ktirish usulini qabul qilganlar. Ulug‘likda oldinga siljishni va hatto, ilohiylikkacha yuksalishni e’tirof qiladilar. E’tiqod asoslari orasida joy olgan ko‘p xotinga uylanish 1895 yilda V.Vudraft tomonidan bekor qilingan. Prichashenie ya'ni "Poklanish" marosimi, sigaret va aroq harom bo‘lgani sababli faqatgina non va suv bilan amalga oshiriladi.

Mormonlar missionerlik faoliyatini olib boradilar va ushbu faoliyat butun dunyoga tarqalganligini ham aytib o‘tish joiz. Mormonlar nazdida har bir a'zo ikki yil missonerlik qilishi kerak. Missionerlik faoliyati bugungi kunda 4000 dan ortiq ayol va erkak mormon tomonidan olib borilmoqda. Ularning aksariyatini yoshlar tashkil qiladi va ular o‘z hayotlarini missionerlik uchun bag‘ishlagan.

Bugungi kunda mormonlar dunyoning 160 mamlakatida faoliyat olib borib, taxminan 30 ming cherkov va 12 million izdoshlariga ega. Rasmiy xristianlik mormonlarni "adashgan oqim" sifatida e'tirof etadi

“Konfessiya” so‘zi (lotincha – “confession”) o‘zbek tiliga aynan tarjima qilinganda “e’tiqod qilish”, degan ma’noni anglatadi. Umuman olganda, diniy konfessiya deganda muayyan diniy ta’limot doirasida shakllangan va o‘ziga xos xususiyatlarga ega e’tiqod va ushbu e’tiqodga ergashuvchilar jamoasi tushuniladi. Bir din doirasida yuzaga kelgan bo‘lsa-da, aqidalar borasida farqlanadigan jamoalar ham diniy konfessiyalar jumlasiga kiradi. Shuni inobatga olgan holda, mutaxassislar hozirgi kunda dunyoda taxminan 1000 dan ortiq diniy konfessiyalar mavjud, deb hisoblaydilar.

Islom dinida bunday holat kuzatilmaydi. Hech qaysi mamlakatda hanafiy mazhabi alohida, boshqa mazhablar alohida konfessiya sifatida ro‘yxatdan o‘tmaydi. Masalan, O‘zbekistonda ham bir necha shia jamoalari bo‘lishiga qaramay, ular o‘zlarini alohida diniy konfessiya hisoblamaydilar.

Globalashuv dunyoni bir butun va yaxlit qila borishi bilan birga, uning natijasi sifatida alohida olingan millat va jamiyatlar darajasida o‘z-o‘zini anglashga bo‘lgan intilishning chuqurlashuviga ham zamin yaratmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida 2017-yil dekabr holatiga ko‘ra 16 konfessiya faoliyat ko‘rsatmoqda.

- Ular quyidagilardir:

- – Islom (O‘zbekiston musulmonlari idorasi);
- – Pravoslavlik (Toshkent va Markaziy Osiyo yeparxiyasi);
- – Katoliklik (Rim-katolik cherkovi);
- – Lyuteranlik (Nemis-lyuteran cherkovi);
- – Arman-apostol cherkovi;
- – Pyatidesyatniklar (To‘liq injil xristianlari);
- – Baptistlar (Yevangel-xristian baptistlar cherkovi);
- – Novoapostol cherkovi;
- – Yettinchi kun adventistlari;
- «Golos bojiy»; Iegovo shohidlari;
- – Koreys protestant cherkovlari;
- – Yahudiylik;
- – Bahoiylik;
- – Krishnani anglash jamiyati;
- – Buddaviylik.
- - «O‘zbekiston bibliya kitob jamiyati» esa diniy tashkilot hisoblanib, boshqa konfessiyalardan alohida faoliyat olib borsa-da, diniy konfessiya maqomiga ega emas.

Mustaqillik yillarida yuzlab cherkov, sinagoga va ibodat uylari, xususan, Toshkent, Samarqand, Navoiydagi pravoslav ibodatxonalari, Toshkent shahridagi katolik kostyoli, Samarqanddagi Arman-apostol cherkovi, Toshkentdagi Budda ibodatxonasi qayta barpo etildi. Hazrati

Imom, Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Hakim Termiziy, Imom Moturidiy, Shohi Zinda, Qosim Shayx, Zangi ota kabi qadimiy yodgorlik majmualari obod qilindi va yangilari qurildi. Qur'oni karim, hadislar to'plamlari, Bibliya tarkibidagi Yangi Ahd va Qadimgi Ahdning ba'zi qismlari, masalan, «Sulaymon hikmatlari», «Rut, Ester va Yunus payg'ambarlar tarixi» o'zbek tiliga tarjima qilinib, chop etildi.

O'zbekiston ko'zi ojizlar uchun maxsus Brayl yozuvida Qur'oni karimni nashr qilgan uchinchi mamlakat hisoblanadi. O'zbekiston musulmonlari idorasi (O'MI) 1995-yil dekabr oyida tashkil etilgan.

Bugungi kunda O'MI tarkibiga respublikada rasmiy ro'yxatdan o'tgan holda faoliyat ko'rsatayotgan ikki mingdan ortiq masjid, to'qqizta madrasa – o'rta maxsus islom bilim yurti, Toshkent islom instituti, Mir Arab oliy madrasasi, Hadis ilmi oliy maktabi, Aqoid, Kalom, Hadis, Fiqh, Tasavvuf ilmi maktablari, «Vaqf» hayriya fondi va «Movarounnahr» nashriyoti kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi «Diniy-marifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoniga ko'ra O'MI O'zbekiston xalqaro islom akademiyasining muassislaridan biri sifatida belgilandi. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf 1989–1992 yillar davomida O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasiga rahbarlik qilgan. Butun umrini jamiyatning diniy-marifiy yuksalishi yo'lida xizmat qilishga bag'ishlagan. Uning bu xizmatlari xalqaro islom olamida e'tirof etilgan. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf qator xalqaro islom tashkilotlari,

jumladan: — Makka shahridagi Islom olami uyushmasining ta' sis majlisi;

— Dunyo tasavvuf uyushmasi;

— Dunyo musulmonlar ulamolari kengashi;

— Islomobod shahridagi Butun dunyo islom uyushmasi;

— Dunyo masjidlari uyushmasi;

— Iordaniyadagi Oli Bayt tashkilotiga qarashli Islomiy fikrlar akademiyasi a'zosi hisoblangan.

Olim hayoti davomida xalqning ma'naviyati va ma'rifatini boyitadigan va diniy savodxonligini oshirishga xizmat qiladigan yuzdan ziyod kitoblar yozdi. Uning «Hadis va hayot» to'plami, Qur'oni karim ma'nolarining sharhi hisoblangan «Tafsiri hilol», «Oltin silsila», «Baxtiyor oila», «Ruhiy tarbiya», «Odoblar xazinasini», «Kifoya» va boshqa kitoblari xalqimizning ma'naviy xazinasidir.

Din jamiyat hayotining tarkibiy qismi sifatida kishilarning ijtimoiylashuviga, ularning turmush tarzini tashkil etish va tartibga solishga xizmat qiluvchi me'yoriy omillardan biri bo'lib kelgan. Dinning bunday roli uning tarixan shakllangan o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

Chunki, din, birinchidan, umuminsoniy axloq me'yorlarini o'ziga singdirib olib, ularni hamma uchun majburiy xulq-atvor qoidalariga aylantirgan; ikkinchidan, odamlarning bahamjihat yashashiga ko'maklashgan; uchinchidan, odamlarda ishonch hissini mustahkamlagan hamda hayot sinovlari, muammo va qiyinchiliklarni

yengib o'tishlarida kuch bag'ishlagan; to'rtinchidan, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlarni saqlab qolish hamda avloddan-avlodga yetkazishga yordam bergan va shu yo'l bilan madaniyat rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Bugungi kunda dinga bo'lgan qiziqishning kuchayib borishi globallashuv jarayonlarining o'ziga xos in'ikosi deyish mumkin. Zero, globallashuv dunyoni bir butun va yaxlit qila borishi bilan bir qatorda, uning hosilasi sifatida alohida olingan millat va jamiyatlar darajasida o'z-o'zini anglashga bo'lgan intilishning chuqurlashuviga ham zamin yaratmoqda.

Bu jarayonlar o'z navbatida inson ma'naviyatining uzviy qismi bo'lgan dinning mohiyatini tushunish, uning inson va jamiyat hayotidagi o'rnini anglashga bo'lgan e'tiborning kuchayishini keltirib chiqarmoqda. Shu bilan birga, dinga bo'lgan qiziqishning kuchayishi bugungi kunda kishilik jamiyati oldida turgan muammolar, insonning ularni hal qilish yo'llari haqidagi o'y-izlanishlari, dunyoviy va diniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlagan holda bugungi kunning og'ir va murakkab savollariga to'laqonli javob topishga intilishi bilan bog'liq ekanini ham alohida qayd etish lozim.

Mutaxassislar ma'lumotlariga ko'ra, XX asrning ikkinchi yarmida xristianlik, buddaviylik, islom va boshqa dinlar doirasida yuzlab sektalar paydo bo'lgan. Bu shunday jarayonlar kelajakda davom etishi mumkinligini taxmin qilish imkonini beradi.

3. Cherkov va sekta faoliyatidagi farqlar. Zamonaviy diniy sektalar va ularning barqaror taraqqiyot maqsadlariga salbiy ta'siri.

Diniy sektalar va ular faoliyatining oqibatlari. Sekta so'zi, eng umumiy ma'noda, muayyan diniy, siyosiy yoki falsafiy qarashlarga ergashuvchilar guruhini anglatadi. Diniy sekta deganda ma'lum bir dindagi rasmiy aqidalarga zid ravishda ajralib chiqqan yoki mavjud dinlar va konfessiyalarga umuman aloqasi bo'lmagan holda din bayrog'i ostida faoliyat ko'rsatadigan guruhlar tushuniladi. Bugungi kunda har ikkala yo'nalishga mansub bo'lgan ko'plab sektalar faoliyat ko'rsatmoqda. Mutaxassislar ularning sonini taxminan 5000 atrofida, deb baholaydilar. Shuningdek, mavjud dinlarning tarqalish hududida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'layotganini ta'kidlash zarur.

Zamonaviy voqelik diniy-ekstremistik xarakterdagi sektalarning inson ongi va qalbi uchun kurash yo'lidagi faoliyatining jonlanishi kuzatilayotganini ko'rsatmoqda. Xususan, ma'lumotlarga ko'ra, bizga qo'shni bo'lgan davlatlarda "Bogorodichiy sentr", "Tserkov' ob'edineniya", "Tserkov' Isusa", "Tserkov' Novogo Zaveta", "Beloe bratstvo", "Bojestvennyy orden Pervogo Angela" kabi o'nlab diniy sektalar noqonuniy ravishda faoliyat olib bormoqda. "Satanizm" deb ataladigan sekta ham keng tarqalgan. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, o'ta xavfli bo'lgan bu sektaning Rossiyada 100 ming, Yer yuzida 5 milliondan ortiq tarafdorlari bor.

Ular aholining diniy bilimlari pastligidan foydalanib, oxiratning yaqinligi bilan qo'rqitish hamda asosan yoshlar va moddiy ahvoli

nochor bo'lganlar ichida ish olib borish yo'li bilan o'z tarafdorlarini ko'paytirishga harakat qilmoqdalar. Bunday sektalarga asos solgan "avliyo"lar o'z izdoshlarini aldash yo'li bilan ularning mol-mulklariga egalik qilishga urinmoqdalar.

Sektalarga xos xususiyatlar haqida gap ketar ekan, ayrim sektalar muayyan konfessiya doirasida shakllanib, asosiy e'tiborni sobiq e'tiqoddoshlari orasida targ'ibot olib borishga, ba'zi sektalar esa boshqa konfessiyaga mansub insonlar orasidan ham o'z tarafdorlarini shakllantirishga harakat qilishini ta'kidlash zarur. Ayni paytda, hech bir konfessiyaga mansub bo'lmagan, muayyan shaxs – «ustoz», «yo'l boshchi» yoki «rahnamo» tomonidan asos solingan va aholining duch kelgan ijtimoiy va konfessional qatlami bilan ish olib boradigan sektalar ham mavjudligini qayd etish lozim.

Afsuski, yuqoridagi kabi ko'rinishlarda chiqadigan sektalar faoliyati natijasida bir qator salbiy, ba'zi hollarda fojiaiy hodisalar kelib chiqmoqda. Jumladan, o'tgan asrning 70-yillarida AQSHning San-Fransisko shahrida Jim Jons ismli shaxs bir necha ming kishilik mahalliy protestantlarni o'z ichiga olgan «Xalq ibodatxonasi» nomli jamoa tuzishga erishadi.

Sekta asoschisining turli «qiliq»lari shahar jamoatchiligiga ma'lum bo'lib qolgach, Jons «chirkinliklarga to'la shahar»dan ketib, Gayana changalzorlarida «Xudo Podshohligi»ni qurish lozimligini e'lon qiladi.

1978-yili «Xudo Podshohligi»dagi holatni o'rgangani borgan AQSH Kongressi komissiyasi sekta izdoshlari «podshohlikda» juda og'ir sharoitlarda yashayotgani, ularga qullardek munosabatda

bo‘linayotgani, Jons barcha «banda»larini o‘ziga ibodat qilishga majbur qilganiga guvoh bo‘ladi. Kirdikorlari fosh bo‘lib qolganini bilgan sekta rahbari bir kunning o‘zida barcha izdoshlarini o‘z jonlariga qasd qilishga majbur qiladi. Oqibatda Jonsga ishongan 912 kishi halok bo‘ladi.

Shunga o‘xshash holat AQSHning Texas shtatidagi Ueyko shahrida Devid Koresh tomonidan adventistlik zamirida shakllantirilgan «Dovud avlodi» nomli sekta tarafdorlari bilan ham sodir etiladi. O‘zini «Xaloskor» deb e‘lon qilgan, jamoada o‘zining mutlaq hokimiyatini o‘rnatib, barchaga o‘z mulkidek munosabatda bo‘lgan sekta rahbari Ueyko shahrida qurilgan maxsus ranchoda izdoshlari bilan rohibona hayot kechiradi. 1993-yilda politsiya tomonidan uni qo‘lga olish bo‘yicha amalga oshirilgan tadbir davomida, qamalishni istamagan «payg‘ambar» o‘zi va barcha sekta a‘zolari joylashgan ranchoni portlatib yuboradi. Oqibatda 100 ga yaqin kishi, shu jumladan, 25 nafar bola halok bo‘ladi.

Bunday sektalar qatoriga 1992-yilda Xitoyda Lyu Xunchji tomonidan tuzilgan va 2 milliondan ortiq tarafdori bo‘lgan «Falungun» sektasini ham kiritish mumkin. Lyu Xunchji faqat o‘zinigina zaminni halokatdan, kishilarni qiyinchiliklardan qutqaruvchi, jismoniy va ma‘naviy yetuklikka boshlovchi, gunohlardan forig‘ qilishga qodir, deb hisoblaydi. Jannat faqat uning tarafdorlarigagina nasib qilarmish. Oxirat bilan qo‘rqitish markaziy o‘rinni egallagan Lyu Xunchji ta‘limotiga ergashish 2000 dan ortiq kishining halok bo‘lishi, yuzlab odamlarning ruhiy kasallikka chalinishiga sabab bo‘lgan.

Buddizm doirasida shakllangan «Aum Sinrikyo»ning 1995-yilda Tokio metrosida tinch aholiga nisbatan gaz hujumi uyushtirishi oqibatida 12 kishi halok bo'lgani, AQSHda paydo bo'lgan «Osmon darvozasi» sektasi a'zolaridan 60 dan ortiq kishi o'z joniga qasd qilgani, Ugandada yuzaga kelgan «Xudoning o'nta buyrug'ini qayta tiklash harakati» sektasi qurbonlari soni 1000 dan ziyodni tashkil etgani ham bunday sektalar faoliyatining mudhish oqibatlaridan dalolat beradi.

Yashirin faoliyat olib borishi, sekta ichida bo'layotgan voqealarning ko'pchilikka ma'lum bo'lib qolmasligining qattiq nazorat qilinishi, ular faoliyatidan jamoatchilikning bexabar qolishini keltirib chiqarmoqda.

Bunga misol sifatida Ugandadagi “Oxirat kuni” sektasi boshliqlarining faoliyatini ko'rishimiz mumkin. Oxiratni 1999 yilning 31 dekabriga “belgilagan” ushbu sekta rahbarlari o'z tarafdorlarini mulklarini sotish, tushgan mablag'ni ularga berishga va shu yo'l bilan gunohlardan forig' bo'lishga chaqirgan. Qiyomatning 2001 yil 1 yanvarga “ko'chirilishi” sekta rahbarlariga nisbatan shubha uyg'onishiga olib kelgan. Shundan so'ng rahbarlar Kanungu qishlog'ida 500 dan ortiq o'z tarafdorlarini aldab bir joyga to'plab, ustlaridan yopib binoga o't qo'yib yuborishgan. Ommaviy axborot vositalari xabarlariga ko'ra, tezkor tadbirlarni o'tkazgan politsiya yana to'rt joyda ommaviy qabrlarni topgan. Umuman bu sektaning qurbonlari 1000 ortiq bo'lgani qayd qilingan.

Umuman olganda, bunday sektalarning barchasi insonning ojizligi, ma'naviy va jismoniy kamolotga erishishga bo'lgan intilishi, kishilar

hayotda duch keladigan qiyinchiliklardan o'zlarining g'arazli maqsadlari yo'lida shaxsiy boylik orttirish niyatida foydalanadilar.

Hozir ayrim rasmiy ro'yxatdan o'tgan yoki norasmiy faoliyat yuritayotgan noislomiy diniy jamoalarning vakillari tomonidan ham missionerlik faoliyati amalga oshirilishi kuzatilmoqda.

Missionerlar aksariyat holatlarda o'z jamoasiga jalb qilishda turli o'qish kurslarini ochib, o'z diniga targ'ib qilish, xorijga o'qishga yoki ishga jo'natish, yoz faslida bolalarni dam olish lagerlariga jalb qilish, hayriya yordam ko'rsatish, bepul tibbiy yordam berish va gazeta, jurnal, kitoblar tarqatish kabi usullardan foydalanmoqda.

Ularning diniy ta'limotida Davlat ramzlarini humat qilish, Konstitutsion burchni bajargan holda harbiy xizmat o'tash, jamoat ishlarida qatnashish man etilgan. Bunday holat xalqimiz uchun noan'anaviy bo'lgan diniy jamoa va sekta vakillarining maqsadi jamiyatimiz a'zolarini fuqarolik faolligini so'ndirish va qaram qilib olishga yo'naltirilganidan yaqqol dalolat beradi.

Shuningdek, ayrim noislomiy diniy jamoalarda ushbu jamoaga a'zo bo'lgan shaxs bilan oila qurishi, jamoadan tashqaridan kelayotgan barcha ma'lumotlarni yolg'on va zararli deb bilish belgilab qo'yilgan, ba'zilarida oila qurish umuman ma'qullanmay, ular daromadlarining deyarli barchasini ushbu jamoa rahbariyatiga topshirishi lozim. Ushbu faktlar mazkur diniy jamoalardagi tartib shaxs, oila va jamiyat uchun naqadar zararli ekanini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, yuqoridagi kabi sektalar, missionerlik tashkilotlari faoliyatiga chek qo'yish bugungi kunning dolzarb

vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bir qator mamlakatlarda sektalar va missionerlar faoliyati natijasida jabr ko‘rganlarga moddiy va ma‘naviy ko‘mak berish maqsadida maxsus markazlarning tuzilgani, afsuski, yuqoridagi kabi holatlarning ko‘payib borayotgani va xatarli ko‘lam kasb etib, jamiyatdagi ijtimoiy-ma‘naviy muhitga o‘ta salbiy ta‘sir ko‘rsatayotganini kuzatamiz.

Cherkov (yunoncha. kyriake — xudoning uyi) — 1) xristianlikdati maxsus diniy tashkilot. O‘z diniy aqidalari va marosimlari tizimiga ega. Cherkov iyerarxik tarzda boshqariladi. Cherkovga mansub kishilar ruhoniylar va oddiy dindorlarga bo‘linadi. Xristianlik cherkovni “Isoning ilohiy tanasi”, unga e‘tiqod qiluvchilar shu tana a‘zolaridir, Iso esa shu tananing boshi deb ta‘lim beradi.

Cherkov dindorlar uyushmasi bo‘lib, sirli marosimlar (xususan, non va vino totish marosimi)da inson bilan xudoning birgalikdagi ishtiroki orqali ularning birlashib ketishi amalga oshiriladi, deb tasavvur qilinadi. Yirik xristian cherkovlari — pravoslav cherkovi (qarang: Pravoslaviye), katolik cherkovi (qarang Katolitsizm), protestant cherkovi (qarang Protestantizm) va boshqa; 2) xristian dinida ibodat qilish uchun maxsus qurilgan bino. U mehrobli qism va unga tutash zal — dindorlar ibodatga tuplanadigan xonadan iborat. Turli xalqlarda cherkov binolarining turli tiplari vujudga kelgan. Shahar yoki monastirning bosh cherkovi sobor deb ataladi. Lyuterchilar cherkovi, odatda, kirka yoki kirxa, polyak katolik cherkovi kostyol deyiladi. O‘zbekistonda 160 ta xristian cherkovi faoliyat ko‘rsatadi (2004-yil).

Diniy sekta-ma‘lum bir dindagi rasmiy aqidalarga zid ravishda ajralib chiqqan yoki mavjud dinlar va konfessiyalarga umuman aloqasi

bo'lmagan holda din bayrog'i ostida faoliyat ko'rsatadigan guruxdar tushuniladi. Bugungi kunda har ikkala yo'nalishga mansub bo'lgan ko'plab sektalar faoliyat ko'rsatmoqda. Mutaxassislar ularning sonini taxminan 5000 atrofida, deb baholaydilar.

Zamonaviy voqelik diniy - ekstremistik xarakterdagi sektalarning inson ongi va qalbi uchun kurash yo'lidagi faoliyatining jonlanishi kuzatilayotganini ko'rsatmoqda. Xususan, ma'lumotlarga ko'ra, birgina Rossiyaning o'zida "Bogorodichiy sentr", "Serkov ob'edineniya", "Serkov Isusa", "Serkov Novogo Zaveta", "Beloye bratstvo", "Bojestvenniy orden Pervogo Angela" kabi o'nlab diniy sektalar noqonuniy ravishda faoliyat olib bormoqda. "Kult satanlar" deb ataladigan sekta ham keng tarqalgan. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra o'ta xavfli bo'lgan bu sektaning Rossiyada 100 ming, Yer yuzida 5 milliondan ortiq tarafdorlari bor.

Ular aholining diniy bilimlari pastligidan foydalanib, oxiratning yaqinligi bilan qo'rqitish hamda asosan yoshlar va moddiy ahvoli nochor bo'lganlar ichida ish olib borish yo'li bilan o'z tarafdorlarini ko'paytirishga harakat qilmoqdalar. Bunday sektalarga asos solgan "avliyo"lar o'z izdoshlarini aldash yo'li bilan ularning mol-mulklariga egalik qilishga urinmoqdalar.

Yashirin faoliyat olib borishi, sekta ichida bo'layotgan voqealarning ko'pchilikka ma'lum bo'lib qolmasligining qattiq nazorat qilinishi ular faoliyatidan jamoatchilikning bexabar qolishini keltirib chiqarmoqda

Mavzu bo'yicha savollar

1. Yangi diniy harakatlar qanday sabablardan paydo bo'ladi?
2. Bahoiylikning asosiy g'oyasi nima?
3. Ahmadiya (Qodiyoniylik) Islomdan qaysi jihatlarda farq qiladi?
4. Cherkov va sekta o'rtasidagi asosiy farq nima?
5. Zamonaviy sektalar jamiyatga qanday zarar yetkazadi?
6. "Yahve shohidlari" va "Mormonlar" xristianlikdan nimasi bilan ajralib turadi?
7. O'zbekistonda hozir qancha diniy konfessiya rasman faoliyat yuritadi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muratov D., Alimova M., Karimov J. Dinshunoslik, darslik. – Toshkent, «Navro'z» nashriyoti, 2019. – 264 b.
2. Raximdjanov D., Ernazarov O. Dinshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma. – T.: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. – 304 b.
3. Isoqjonov R. Qiyosiy dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: OOO «Complex print», 2020. – 198 b.
4. Kamilov D. Dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: Lesson Press, 2021. – 128 b.
5. Shermuxamedova N.A. Diniy fanatizm fenomeni/Inson falsafasi. – Darslik. Toshkent: Innovasiya-Ziyo, 2021. – B. 314-499.

Yangi diniy ta'limotlar va sektalar mavzusi yuzasidan test topshiriqlari

1. Yangi diniy harakatlar ko'pincha qaysi davrda kuchayib ketdi?

- A) XVIII asrda
- B) XX asrning 70-yillarida
- C) XV asrda
- D) 2000-yillarda

2. Bahoiylik harakati qayerda paydo bo'lgan?

- A) Hindistonda
- B) Eronda
- C) AQShda
- D) Yaponiyada

3. Bahoiylikning asosiy g'oyasi nima?

- A) Faqat bitta dinni tan olish
- B) Barcha dinlarni birlashtirish
- C) Faqat Islomni qabul qilish

D) Hech qanday dinni tan olmaslik

4. Ahmadiya (Qodiyoniylik) harakati qayerda paydo bo'lgan?

- A) Eronda
- B) Hindistonda
- C) Turkiyada
- D) O'zbekistonda

5. Xalqaro Krishnani anglash jamiyati (ISKCON) qaysi dinga asoslangan?

- A) Buddizm
- B) Hinduiylik (Krishna e'tiqodi)
- C) Xristianlik
- D) Islom

6. O'zbekistonda rasman ro'yxatdan o'tgan konfessiyalar soni taxminan qancha?

- A) 5-6 ta

B) 16 ta

C) 30 ta

D) 50 ta

7. O‘zbekistonda

“Ma’rifatchilar” jamoasini kim asos solgan?

A) Baxshillo Aliev

B) Bahodir Mamajonov

C) Xabib Karimov

D) Mirzo G‘ulom

8. Cherkov va sekta o‘rtasidagi asosiy farq nima?

A) Cherkov katta va rasmiy, sekta kichik va ajralib chiqqan

B) Cherkovda pul to‘planmaydi

C) Sekta hech qachon

missionerlik qilmaydi D) Farqi yo‘q

9. Zamonaviy sektalar ko‘pincha kimga ta’sir qiladi?

A) Faqat qariyalarga

B) Yoshlarga va moddiy ahvoli zaiflar

C) Faqat olimlarga

D) Hukumat xodimlariga

10. Yangi diniy harakatlarning paydo bo‘lishiga asosiy sabab nima?

A) An’anaviy dinlardagi inqiroz va ijtimoiy o‘zgarishlar

B) Faqat pul topish istagi

C) Ilm-fan rivoji

D) Sport musobaqalari

2-MAVZU. KIBER MAKONDA DIN. MISSIONERLIK VA PROZELITIZMNING IJTIMOIIY- SIYOSIY XAVFI

Darsning maqsadi: Bugungi kunda kiber makonda yuz berayotgan missionerlik va prozelitizmning asl maqsadlarini tushuntirish, missionerlik tashkilotlarining vazifalarini ko'rsatish, ularning salbiy oqibatlarini bayon qilish.

REJA:

1.Kiber makon, kiber zo'ravonlik (cyberbullying), kiber xavfsizlik tushunchalarining mohiyati.

2.Missionerlik va prozelitizm tushunchasining mohiyati va rivojlanish bosqichlari.

3.Kiber makonda missionerlik va prozelitizmning ma'naviy barqarorlikga tahdidi hamda ularni bartaraf etishning mexanizmlari.

Tayanch tushunchalar: *Missionerlik, prozelitizm, sekta, diniy sektalar, diniy tashkilotlar, iyegovo shohidlari, yettinchi kun adventistlari, missiya, Bibliya jamiyati.*

1. Kiber makon, kiber terrorizm, kiber zo'ravonlik (cyberbullying) tushunchalarining mohiyati.

Bugungi kunda dunyoning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalarda integrallashuv hamda globallashuv jarayoni jadal kechayotgan bir davrda diniy mazmundagi virtual tahdidlarning ham ortib borayotganligi barcha mintaqa va davlatlarni tashvishga solayotgan

dolzarb muammolardan biridir. Ayniqsa, virtual olamda hali dunyoqarashi to'liq shakllanmagan yoshlar shuningdek, o'z qat'iy fikri va pozitsiyasiga ega bo'lmagan odamlarni o'z domiga tortib ketadigan, dinni niqob qilib olgan turli ekstremistik oqimlarning da'vatlari jahondagi ko'plab mamlakatlarda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni izdan chiqarmoqda. Internet odamlar ongi va hissiyotlariga, tafakkur tarziga, xulq-atvorlariga ta'sir ko'rsatishda katta imkoniyatlarga ega.

Internetning bugungi kundagi rivoji g'oyaviy ta'sir o'tkazishning miqyosi va ko'lamining keskin darajada o'sishiga olib keldi. Internet orqali amalga oshiriladigan va katta mablag' talab qilmaydigan g'oyaviy ta'sir va tazyiqning o'ziga xosligi shundaki, u o'quvchi, tinglovchi yoki tomoshabinga sezdirilmasdan amalga oshiriladi va bevosita qurbonlarni keltirib chiqarmaydi.

Axborot urushi dushmanni yo'q qilmagan, katta xarajatni talab qilmagan holda, yuqori samara beradi. Inson ongi va e'tiqodini o'zgartirish kabi axborotlar to'lqini ro'y beradigan makon bu kibermakondir.

Kibermakon kompyuter tarmoqlari orqali amalga oshiriladigan muloqot maydonini ifodalovchi voqelik sifatida 1990 yildan boshlab keng miqyosida rivojlanib, takomillashib kelmoqda. Kibermakon tushunchasini dastlab kanadalik yozuvchi Uilyam Gibson 1982 yil «Sojjenie Xrom» («Burning Chrome») nomli hikoyasida yozadi.

Keyinchalik, Gibsonning 1990 yilda yozib tugatgan «Neuromancer» (o'zbek tilida tarjimasi «Asabli manzaralar tasvirlovchisi», rus tilida «Nervo-sochinitel») nomli texno-utopik

fantastik trilogiyasida qo‘llagan. Bu asardagi kibermakon tushunchasi millionlab odamlarning jamoaviy sarob, xayolparastlikning o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida tasvirlangan. Bu erda jamoaviy sarob yoki xayolparastlik inson ongida sub’ektiv psixologik holat sifatida namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy nuqtai-nazardan kibermakon deganda kompyuter tarmog‘i orqali bir-biri bilan bog‘langan va bir vaqtning o‘zida turli geografik nuqtada kesishuvchi har qanday mavjud kompyuterning grafik sifatidagi ma’lumotlariga o‘ralashib qolgan kishilar jamoasi tushuniladi.

Kiberterrorchilik – bu tahdid yoki qo‘rqitish orqali, internetdan foydalangan holda, siyosiy yoki mafkuraviy muvaffaqiyatga erishish maqsadida uyushtiriluvchi kiberhujumlardir. Kompyuter viruslari, kompyuter qurtlari, fishing, zararli dasturlar, apparat usullari, dasturlash skriptlari kabi vositalar yordamida kompyuter tarmoqlarini, xususan, Internetga ulangan shaxsiy kompyuterlarni qasddan, keng miqyosda buzish harakatlari internet terrorizmining ko‘rinishi bo‘lishi mumkin.

Kiberterrorizm munozarali atamadir. Ba’zi mualliflar ma’lum terroristik tashkilotlar tomonidan signalizatsiya, vahima yoki jismoniy buzilishlarni yaratish maqsadida axborot tizimlariga qarshi hujumlarni buzish bilan bog‘liq juda tor ta’rifni tanlaydilar. Boshqa mualliflar esa kiberjinoyatni o‘z ichiga olgan kengroq ta’rifni afzal ko‘rishadi.

Kiberhujumda ishtirok etish, hatto zo‘ravonlik bilan amalga oshirilmagan bo‘lsa ham, terror tahdidi idrokiga ta’sir qiladi. Ba’zi ta’riflarga ko‘ra, onlayn faoliyatning qaysi holatlari kiberterrorizm yoki kiberjinoyat ekanligini farqlash qiyin bo‘lishi mumkin.

Kiberterrorizmni shaxsiy maqsadlar yoʻlida vayron qilish va zarar yetkazish uchun kompyuterlar, tarmoqlar va ommaviy internetdan qasddan foydalanish sifatida ham eʼtirof etish mumkin. Tajribali kiberterrorchilar, buzgʻunchilik boʻyicha juda malakali boʻlganlar hukumat tizimlariga katta zarar yetkazishi va keyingi hujumlardan qoʻrqib, mamlakatni tark etishi mumkin. Bunday terrorchilarning maqsadlari siyosiy yoki mafkuraviy boʻlishi, bu esa terrorning bir koʻrinishi deb hisoblanishi mumkin.

Hukumat va ommaviy axborot vositalarida kiberterrorizm yetkazilishi mumkin boʻlgan ziyon haqida xavotirlar talaygina. Bu esa Federal Qidiruv Byurosi (FQB) va Markaziy Razvedka Boshqarmasi (CIA) kabi davlat idoralarini kiberhujumlar va kiberterrorizmga chek qoʻyishga unday boshladi.

Kiberterrorizmning bir necha asosiy va kichik holatlari boʻlgan. Al-Qoida internetdan tarafdorlari bilan muloqot qilish va hatto yangi aʼzolarni yollash uchun foydalangan. Estoniya, Boltiqboʻyi mamlakati, texnologiya jihatidan rivojlanib borishmoqda, 2007-yil aprel oyida Estoniya poytaxti Tallinda joylashgan Ikkinchi Jahon urushi davridagi sovet haykali koʻchirilishi bilan bogʻliq tortishuvlardan soʻng kiberterror uchun kurash maydoniga aylanib qoladi.

Kiberterrorizm koʻlamining asosiy taʼrifi boʻyicha munozaralar mavjud. Ushbu taʼriflar tor boʻlishi mumkin, masalan, Internetdagi boshqa tizimlarga hujum qilish uchun Internetdan foydalanish, bu odamlar yoki mulkka nisbatan zoʻravonlikka olib keladi. Ular, shuningdek, axborot texnologiyalari infratuzilmalariga odatiy hujumlar

uchun terrorchilar tomonidan Internetdan foydalanishning har qanday shaklini o‘z ichiga olgan keng bo‘lishi mumkin. Ishda motivatsiya, maqsadlar, usullar va kompyuterdan foydalanishning markaziyliги bo‘yicha malakaning o‘zgarishi mavjud.

AQSh davlat idoralari ham turli xil ta‘riflardan foydalanadilar va ularning hech biri hozirgacha o‘z ta‘sir doirasidan tashqarida majburiy bo‘lgan standartni joriy etishga urinmagan. Kontekstga qarab, kiberterrorizm kiberjinoyat, kiberurush yoki oddiy terrorizm bilan sezilarli darajada mos kelishi mumkin. Kasperskiy laboratoriyasi asoschisi Yevgeniy Kasperskiy hozirda “kiberterrorizm”, “kiberurush” dan ko‘ra aniqroq atama ekanligini his qilmoqda.

Uning ta‘kidlashicha, bugungi hujumlar bilan siz buni kim qilgani yoki ular yana qachon zarba berishini bilmaysiz. Bu kiber-urush emas, balki kiberterrorizmdir”. U, shuningdek, o‘z kompaniyasi kashf etgan Flame Virus va NetTraveler Virus kabi keng ko‘lamli kiber qurollarni biologik qurollarga tenglashtirib, bir-biriga bog‘langan dunyoda ular bir xil darajada halokatli bo‘lish potentsialiga ega ekanligini ta‘kidlaydi.

Agar kiberterrorizmga an‘anaviy terrorizmga o‘xshash munosabatda bo‘lsa, u faqat mulk yoki hayotga tahdid soladigan hujumlarni o‘z ichiga oladi va jismoniy, haqiqiy zarar yoki jiddiy buzilishlarni keltirib chiqarish uchun maqsadli kompyuterlar va ma‘lumotlardan, xususan, Internet orqali foydalanish infratuzilmasi sifatida ta‘riflanishi mumkin.

Terrorizmni o‘rganish bo‘yicha ixtisoslashgan ko‘plab akademiklar va tadqiqotchilar kiberterrorizm mavjud emasligini va

haqiqatan ham xakerlik yoki axborot urushi masalasi ekanligini ta'kidlamoqda. Hozirgi hujum va himoya texnologiyalarini hisobga olgan holda, elektron vositalardan foydalangan holda aholida qo'rquv, jiddiy jismoniy zarar yoki o'lim paydo bo'lishi ehtimoli yo'qligi sababli uni terrorizm deb belgilashga rozi emaslar.

Umuman kiberjinoyatda bo'lgani kabi, kiberterrorizm aktlarini amalga oshirish uchun talab qilinadigan bilim va ko'nikmalar chegarasi erkin foydalanish mumkin bo'lgan xakerlik to'plamlari va onlayn kurslar tufayli doimiy ravishda pasayib bormoqda. Bundan tashqari, jismoniy va virtual olamlar jadal sur'atlar bilan birlashib, yana ko'plab imkoniyatlar maqsadlariga erishmoqda, buni Stuxnet, 2018-yildagi Saudiya neft-kimyosi sabotaj urinishi va boshqalar kabi e'tiborga molik kiberhujumlar tasdiqlaydi.

Hozirgi davrda fan, texnika va asosan kompyuter taraqqiyoti mahsuli bo'lgan kibermakon va uning boshqaruvchi qiyofasi "superkorporatsiya" texnologiyalarning insoniylikdan begonalashuvi natijasida din niqobidagi ijtimoiy va madaniy buzg'unchilikni sodir etishga bo'lgan urinishlar tobora kuchayib bormoqda.

Jumladan, bugungi kunda kiberterrorchilik tuzilmalari o'z g'arazli maqsadlari yo'lida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishga urinmoqda.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch" asarida quyidagicha ta'kidlaangan: "Taassufki, ba'zan islom dini va diniy aqidaparastlik tushunchalarini bir-biridan farqlay olmaslik yoki g'arazli

maqsadda ularni teng qo'yish kabi holatlar ham ko'zga tashlanmoqda. Shu bilan birga, islom dinini niqob qilib, manfur ishlarni amalga oshirayotgan mutaassib kuchlar hali ongi shakllanib ulgurmagan, tajribasiz, g'o'r yoshlarni o'z tuzog'iga ilintirib, bosh-ko'zini aylantirib, ulardan o'zining nopok maqsadlari yo'lida foydalanmoqda. Bunday nojo'ya harakatlar avvalo muqaddas dinimizning sha'niga dog' bo'lishini, oxir-oqibatda esa ma'naviy hayotimizga salbiy ta'sir ko'rsatishini barchamiz chuqur anglab olishimiz va shundan xulosa chiqarishimiz zarur".

Bu xususida Xalqaro press-klubda Mintaqaviy aksilterror tuzilma (MAAT) Ijroiya qo'mitasi direktori Evgeniy Sisoevning so'zlariga ko'ra, MAAT O'zbekiston bilan o'zaro ishonch va yordamga asoslangan aloqalarni o'rnatgan. Xalqaro Press-klubda bo'lib o'tgan ko'p tomonlama hamkorlik masalalariga bag'ishlangan navbatdagi yig'ilish zamonaviy tahdidlar sharoitida asosiy masalalardan biri axborot xavfsizligi, kiberxavfsizlik masalasi ekanini ta'kidladi.

«Kibermaydonlar xalqaro terrorchi tashkilotlar a'zolarining o'z maqsadlariga erishish uchun qulay imkoniyatlar yaratmoqda. Bu yo'nalishda ko'p ishlarni amalga oshiryapmiz, bu borada hamkorlik chora-tadbirlari ishlab chiqilgan. Biz terrorchilikka qarshilik qilish maqsadida aksilterror o'quv mashqlarini o'tkazyapmiz. Xitoy tomon bu masalalarga katta e'tibor qaratmoqda va ko'plab qiziq takliflar kiritmoqda.

Shanxayda ajoyib seminar bo‘lib o‘tdi. Unda kiberterrorizm masalasiga bag‘ishlangan uchrashuvlar o‘tkazildi. Bu mazmunda janob Mirziyoevning takliflari juda o‘rinli», — qo‘shimcha qiladi E.Sisoev.

“Kibermakon”da din niqobidagi “kiberhujum”lar tahdidi: din niqobi ostidagi ekstremistik saytlarda asosan davlat to‘ntarilishi va xunrezlik urushlari haqida gap boradi.

Bugungi kunda dunyoda eng katta xavf solib turgan ISHID guruhining internet kibermakonidagi axborot hujumi va tahdidi to‘g‘risida Aydarbek Tulepov o‘zining “ISHID fitnasi” kitobida quyidagi ma’lumotlarni beradi. ISHID o‘zining internet orqali go‘yo Islom yo‘lida “qurbon” bo‘layotgani aks etgan videolavhalari va fotosuratlari “al-Hayot” media studiyasida tayyorlanadi va internetga joylashtiriladi.

Iroq va Shom Islom Davlati (ISHID) (ba‘zan Iroq va Suriya Islom Davlati deb tarjima qilinadi) — sunniy, ekstremist, jihodchi, o‘zini xalifalik deb e‘lon qilgan jangari guruh, sobiq tan olinmagan davlat. Guruh o‘zini Islomiy Davlat (ID) deb nomlaydi va arabcha Da‘ish qisqartmasi bilan ham ma’lum.

ISHIDning tomirlari 2003-2011-yilgi Iroq urushiga borib taqaladi.[2] Guruhning to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘tmishdoshi bo‘lmish Iroqdagi Al-Qoida (IAQ) Iroq hukumatiga va boshqa chet ellik kuchlarga qarshi bo‘lgan isyonda muhim rol o‘ynadi. Abu Musab al-Zarqavi boshchiligida IAQ mojaro davomida sodir etilgan eng mudhish hujumlarni amalga oshirdi. 2006-yil Zarqavining o‘limidan keyin guruh bir necha kichik ekstremist guruhlar bilan birlashdi va o‘zini Iroq Islom

Davlati (IID) deb qayta nomladi. Bu o'zgarish guruhning keng hududlarni bosib olish va jahon islom jamiyatiga yetakchilik qilish niyatida ekanligini ko'rsatdi.

2007-yilga kelib bo'lsa g'arbiy Iroqdagi bir necha sunniy aymoqlar guruhga qarshi chiqqanidan keyin uning faoliyati sezilarli darajada cheklandi. Bu o'zgarishlarga IID jangchilarining egallangan yerlardagi mahalliy aholiga qilgan shafqatsiz muomalasi va sunniy aymoq boshchilarining isyonlarda qatnashmaslik uchun mablag' bilan ta'minlanishi sabab bo'ldi. Bundan tashqari, IAQ/IIDning bir necha boshchisi AQSh va Iroq kuchlari tomonidan o'ldirilishi ham guruhni kuchsizlantirdi. 2010-yil guruh boshiga janubiy Suriyada joylashgan va AQSh boshqarib turgan qamoqxonada besh yil o'tirib chiqqan jangchi Abu Bakr Al-Bag'dodiy keldi.

Iroq siyosatida diniy guruhlariga bo'lgan munosabat, xususan Nuri al-Maliki hukumati tomonidan Al-Qoida va Ba's tuzumining qoldiqlari bilan kurashish niqobi ostida sunniylarning repressiya qilinishi g'arbiy Iroqda ekstremizm uchun sharoit yaratdi. 2011-yilga kelib sunniylar noroziligining kuchayishi va chet ellik harbiylarning mamlakatni tark etishi IAQ/IID yana tiklanishiga imkon yaratdi. Sunniy ekstremistlar tomonidan uyushtirilgan portlatishlar soni yana bir bor ko'paydi.

2011-yil Suriya Prezidenti Bashshor Asadga qarshi g'alayon sifatida boshlangan Suriya fuqarolar urushi IAQ/IID uchun yangi imkoniyatlarni yaratdi. Guruhning jangchilari osonlikcha Iroqdan sharqiy Suriyaga o'tishdi. 2012-yilning oxiriga kelib harbiy muxolifatning o'zagi bo'lib kelgan va asosan dunyoviy guruhlardan

tuzilgan to‘da o‘zaro kelishmovchiliklar va charchoq sabab kuchsizlana boshladi. Islomiy kuchlar bo‘lsa aksincha kuchaya boshladi. Bular orasida mahalliy islomiy jangchi guruhlar birlashmasi bo‘lmish Islomiy Front, Al-Qoidaning markaziy bo‘limi bilan aloqador va Ayman al-Zavahiri boshchiligidagi Nusrah Fronti hamda Abu Bakr Al-Bag‘dodiyning qo‘llab-quvvatlovchi jangchilar bor edi. 2013-yil aprel oyida Bag‘dodiy o‘zining Suriya va Iroqdagi kuchlarini Nusrah Fronti bilan Iroq va Shom Islom Davlati (ISHID) nomi ostida birlashtirish niyatida ekanligini e‘lon qildi. Nusrah Fronti bunga qarshi chiqdi. Natijada ikki guruh orasidagi asosan jangchi yollash bo‘yicha bo‘lgan bellashuv avj oldi va pirovardida ikki tomon ochiqchasiga jang qila boshladi.

ISHID davlat boshqaruvidan ancha avval chiqib ketgan sharqiy hududlarni tezlik bilan egallab oldi. Guruh markazida Raqqa shahri joylashgan o‘zi bosib olgan hududda qat’iy va talabchan shariat o‘rnatdi. Guruh janglarda erishgan yutuqlari, o‘z dushmanlariga va guruhga ko‘ra islomiy qonun-qoidalarini buzganlarga qilgan vahshiy muomalasini ko‘rsatib o‘zini targ‘ibot qildi. Bu targ‘ibot Iroq va Suriya tashqarisidan ko‘plagan radikal kishilarni jalb qilgani aytiladi, ammo ularning aniq soni noma’lum qoldi. ISHID yana sharqiy Suriyadagi neft zavodlari kabi muhim infrastrukturaning egallab oldi. Bu zavodlar yordamida guruh qora bozorda neft sotib foyda ko‘rdi.

ISHID o‘zi uchun markaz qilib olgan Raqqa shahridan boshqa hududlarga qarab kengaydi va Suriya va Iroqda bir necha muvaffaqiyatli hujumlarni uyushtirdi. 2014-yil yanvar oyida guruh asosan sunniylar yashaydigan Falluja va Ramadi shaharlarini bosib oldi. Bundan keyin

ISHID jangchilari hukumat harbiylarini hayratda qoldirib shimolga qarab yurish qildi. Iyun oyida Iroqning ikkinchi eng yirik shahri bo‘lmish Mosul shahrini qarshiliksiz egalladi. ISHID olg‘a siljir ekan, ijtimoiy axborot vositalari yordamida o‘z jangchilarining qo‘lga olingan Iroq askarlarini qatl qilganini ko‘rsatuvchi surat va videolarni tarqatdi.[6]

2014-yil iyun oxirida guruh o‘zi bosib olgan hududda xalifalik e‘lon qilingani va Bag‘dodiy uning xalifi ekanligi haqida audioyozuvni tarqatdi.[7] O‘sha e‘londan keyin guruh o‘zini shunchaki Islomiy Davlat deb atay boshladi. Guruhning butun dunyodagi musulmonlarga yetakchilik qilish haqidagi iddaolarini boshqa musulmon guruhlar tan olmadi.

ISHIDning Iroqda juda tez kengayishi xalqaro jamiyatni tashvishga soldi va Bag‘dodda Malikining ag‘darilishi bilan yakunlangan siyosiy krizisga olib keldi. Xalqaro aralashuvga chaqiruvlar kuchaydi va 8-avgustda AQSh ISHIDning Iroqdagi avtonom kurd hududiga bostirib kirishining oldini olish uchun havo hujumlarini boshladi. Hujumlar ISHIDning yanada kengayishining oldini oldi, ammo ular guruhni allaqachon egallab olingan yerlardan chiqara olmadi.

Terrorchilarning targ‘ibot-tashviqotlari kun sayin avj olib bormoqda. Jumladan, “Odnoklassniki”, “Facebook”, “Instagram”, “Twitter”, “V Kontakte” ijtimoiy tarmoqlarida buzg‘unchilik va yot g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi yuzlab guruhlar mavjudligi fikrimizning yaqqol dalilidir.

SHuningdek, Islom dinini noto‘g‘ri, qabih maqsadlarda talqin etish, dinga siyosiy tus berib, hokimiyatni qo‘lga kiritishdir. Kitobda din niqobi ostidagi “rahnamolar” haqida ham yoziladi. Bular, Muhammad ibn Abdulvahhob, Hasan al-Banno, Sayyid Qutb, Muhammad Ilyos Kandehlaviy, Taqiyuddin Nabahoniy, Abdul Qadim Zallumlarning yoshlar ongiga kuchli ta’sir o‘tkazadigan:

“Xudo-idealimiz, payg‘ambar-dohiyimiz, Qur’on-konstitutsiyamiz, jihad-vositamiz, din va Xudo yo‘lida qurbon bo‘lish-ezgu orzuimiz”,- kabi jarangdor shiorlari aslida soxta bo‘lib, g‘arazli maqsadga erishish yo‘lidagi niqobdan boshqa narsa emas. Bu xususda 2017 yil 28 iyun kun.uz saytida bergan ma’lumotga ko‘ra: Ukraina hukumatining barcha kompyuterlari xakerlik hujumiga uchradi. Bu haqda mamlakat bosh vaziri o‘rinbosari Pavel Rozenko Facebook’dagi sahifasida xabar berdi. Tabiiyki, tarmoqning barcha foydalanuvchilari kabi ekstremistlar ham turli xil saytlar va forumlarga kirib ko‘radi. Mudom shakllantirilib boriladigan dasturli ta’minotdan foydalanadi, tarmoqli ta’minot shu jumladan internet orqali maxfiy muloqot tarqatmoqda. “Al-Qoida”ning birinchi rasmiy sayti 2001 yil 11 sentyabr voqealarigacha ham mavjud bo‘lgan. “Al-Qoida” sayti o‘sha vaqtlardagi veb-resurslardan farq qilmagan, uning katta qismini statik (turg‘un, muvozanat holatidagi) tasvirlar va turlicha matn, e’lonlar (asosan arab tilida), shuningdek, bir nechta qisqa videoroliklar tashkil qilgan.

“Al-Qoida”ning rasmiy tashkiloti paydo bo‘lishi, saytda boshqa din niqobidagi “dindor”larning o‘zini oshkor qilishi tezlik bilan kengayib bordi. Yomg‘irdan keyingi qo‘ziqorinlar kabi, ularni qo‘llab-quvvatlovchi ko‘plab sahifalar, turli xil ko‘rinishdagi forum va ijtimoiy

tarmoqlar “bolalab” ketdi. Ammo uning din niqobi ostidagi ekstremistlarning diniy mafkurasi bilan tanish bo‘lgan har qanday odam, kichik detallar vositasida go‘yoki “hamfikir birodarlar”i orasida ekanligi — bugungi kunning xavfidir. Bu o‘z vaqtida “Al-Qoida” tomonidan emas, balki uning tarafdorlari tomonidan yaratilgan edi va o‘z navbatida, to‘laqonli ijtimoiy tarmoqlarni yaratishda “asqotadigan” zamonaviy texnologiyalar dunyosida bilim darajasini namoyish etib, bu guruhning haqiqiy a‘zolari diqqatini o‘ziga jalb qilgan.

«Al-Qoida»ga 1980-yillar oxirida saudiya arabistonilik millioner Usama Bin Lodin tomonidan asos solinadi. «Al-Qoida» «tayanch», «poydevor» degan ma'nolarni anglatadi. U sovetlar ittifoqiga qarshi qurollangan kuchlar moddiy va harbiy jihatdan yordam ko‘rsatadi.

Bin Lodin butun dunyo bo‘ylab jihodchilarni «Al-Qoida» safida to‘playdi.

nuqtai-nazardan qaraganda, bugungi kunda yoshlar ongi va ruhiyatida diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish asosiy masalalardan biri hisoblanadi.

Qisqa yo‘l, ko‘pincha ekstremistik xarakterda bo‘luvchi – eng yaxshi yo‘l emasligini bilish uchun bilim va hayotiy tajriba lozim.

Ekstremistik mafkura ta’siriga tushib qolgan yosh yigit-qizlardagi asosiy belgilar:

- Uning xatti-harakatlari keskin yoki qo‘pol bo‘lib qoladi, noodatiy yoki jargon leksika shakllanadi;

— Ma'lum bir submadaniyat qoidalariga mos ravishda birdan kiyinish uslubi va tashqi ko'rinish o'zgaradi;

—Kompyuterida siyosiy-ekstremistik yoki ijtimoiy-ekstremal mazmundagi fayllar, rolik yoki tasvirlar ko'payib boradi;

—Xonadonda tushunarsiz yoki noodatiy timsol va atributlar, qurol sifatida foydalanish mumkin bo'lgan sovuq predmetlar paydo bo'la boshlaydi;

— U kompyuterda ko'p vaqt o'tkazib, maktab, oliy ta'lim, badiiy adabiyotga, film, kompyuter o'yinlariga aloqador bo'lmagan ta'lim bilan shug'ullanadi;

— Siyosiy va ijtimoiy mavzularda ko'p gapira boshlaydi, bunda sabrsizlik hamda keskin mulohazalar kuzatiladi;

— Internetdagi taxallus, parol va hokazo ekstremal-siyosiy xarakter kasb etadi.

“Kiber hujum mexanizmi”ga qarshi “Kiberhimoya mexanizmi”:quyidagilardan iborat: hammamizga ma'lum bola tarbiyasi ota-ona, mahalla, maktab gardaniga tushadi. Bunda yoshlarni keskinlik yoki tazyiq o'tkazib to'g'ri yo'lga solib bo'lmaydi. Hech bir zo'ravonliksiz va asosli fikr-mulohazalar bilan tushuntirish ishlari olib borilishi zarur.

“Kontrpropaganda” ishlari bosh tezisi – inson olamni o'zgartirish uchun mukammal bilim va chuqur mulohaza yuritsa, jamiyatda mutaxassis va avtoritetga aylansa, uning ergashuvchilari tabiiyki ko'proq bo'ladi. Shunda yaxshi maqsadlarga erishishi

muqarrarligi ta'minlangan bo'ladi, deb bosim o'tkazmay, qalban yondashib bolaning ongiga "etkazish" lozim. Bolaning xatti-harakatlarini mutlaqo qoralash kerak emas. Bu uning qarshi reaksiya — himoya pozitsiyasini qo'llashiga olib keladi.

Hech qachon ekstremizm – ijtimoiy xastalik ekanligini unutmaslik lozim. Shuning uchun unga jarrohning emas, psixolog qurollari bilan yondashish kerak. Bunday "romantika"ga asosan yoshlar ishonib, bu ular energiyasini destruktiv yo'nalishga burib yuboradi. Shunday targ'ibot va tashviqot asosida shakllanish bosqichidagi yoshlar va ta'sirchan ijtimoiy qatlam vakillarida tabiiy ravishda olamni adolatliroq qilish (masalan elitalar shakllanishi, nochorlik, mehnat haqqi va karera o'sishidagi adolatsizlik, jinoyatchilikning yuqori darajadali, oddiy fuqaro huquqini himoyalashda adolatsizlik, ishsizlik, qonuniy idoralar tomonidan siyosiy tizimga ta'sir sustligi kabi masalalar yuzasidan) xohishi yuzaga kelib, umuminsoniy qadriyatlarni rad qila boshlaydi, o'zini ijtimoiy fikrga qarshi tuta boshlaydi, ta'lim olishda mutaxassis sifatida shakllanish o'rniga, kelajagi yo'q yo'nalishga tushib qoladilar.

Axborot ekstremizmining spetsifik jihatlari:

— Radikallik, biror maqsadga erishish va qiziqishlarini amalga oshirishda;

— Antijtimoiylik, tarixiy shakllangan, ijtimoiy huquqiy o'zaro hamkorlik pozitiv shakllari va modellarini buzadi, qiziqishlar mavjud muvozanotini buzadi, o'zaro hamkorlikda mojarogenli makon yaratadi;

— Institutsionallik, u chegaraviy sharoitda va marginal makonlarda pishib etiladi va institutlashtiriladi;

—Siyosiy-huquqiy tafakkur buzilishi, chunki ekstremistik faoliyat sub’ekti ko‘pincha deformatsiyalashgan ongli bo‘ladi, uning ijtimoiy-madaniy muhit, norma va qadriyatlardan qochishida kuzatiladi;

—Natijalarning noqonuniyligi, axborot ekstremizmning amal qilishi qonuniy bo‘lsa-da (ba’zi holatlarda), ammo beriladigan imkoniyatlardan qarshi maqsadlarda foydalanadi.

Unga qarshi kurash ommaviy kommunikatsiyaning zamonaviy ilg‘or texnologiyalari vositasida, ilg‘or ilmiy-texnik ishlanmalar vositasida amalga oshirilishi lozim. Xususan, global tarmoq monitoringi yordamida bu ishlarni samarali yo‘lga qo‘yish mumkin.

Internetda ekstremizm bu avvalo targ‘ibot-tashviqotdir. Ekstremistlar e’tiqod qiladigan bir qator maqsad va qarashlar, qadriyatlar targ‘ib qilinadi, ularning “ilg‘or”, “muqarrar”ligi isboti keltiriladi, qarshilar va dushmanlar aniqlanadi. Agarda tashkilot ma’lum bir submadaniyatga e’tiqod qilsa, o‘zlarining targ‘ibot va tashviqotida “kiberhujum mexanizmi”ni ishga soladi. Bularga quyidagilarni misol keltirish mumkin:

— kiyinish uslubi, xatti-harakat, tashqi ko‘rinish va hokazolar kabi masalalar bo‘yicha maslahatlar beriladi;

— kundalik hayotga oid nima qilish mumkin-u, nima mumkin emas;

— “to‘g‘ri” narsani to‘g‘ri bajarishni, u yoki bu ko‘rinishda “qo‘shilish” yoki “kurash”ga chaqiriladi.

Biz bu kabi din niqobi ostidagi yoshlarda internet orqali salbiy xarakter shakllantirishga harakat qilayotganlarning “kiberhujum mexanizmi”ga qarshi yosh avlodni asrashimiz uchun “kiberhimoya mexanizmi”ni quyidagicha qo‘llash mumkin:

— birinchidan, internetda berilayotgan ma’lumotlarni “filtrlash” yoki yoshlarda “filtrlay” olish qobiliyatini shakllantirish;

— ikkinchidan, internet ma’lumotlarga yoki kompyuterga qiziquvchi yoshlarga doimiy ravishda salbiy saytlar va ularning oqibatlarini to‘g‘risida kerakli ko‘rsatmalar berib boish;

— uchinchidan, joylarda ota-onalar uchun doimiy ravishda tushuntirish ishlarini olib borish;

— to‘rtinchidan, maktab, litsey, kollej va oliy o‘quv yurti pedagog jamoasi, o‘quvchi va talabalar orasida internet hujumlari va internet savodxonligi bo‘yicha targ‘ibot va tashviqot ishlarini tashkil qilish;

- beshinchidan, maktab, litsey, kollej va oliy o‘quv yurtlarida internet savodxonligi bo‘yicha maxsus kurslar o‘qitilishi, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida maktab, litsey, kollejlarda va oliy ta’lim muassasalari uchun o‘qituvchilar tayyorlanishini hisobga olib, fanlarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, “Kibermakondagi diniy ma’lumotlar va kiberterrorizm” maxsus kurs yoki fanlarning ishchi fan dasturlariga alohida mavzu shakllantirib kirgizish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 28 sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining jamoat ta’lim axborot

tarmog‘ini tashkil etish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq ta’lim va yoshlar bo‘yicha yaratilayotgan axborot resurslari yagona “ZiyoNET” milliy ta’lim tarmog‘i tashkil etilganligi axborot xurujlariga qarshi turishda bir “mexanizm” ekanligi, “Kiber jinoyatlar to‘g‘risida” Konvensiya, “Voyaga etmaganlar uchun xavfsiz Internet va onlayn resurslarni joriy qilish to‘g‘risida” Evropa Ittifoqi Parlamenti Assambleyasining tavsiyalari, “Bola huquqlari to‘g‘risida” BMT Konvensiyasi kabi qonunlar va Xalqaro Konvensiyalarniyuqorida ko‘rsatilgan ta’lim muassasalariga fan sohalarining mazmunlaridan kelib chiqib o‘rgatishimiz lozim deb hisoblaymiz.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, bugungi kunda axborot maydonidagi “inqilobiy yangilik” sifatida e’tirof etilayotgan “kibermakon” asta-sekin jahon jamoatchiligi uchun tobora jiddiy xavf tug‘dirib bormoqda. Xalqaro xavfsizlikka nisbatan ilgari ko‘rilmagan din niqobidagi tahdidlar ortayotgani, kiberjinoyatchilik, kiberhujum, kibertahdid kabi tushunchalar hayotimizga kirib kelayotgani kishini xavotirga solmoqda. Hozircha bu xurujga qarshi turadigan qurol yo‘q. Axborotga bo‘lgan ehtiyoj bor ekan, kiberjinoyatchilik turli shakl va usullarda bo‘y ko‘rsataveradi.

Rossiyalik yetakchi mutaxassislar yozishicha, axborot urushi (information war) – strategik maqsadlarni amalga oshirish uchun raqibning axborot maydoniga informatsion ta’sir ko‘rsatish harakatidir. Axborot urushi «targ‘ibot» (propaganda) atamasiga bevosita bog‘liq. «Targ‘ibot» atamasini Rim Papasi 1622-yili, katoliklar va protestantlar o‘rtasidagi o‘ttiz yillik urushda ilk bor qo‘llagan. Papa mag‘lub

bo'layotgan katoliklarning jangovor ruhini ko'tarish maqsadida maxsus kongregatsiya – iymon targ'iboti bo'limini ishga tushirgan.

1622-yildan birinchi Jahon urushigacha targ'ibot atamasi diniy ma'noda qo'llanilgan. Dushman qo'shinlari va kuchlariga ta'sir qilish uchun maxsus bo'linmalar ilk bor ana shu urushlar davomida paydo bo'ldi.

«Axborot urushi» atamasi ilk bor 1967-yili tilga olingan bo'lib, bu iboraning muallifi sobiq Sovet ittifoqiga qarshi boshlangan axborot urushining asoschilaridan biri Allen Dallesdir. 1985-yili axborot urushi atamasi Xitoyda ham qo'llangan. 1992-yili AQSh harbiy qo'mondonligi Fors ko'rfazida amalga oshirilgan «Sahrodagi bo'ron» amaliyoti uchun «Axborot urushi» deb nomlagan alohida hujjat ham ishlab chiqqan. «Axborot urushi» atamasi 1995-yilda Rossiyada ham paydo bo'ldi.

Axborot urushi – raqib sanalgan mamlakat rahbariyatiga, uning jamoatchilik yoki diniy tashkilotlariga va ular qabul qiladigan qarorlarga ta'sir ko'rsatish, ijtimoiy fikr va jamoatchilik ongini o'ziga kerakli yo'nalishda shakllantirishga urinishdir. Ta'sir qilishning asosiy dastaklari – kitoblar, kinofilmlar, televideniye, internet, OAV nashrlari.

Axborot urushining muhim jihati – raqibning rahbariga psixologik bosim o'tkazib, uni «kerakli» qarorlarni qabul qilishga majbur qila bilishdir. Misol uchun, kerakli laqablar o'ylab topiladi (kofir, tog'ut, munofiq, vahhobiy va hokazo), turli xil dezinformatsiya, ya'ni haqiqatdan yiroq axborotlar tarqatiladi. Yolg'on maqsadlar sari yo'nalishga majbur qiluvchi xatti-harakatlar va vahima uyg'otuvchi uslublar qo'llaniladi.

Axborot ta'siri – dalillarni (faktlarni) buzib ko'rsatish yoki raqibning tabiiy idrok qilish qobiliyatini so'ndirish, uning fikrini his-tuyg'ular (emotsiyalar), kuchli hissiyotlar ta'sirida ushlab turish, ya'ni "jahl chiqsa, aql ketadi" degan holatga olib kelish.

Misol uchun, G'arb ommaviy axborot vositalari (OAV) va «Al-Jazira» telekanalining Qaddofiy samolyotlari «tinch» namoyishchilarni «bombardimon qilgani» oqibatida Liviya ko'chalarida yuzlab o'liklar yotgani, begunoh xalq ayovsiz qirilayotgani haqidagi axborotlardan so'ng BMT maxsus rezolyutsiya qabul qilishga «majbur» bo'ldi. Haqiqatdan yiroq bu axborotlar ta'siri ostida NATO Liviyani bombardimon qilishi va yaqin kelajakda bu mamlakat Afg'oniston va Iroq kabi bosib olinishi mumkin bo'lib qoldi...

Axborot hujumlari hatto musulmon olamining mashhur va nufuzli olimi Yusuf Qarzoviyni ham chetlab o'tmadi. Shayx Qarzoviy ham yolg'on axborot (dezinformatsiya) qurboniga aylanib, Qaddofiyning hokimiyatda qolishiga qarshi fatvo berib yubordi. Ba'zi imomlar esa Qaddofiyning Allohning va dinning dushmani deb, unga takfir e'lon qilishdi.

Ehtimol, u yomon siyosatchi bo'lgandir, biroq u Afrika qit'asidagi ko'plab qabilalarning Islomga kelishiga sababchi bo'lgan, dunyodagi ko'plab musulmonlarga homiylik qilib turadigan, namozxon kishi edi.

Vaholanki, Liviyada yashayotganlar telefon orqali hech qanday bombardimonlar bo'lmaganini, o'liklar ham yo'qligini, bolalar maktablariga, kattalar esa ishlariga borib kelayotganini aytib turdilar.

Haqiqiy bombardimonlar esa BMT qabul qilgan rezolyutsiyadan keyin, G‘arb koalitsiyasi tomonidan amalga oshirildi.

Bu elektron OAVlaridagi yolg‘on va soxta axborotning (dezinformatsiya) yopirilishi va uning oqibatiga bir misoldir.

Yuqorida aytilganlarga qo‘shimcha qilib aytish mumkinki, axborot ta‘siri kutilgan natijani berishi uchun zarur paytda yolg‘on xabar tarqatish (dezinformatsiya) bosimini kuchaytirib, axborot jang maydonini (poligonini) yolg‘on ma‘lumotga to‘ldirib yuborish, zarur paytlarda esa axborot bo‘shlig‘ini (vakuum), ya‘ni axborot olish juda muhim bo‘lgan vaqtda axborot bermay «axborot ochligini» tashkil qilish kabi usullardan foydalanish mumkin.

Axborot urushlari turli xil aloqa (kommunikatsiya) vositalari yordamida amalga oshiriladi. Vositalar navi (assortimenti) juda boy bo‘lib, unga mashhur OAVlardan boshlab mish-mishlar, g‘iybatlar va hatto latifalargacha (anekdot) kiritish mumkin.

Kechagi axborot urushlari bugungisidan batamom farq qiladi. Yangi zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanib ketishi, sun‘iy yo‘ldosh televideniyealar, internet tarmoqlar boshqalar uchun yopiq bo‘lgan ma‘lum hudud, ya‘ni lokal konfliktlarning zudlik bilan tarqalishi ularga olamshumul ahamiyat berilishiga sabab bo‘ldi.

Bugungi kunda Xitoyda 500 million, Rossiyada esa 50 millionga yaqin internetdan foydalanuvchilar ro‘yxatdan o‘tgan. Endilikda ijobiy yoki salbiy mazmundagi axborotlarning global tarmoqqa chiqishi uchun bir soniya kifoya. Bu axborotlarning nafaqat milliy manfaatlar, xavfsizlik va mamlakat suverenitetiga, balki shu mamlakatda

yashayotgan musulmonlarga ham aloqasi bor. «Islomiy omil» esa bugungi kun axborot urushida yetakchi o‘rinni egallab oldi.

Axborot urushini oddiy reklamadan farqlaydigan jiddiy belgi shuki, bunda asosiy maqsad qarshi tarafga nisbatan uning maqsadi va unga yetishish vositalaridan to‘liq foydalanishiga to‘sqinlik qilish, chalg‘itishdir.

Ijtimoiy tarmoqlarda diniy axborot iste‘moli madaniyatini tarbiyalashning zarurati

Keyingi paytlarda ilmiy manbalarda tez-tez “axborot iste‘moli madaniyati” atamasi qo‘llanayotganiga guvoh bo‘lmoqdamiz. Unga ko‘ra, har kim o‘zi e‘tiqod qiladigan mafkura tarqatuvchisi va targ‘ibotchisidir.

Axborotni qabul qiluvchi o‘zi, atrofdagilar, yaqinlari, xalqi, yurti manfaatlarini himoya qilishi, shunga mos va xos ma‘lumotlarni tanlashni bilishi, o‘zlashtirishi va tarqatishi lozim. Bu, o‘z navbatida, tarbiyaga bog‘liq. Bugun yoshlarga “Bu axborotni kim taqdim qilmoqda?”, “Nima uchun taqdim qilmoqda?” va “Qanday maqsadda taqdim qilmoqda?” degan savollarni o‘z-o‘ziga berishi, unga asosli javob topishga harakat qilishni o‘rgatish kerak bo‘ladi. Ana shundagina turli g‘oyalar ta‘siriga tushib qolish ehtimoli kamayib, taklif etilayotgan ma‘lumotlarga ko‘r-ko‘rona ergashishning oldi olinadi. “Axborot tashnaligi”ga barham beriladi.

Ayni paytda, axborotlashuv jarayoni qo‘yidagi muammolarni ham keltirib chiqaradi:

Birinchi dan, mualliflik yoki intellektual mulk huquqi buzilishiga sabab bo'lishi mumkin. Bu hol bugungi kunda internet orqali tarqatilayotgan ma'lumotlarning to'g'ridan-to'g'ri olinishi misolida ko'rinmoqda. Mualliflar huquqlarini himoya qiluvchi tashkilotlar, plagiatlikni aniqlash programmalari tabiiy zarurat tufayli vujudga kelgan.

Ikkinchi dan, tekshirilmagan, noxolis ma'lumotlarning keng tarqalishi ehtimoli ortadi. Aslida, internet tarmoqlari mualliflardan mas'uliyatni cheklaydi. SHunga muvofiq internet jurnalistikasi rivojlanmoqda.

Uchinchi dan, maxfiy, shaxsiy ma'lumotlarning noqonuniy ravishda e'lon qilinishiga olib keladi. Bundan ba'zan moddiy manfaatdorlik yoki ko'zlangan aniq maqsadga erishish, jumladan, biror shaxsni obro'sizlantirish nazarda tutiladi.

To'rtinchi dan, din niqobidagi ekstremizm, missionerlik hamda "ommaviy madaniyat" targ'iboti ortadi. Bu esa ma'naviyatga, milliy va diniy qadriyatlarga, azaliy urf-odat va an'analarga qarshi qaratilgan to'g'ridan-to'g'ri tahdiddir.

Beshinchi dan, ma'naviy, milliy qadriyatlarga putur etadi. Masofaviy muloqot, faqat hurmatdan iborat munosabat shakli ota-onaga xizmat, yaqinlar diydoriga intilish, hashar, muhtojlarga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish kabi qadriyatlarimizga ma'lum darajada ziyon etkazadi. SHu sababdan yurtimizda qadriyatlarga sadoqat, milliylikka hurmat tuyg'ulari targ'ib qilinadi.

Yuksak axborot texnologiyalarini jamiyat hayotining turli sohalariga joriy etish – davr talabi. Ammo uning ham o'ziga xos jihatlari bor. Jumladan,

- uning natijasida jismoniy mehnat hajmi keskin qisqaradi. Bu esa ishsizlikning ortishidir. Demak, amaliyotga ilm-fanning eng so'nggi natijalarini joriy etish barobarida yangi ish o'rinlarini yaratish ustida jiddiy bosh qotirish ham muhim hisoblanadi;

- yuksak darajada texnik imoniyatlarga ega bo'lish mehnat, ishlab chiqarish jarayonini osonlashtiradi, inson uchun murakkab va qiyin bo'lgan ishlarni texnika o'z zimmasiga oladi va insonlarning aqliy faoliyati uchun keng yo'l ochiladi.

-dunyo xalqlari bilan muloqot almashinuvi osonlashadi, tezlashadi. Jahondagi istalgan mamlakat kutubxonalarida saqlanayotgan nodir va muhim kitoblardan foydalanish imkoniyatlari yaratiladi;

- madaniyatlararo aloqalar rivojlantiriladi, mustahkamlanadi. Dunyo yaqinlashadi.

Demak, har bir olingan ma'lumotni tekshirib, asosli yoki asossiz ekanini aniqlamay turib, o'sha ma'lumotga qarab ish tutish turli muammo va javobgarliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Chunki bunda xabar tarqatayotgan kishining g'arazli maqsadini amalga oshirishiga zamin yaratib qo'yiladi.

Shunday ekan, dunyoning turli mintaqa va hududlarida ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ziddiyatli to'qnashuvlarga teran qarash hissini oshirish, har qanday ko'rinishdagi tahdidlarga qarshi

ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish, ayniqsa bu borada kelajagimiz hisoblangan yosh avlodni, bir so'z bilan aytganda har birimiz uchun muqaddas bo'lgan oilamizni din niqobi ostidagi yot g'oyalar ta'siridan asrash uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz lozim.

Hozirgi davrda virtual diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda xalqaro kuchlarni birlashtirishning ahamiyati.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida VI yo'nalish umumbashariy muammolarga milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda yechim topishga bag'ishlangan. Unda terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini shakllantirishdan ko'zlangan maqsadlar belgilab berilgan. Terrorizm va ekstremizm muammosi global ijtimoiy hodisa sifatida dunyoning barcha davlatlarini qamrab olgan. O'zbekiston ham jahon hamjamiyatining ajralmas qismi sifatida bundan mustasno emas. So'nggi yillarda yangi O'zbekistonning terrorizm va ekstremizmga qarshi harakatlari Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari uchun o'ziga xos namuna bo'lib xizmat qildi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2017 yilga nisbatan 2018 yilda O'zbekistonda terrorizm va ekstremizm bilan bog'liq jinoyatlar soni 65 foizga kamaydi.

Yoshlarning huquqiy va diniy bilimini oshirish orqali ekstremistik targ'ibotga, radikallashuvga qarshi kurashishning o'zbek modeli muvaffaqiyat qozondi. Huquqiy va diniy bilimlarini oshirish vositasida yoshlar o'rtasida ekstremistik tashviqotga qarshi turishga asoslangan mazkur model samarali bo'lib chiqdi.

O‘zbekistonda terrorizmga qarshi kurashishning o‘zbek modeli, avvalambor, huquqiy va siyosiy madaniyatni, ma’naviy va diniy ma’rifatni oshirish orqali odamlar ongi, birinchi navbatda, yoshlar ongini oshirish uchun kurash sifatida tushuniladi. Ijtimoiy rehabilitatsiya, ekstremistik g‘oyalar ta’siri ostida bo‘lgan va o‘z xatolarini anglaganlarning normal hayotga qaytishi bo‘yicha olib borilayotgan tizimli ishlar ham ijobiy natijalarni bermoqda.

Mamlakatda yangi - terrorologiya fani shakllanmoqda, ushbu global hodisalar tahliliga bag‘ishlangan qator monografiyalar, risolalar va maqolalar nashr etilmoqda, dissertatsiyalar himoya qilinmoqda. Ularda o‘zbek modelining mazmun-mohiyati, mazkur makon va zamon tanlamas illatga qarshi kurashishda davlat organlari va jamoatchilik tajribasi har tomonlama ko‘rib chiqilgan.

Bu boradagi milliy va xalqaro sa’y-harakatlarni birlashtirish orqali samarali profilaktik chora-tadbirlarni belgilash, terrorizm va ekstremizmning oldini olish, ularni moliyalashtirish manbalari va kanallariga barham berish davlat siyosatining muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 1 iyuldagi farmoni bilan 2021-2026 yillarga mo‘ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasi va uni amalga oshirish bo‘yicha «Yo‘l xaritasi» tasdiqlanib, yo‘nalishlari belgilandi.

Xalqaro terrorizm va ekstremizm kabi global hodisalarga qarshi ziyolilar, olimlar, diniy ta’limot mutaxassislarining kurashi faollashgani

jaholatga qarshi ma'rifat bilan javob qaytarishning muhimligini tasdiqlaydi.

2020 yilda Global terrorizm indeksi (Global Terrorism Index) bo'yicha tadqiqotlar 135 ta davlatni qamrab oldi. Unga ko'ra, O'zbekiston ro'yxatning 134-pog'onasini egalladi va bir necha yillardan buyon terrorizm xavfi past bo'lgan yetakchi davlatlar qatoridan joy oldi. Mamlakatimiz bunday natijaga davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining muvofiqlashtirilgan faoliyati, aholi o'rtasida tizimli profilaktika ishlarini olib borish orqali erishmoqda. Shuningdek, BMT mojaro zonalaridan ayollar va bolalarni o'z vataniga qaytarish bo'yicha o'zbek modelini ham yuqori baholadi.

Ekstremistik va terrorchilik maqsadlarida Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishga qarshi kurashish

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda Internet foydalanuvchilari soni 23 milliondan ortib ketgan.

Qayd etish lozimki, bugungi kunda ekstremistik va terrorchilik tashkilotlari saflariga jalb qilishda Internet jahon axborot tarmog'idan keng foydalanilmoqda, uning yordamida ekstremizm va terrorizm mafkurasi faol singdirilib, aholining dindor qismi o'rtasida jamiyatga qarshi kayfiyat shakllantirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining vakolatli davlat organlari tomonidan ekstremistik va terroristik materiallarni tarqatuvchi veb-resurslar va ijtimoiy tarmoqlarning faoliyatini aniqlash va oldini olish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ekstremistik va terroristik tashkilotlarning Internet jahon axborot tarmog‘i orqali yollash harakatlarida kuzatilayotgan faollik sababli, ularni zararsizlantirish bo‘yicha quyidagi qo‘shimcha choralar ko‘rilishi zarur:

a) Internet jahon axborot tarmog‘ida ekstremizm va terrorizm g‘oyalarini tarqatuvchilarni, shuningdek, respublikadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish niyatida bo‘lgan shaxslar va guruhlarini o‘z vaqtida aniqlash;

b) respublika aholisiga xos bo‘lgan bag‘rikenglik va diniy an‘analarni o‘zida mujassam qilgan ilmiy asoslangan mafkuraga tayanib Internet tarmog‘ida ekstremizm va terrorizm g‘oyalariga qarshi tashviqot va targ‘ibot ishlarini tashkil etish;

v) buzg‘unchi kontentni aniqlash va yo‘q qilish maqsadida Internet jahon axborot tarmog‘ini tahlil qilish;

g) Internet jahon axborot tarmog‘ida ekstremizm va terrorizm g‘oyalariga axborot orqali qarshi kurashish sohasida malakali kadrlar tayyorlash;

d) huquqni muhofaza qiluvchi organlarning maxsus bo‘linmalarini zarur bo‘lgan ilg‘or dasturiy mahsulotlar hamda texnika bilan ta‘minlash;

e) Internet jahon axborot tarmog‘idan ekstremistik va terrorchilik maqsadida foydalanishga qarshi kurashish masalalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni muntazam ravishda takomillashtirib borish.

2. Missionerlik va prozelitizm tushunchasining mohiyati va rivojlanish bosqichlari.

Missionerlik haqida gap ketar ekan, avvalo ushbu tushunchaning lugʻaviy va istilohiy maʼnolarini tushunib olish muhim ahamiyatga egaligini alohida qayd etish lozim. Ushbu soʻz lotin tilidagi «missio» feʼlidan olingan boʻlib, «yuborish», «vazifa topshirish», missioner esa “vazifani bajaruvchi” degan maʼnolarni anglatadi.

Missionerlik esa belgilangan vazifalarni hal qilishga qaratilgan nazariy va amaliy faoliyat majmuini bildiradi. Turli lugʻatlar va manbalarda missionerlikka koʻplab taʼriflar berilgan. Ularning deyarli barchasida missionerlikka xos xususiyatlar tavsiflanishi barobarida, bu soʻz asosan xristian dini bilan bogʻlanadi.

Jumladan, har yili qayta nashr etiladigan «World Book» (“Jahon kitobi”) ensiklopediyasida “Missioner biror diniy guruh tomonidan boshqalarni oʻz diniga targʻib qilish va kiritish uchun yuborilgan inson”,-degan fikr qayd etilgan. 2005 yilda Moskvada nashr etilgan “Kirill va Mefodiyning katta ensiklopediyasi”da esa «Missionerlik biror diniy birlashma vakillarining oʻz eʼtiqodini boshqa din vakillari orasida yoyish harakati»,-degan taʼrif keltirilgan. Umuman olganda, turli lugʻatlar va manbalarda bayon etilgan taʼriflar bib-biriga juda yaqin va oʻxshash boʻlib, ularga tayangan holda quyidagi xulosani chiqarish mumkin: missionerlik - bir dinga eʼtiqod qiluvchi xalqlar orasida boshqa bir dinni targʻib qilishni anglatadi.

Prozelitizm - bu toʻgʻridan-toʻgʻri biron bir dinga ishongan fuqaroni oʻz dinidan voz kechishga va oʻzga dinni qabul qilishga majbur

qilishdan iboratdir. Missionerlarning bugungi kundagi faoliyati hech bir mintaqa, hech bir davlat bunday tahdiddan holi emasligini ko'rsatadi. Bunday holatlarning oldini olish uchun esa missionerlikning mohiyatini to'g'ri va chuqurroq anglash, uni bartaraf etish yo'lida maqsadli, tizimli va tadrijiy faoliyat olib borish zarur bo'ladi .

Missionerlik faoliyatining eng cho'qqisi bu prozelitizm. Prozelitizmi-bu to'g'ridan-to'g'ri biron bir dinga ishongan fuqaroni majburan o'z dinidan voz kechishi va o'zga dinni qabul qilishga majbur qilishdan iborat.

Prozelitizm illatining ba'zi bir noxush natijalarini keltirish mumkin: bir qancha vaqt islom dinida yurib, keyin xristian dinini qabul qilgan kishilar vafot etganda, jasadlarini musulmon qarlariga qo'yish muammo tug'dirmoqda. Sababi, mayitning musulmon ota-onalari o'z farzandlarini xristian mozoriga dafn etishni xohlamaydilar. Musulmonlar esa, xristian dini vakili jasadini o'z musulmon birodarlari yotgan joyga ular uchun haqorat deb biladilar. Natijada kelishmovchiliklar kelib chiqadi.

Bugungi kunda faol missionerlik bilan turli yo'nalishdagi tashkilotlar shug'ullanayotgan ekan, bunday harakatlarning g'oyaviy-aqidaviy asoslarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Masalan, xristianlar "Missionerlik har bir dindor uchun shart", deb hisoblaydilar. Bunday fikrlarning asosi va manbaini «Injil»dan topish mumkin. Jumladan, "Injil"da Iso Masihning o'ziga 12 havoriyni tanlab olishi va ularni Isroilning qishloqlari bo'ylab da'vat qilish uchun yuborgani qayd etilgan. Bu haqda Markdan rivoyat qilingan "Injil"da «Iso shogirdlariga

dedi: “Butun jahon bo‘ylab yuringlar va hamma tirik jonga Injil Xushxabarini targ‘ib qilinglar”, Mattodan rivoyat qilingan «Injil»da esa “...barcha xalqlardan shogird orttiringlar. Ularni Ota, O‘g‘il va Muqaddas Ruh nomi bilan cho‘qintiringlar. Men sizlarga buyurgan hamma narsalarga amal qilishni ularga o‘rgatinglar...”, -degan da‘vatlarni o‘qish mumkin. Shu o‘rinda adolat yuzasidan bir fikrni alohida qayd etish lozim.

Ko‘pchilik hollarda muayyan dinda doirasida shakllangan u yoki bu ko‘rsatmalar, aqidalar konkret tarixiy shart-sharoit bilan bog‘liq bo‘ladi va o‘z davri uchun to‘g‘ri hisoblanadi. Vaqt, sharoit o‘zgarishi bilan o‘zining birlamchi ahamiyatini yo‘qotgan bunday ko‘rsatmalar o‘sha davrdagi tarixiy vaziyatni tushunish va baholashda qimmatdorlik kasb etadi. “Injil”dan keltirilgan yuqoridagi so‘zlar haqida ham shunday deyish mumkin. Zero, Iso Masih tomonidan qilingan bunday da‘vatlar ko‘p xudolilik o‘rniga yakka xudolikni targ‘ib qilish bilan bog‘liq edi.

Bugungi kunda jahon aholisining mutlaq ko‘pchiligi yakkaxudolikka asoslangan o‘z dinlariga e‘tiqod qiladi. SHunday ekan, qayd etilgan ko‘rsatmalarni missionerlik bilan shug‘ullanish uchun g‘oyaviy asos qilib olish tarix haqiqatiga zid ekanini ta‘kidlash zarur. Hozirgi davrga kelib missionerlik global ko‘rinish oldi. Bunda XIX-XX asrlarda yuzaga kelgan ko‘plab protestantlik oqimlari faol rol o‘ynamoqda. Insoniyat tarixida XX asr yirik davlatlar tomonidan o‘z ta‘sir doiralarini kengaytirish uchun olib borilgan kurashlar davri bo‘ldi. Bu jarayonda Osiyo va Afrika mamlakatlari asosiy kurash maydoniga aylandi.

Missionerlarning asosiy maqsadi ma'lum davlatlarda o'zlariga tarafdorlarni ko'proq yig'ish, ular orasida g'arbona, xristian hayotini targ'ib qilish va shu orqali jamiyatda xayrixoh bo'lgan guruhlarini shakllantirishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun xristian missionerlari tomonidan ko'p yillik dasturlar ishlab chiqilgan. Shunday loyihalardan eng yirigi bu «10/40 OYNA» rejasidir. Rejaga binoan xristian missionerlari injillashtirish faoliyatida asosan shimoliy kenglikning 10 va janubiy uzunlikning 40-darajalari orasida joylashgan hududlarga alohida ahamiyat beradilar.

Ushbu xarita ham missionerlikdan energetik zahiralarni qo'lga kiritishdek geosiyosiy maqsadlarda foydalanilishi haqidagi xulosaning o'rinli ekanini ko'rsatadi. Uzoqni ko'zlab, g'arazli geosiyosiy maqsadlarga erishishni niyat qilgan kuchlar tomonidan ushbu hududga xos xususiyatlar juda ham chuqur o'rganib chiqilgan, bu haqda bir qator risolalar va missionerlar uchun qo'llanmalar ishlab chiqilgan. Ularning orasida «10/40 OYNA»ga kiruvchi mamlakatlarning o'ziga xos xususiyatlari, aholisining dini, turmush tarzi, missionerlik faoliyatini olib borishda nimalarga e'tibor berilishi lozimligi haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan Patrik Djonstounning «Dunyo operatsiyasi» risolasi alohida e'tiborga molik.

Qo'llanmada keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda dunyodagi millat va elatlar soni 12 017 tani tashkil etadi. Ulardan 9 017 tasi to'laqonli faoliyat yuritadigan cherkovga ega, qolgan 3000 millat va elat bunday cherkovlarga ega emas. Djonstoun ularga ko'proq ahamiyat qaratish kerakligini, bu hududlardagi xristianlar islom, hinduiylik, buddaviylik dinlarning tazyiqlariga uchrayotganini ta'kidlaydi. Risolada

dunyo bo'yicha eng ko'p tazyiqqa uchrayotgan cherkovlar joylashgan hududlar xaritasi ham keltirilgan.

2001 yilda chop etilgan "Butun dunyo xristian ensiklopediyasi"ga ilova tarzida 2002 yilda AQSHda, "Butun jahon xristianligi tendensiyasi" kitobi nashr etildi. Unda xristianlik 2025 yilgacha erishish lozim bo'lgan sakkiz asosiy maqsad sanab o'tilgan. Xususan, unda aytilishicha

- Er yuzi aholisining "Injil" bilan tanishtirilishi 73,1 foizdan 100 foizga etkazilishi;

- dunyo aholisi tarkibidagi xristianlarning ulushi 33 foizdan 40 foizga o'sishi;

- xristianlarning 10 foizini tashkil qilgan missionerlarning ulushi 20 foizga ko'tarilishi;

- xristianlar o'z daromadlarining 1,8 foizini cherkov hisobiga o'tkazib kelishgan bo'lishsa, bu ko'rsatkich 3 foizga etkazilishi;

- har 3000 kishiga 1 ta missioner to'g'ri kelgan bo'lsa, bu ko'rsatkich har 1000 kishiga 1 ta missionerni tashkil etishi;

- cherkov mavjud bo'lmagan, aholisi 50 000 dan ortiq 116 ta shaharning barchasida cherkovlar yuzaga kelishi;

- cherkovlar tuzilmagan 1000 dan ortiq etnik guruhning har birida cherkovlar tashkil etilishi;

yo umuman tarjima qilinmagan, yoki qisman tarjima qilingan barcha tillarga "Injil" tarjima qilinishi lozim.

Er sharining ushbu mintaqasi klassik geosiyosat nazdida ham asosiy va hal qiluvchi ahamiyatga ega. XIX asrdayoq taniqli geosiyosatchi A.Mexen jahon maydonida 30-40 paralellar orasidagi “qarama-qarshiliklar hududi”ni ajratib ko‘rsatgan. Ushbu hududlarda imperiyalarning manfaatlari to‘qnashadi. Zamonaviy geosiyosatchilar esa ushbu hududning aksariyat qismini “beqarorlik tuguni” deb atashadi.

Hozir ayrim rasmiy ro‘yxatdan o‘tgan yoki norasmiy faoliyat yuritayotgan noislomiy diniy jamoalarning vakillari tomonidan ham missionerlik faoliyati amalga oshirilishi kuzatilmoqda. Missionerlar aksariyat holatlarda o‘z jamoasiga jalb qilishda turli o‘qish kurslarini ochib, o‘z diniga targ‘ib qilish, xorijga o‘qishga yoki ishga jo‘natish, yoz faslida bolalarni dam olish lagerlariga jalb qilish, hayriya yordam ko‘rsatish, bepul tibbiy yordam berish va gazeta, jurnal, kitoblar tarqatish kabi usullardan foydalanmoqda.

Ularning diniy ta’limotida Davlat ramzlarini humat qilish, Konstitutsion burchni bajargan holda harbiy xizmat o‘tash, jamoat ishlarida qatnashish man etilgan. Bunday holat xalqimiz uchun noan’anaviy bo‘lgan diniy jamoa va sekta vakillarining maqsadi jamiyatimiz a’zolarini fuqarolik faolligini so‘ndirish va qaram qilib olishga yo‘naltirilganidan yaqqol dalolat beradi.

Shuningdek, ayrim noislomiy diniy jamoalarda ushbu jamoaga a’zo bo‘lgan shaxs bilan oila qurishi, jamoadan tashqaridan kelayotgan barcha ma’lumotlarni yolg‘on va zararli deb bilish belgilab qo‘yilgan, ba’zilarida oila qurish umuman ma’qullanmay, ular daromadlarining deyarli barchasini ushbu jamoa rahbariyatiga topshirishi lozim. Ushbu

faktlar mazkur diniy jamoalardagi tartib shaxs, oila va jamiyat uchun naqadar zararli ekanini tasdiqlaydi. Umuman olganda, yuqoridagi kabi sektalar, missionerlik tashkilotlari faoliyatiga chek qo'yish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Bir qator mamlakatlarda sektalar va missionerlar faoliyati natijasida jabr ko'rganlarga moddiy va ma'naviy ko'mak berish maqsadida maxsus markazlarning tuzilgani, afsuski, yuqoridagi kabi holatlarning ko'payib borayotgani va xatarli ko'lam kasb etib, jamiyatdagi ijtimoiy-ma'naviy muhitga o'ta salbiy ta'sir ko'rsatayotganini kuzatamiz.

Shuningdek, missionerlikning milliy hayotga tahdidi xususida ham to'xtalib o'tish lozim. Sir emaski, din milliy ma'naviyatning tarkibiy qismi, millatni birlashtirib turuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Bir tilda gaplashadigan, umumiy tarix va yagona davlatga ega bo'lgan, ammo turli dinlarga yoki diniy yo'nalishlarga e'tiqod qiladigan millatlar hamon ichki milliy birlikni ta'minlay olmayotgani, kichkina bir sabab qayta - qayta nizoli vaziyatlar va fuqarolar urushining kelib chiqishiga zamin yaratayotgani va mamlakatlar o'z taraqqiyotida o'nlab yillarga orqada qolib ketayotgani ham shunday xulosa chiqarish imkonini beradi.

Livan aholisining 90 foizdan ortig'i arablar. Rasmiy til - arab tili. Ammo livanliklarning bir qismi islomga (sunniiy, shia, druz), qolgan qismi xristianlikka (maroniy, pravoslav, katolik) e'tiqod qilishi natijasida milliy birlikni ta'minlash qiyin kechmokda. Mamlakatning amaldagi qonunchiligida davlat boshqaruv idoralarining diniy belgilar asosida shakllantirilishi mustahkamlab qo'yilgan.

Yugoslaviyaning parchalanib ketgani ham etnokonfessional ziddiyatlar qanday og‘ir oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Missionerlikka qarshi kurashning huquqiy-amaliy asoslari. O‘zbekistonda mustaqillikning ilk yillaridanoq missionerlik va prozelitizmning salbiy oqibatlarga olib kelishini hisobga olgan holda bu borada tegishli qonuniy asoslar ishlab chiqildi. Qonunlarda missionerlik harakatlari taqiqlandi.

Ma’lumki, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonun (yangi tahriri) kishilarning vijdon erkinligini huquqiy kafolatlash bilan birga diniy tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirishga xizmat qiladigan hamda davlat va din munosabatlarini tartibga soladigan muhim hujjat hisoblanadi. Qonunga binoan «Bir diniy konfessiyadagi dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm), shuningdek boshqa har qanday missionerlik faoliyati man etiladi. Ushbu qoidaning buzilishiga aybdor bo‘lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka tortiladilar» (5-modda, 3-band).

Mazkur moddadan kelib chiqib, «O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi»ga noqonuniy diniy xatti-harakatlarning oldini olish bilan bog‘liq bir qator moddalar kiritilgan. Jumladan:

Diniy mazmundagi materiallarni tarqatish maqsadida qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish yoki tarqatish;

Diniy yig'ilishlar, ko'cha yurishlari va boshqa diniy marosimlar o'tkazish qoidalarini buzish;

O'zbekiston Respublikasida g'ayriqonuniy nodavlat notijorat tashkilotlari, oqimlar, sektalar faoliyatida qatnashishga undash;

Noqonuniy diniy faoliyat bilan shug'ullanish;

Diniy tashkilotlar rahbarlarining mazkur tashkilotlar ustavini ro'yxatdan o'tkazishdan bosh tortishi;

Dindorlar va diniy tashkilotlar a'zolari tomonidan bolalar va o'smirlarning maxsus yig'ilishlari, shuningdek diniy marosimga aloqasi bo'lmagan mehnat, adabiyot va boshqa xildagi to'garaklar hamda guruhlarni tashkil etish va o'tkazish;

Bir konfessiyaga mansub dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm) va boshqa missionerlik faoliyati;

Maxsus diniy ma'lumoti bo'lmay turib va diniy tashkilot boshqaruvi markaziy organining ruxsatisiz diniy ta'limotdan saboq berish, xuddi shuningdek xususiy tartibda diniy ta'limotdan saboq berish bilan bog'liq harakatlar sodir etilganda belgilangan eng kam ish haqining tegishli miqdoridagi jarima solinishiga yoki belgilangan muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'lishi haqidagi qoidalar mustahkamlab qo'yilganini ta'kidlash zarur.

Amaldagi qonunchiligimizga ko'ra, muayyan hollarda birinchi marta qonunni buzgan shaxs yoki tashkilotga ma'muriy jazo qo'llaniladi. Agarda o'sha shaxs yoki tashkilot shundan keyin ham qonunni buzishda davom etsa, unga endi jinoyat kodeksidagi choralar

qo‘llaniladi. Masalan, «O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi» normalariga ko‘ra, «O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi»ning yuqorida qayd etilgan bandlaridagi harakatlar ma‘muriy jazo qo‘llangandan keyin yana sodir etilsa, bu «O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi»da belgilanganidan ko‘ra og‘irroq jazolar qo‘llanishiga olib keladi.

Shu bilan birga, «O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi»da «O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi»da nazarda tutilmagan bir qator harakatlar uchun ham jazolar belgilanganini qayd etish zarur. Jumladan:

Voyaga yetmagan bolalarni diniy tashkilotlarga jalb etish;

Voyaga yetmagan bolalarni ularning ixtiyoriga, ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar ixtiyoriga zid tarzda dinga o‘qitish;

Dindorlardan majburiy yig‘im undirish va soliq olish;

diniy ta‘lim olishda hamda fuqaro dinga nisbatan, dinga e‘tiqod qilish yoki e‘tiqod qilmaslikka nisbatan, ibodat qilishda, diniy rasm-rusumlar va marosimlarda qatnashish yoki qatnashmaslikka nisbatan o‘z munosabatini belgilayotgan paytda majburlash bilan bog‘liq diniy faoliyat yuritish;

G‘ayriqonuniy jamoat birlashmalari yoki diniy tashkilotlarni qonunga xilof ravishda tuzish yoki ularning faoliyatini tiklash;

G‘ayriqonuniy jamoat birlashmalari yoki tashkilotlari faoliyatida faol qatnashish bilan bog‘liq harakatlar belgilangan eng kam ish

haqining tegishli miqdorida jarima solinishiga yoki belgilangan muddatga axloq tuzatish ishlari, yoki qamoq yohud ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilab qo'yilgan.

Mamlakatimizda missionerlik va prozelitizmning oldini olish, ayniqsa yoshlarni bunday zararli oqimlar domiga tushib qolishlarining oldini olish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirishni taqozo qilmoqda. Bu vazifani muvaffaqiyatli hal etishda yosh avlodni hozirgi davrda mamlakatimizda din sohasida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, yaratilgan imkoniyatlar bilan muntazam asosda tanishtirib borish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, qiziqishlari, bilim darajalarini inobatga olgan va differensial yondashgan holda yoshlarning din, shu jumladan, xalqimiz asrlar davomida e'tiqod qilib kelgan islom dini haqidagi bilimlarni va milliy-diniy an'analar asoslarini sog'lom asosda egallashlariga ko'maklashish ham bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Bunday bilimlar obyektiv bo'lishi, voqelikni to'g'ri va to'liq aks ettirishi va o'z mohiyatiga ko'ra, Vatan va millat manfaatlari bilan uzviy bog'liq bo'lmog'i kerak. Yoshlarimizning missionerlikning mohiyati haqida xolis va yetarli bilimga ega bo'lishlari unga qarshi immunitetni shakllantirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Tahlillar hech bir mintaqa, hech bir davlat bunday tahdiddan xoli emasligini ko'rsatadi. Bunday holatlarning oldini olish uchun esa missionerlikning mohiyatini to'g'ri va chuqurroq anglash, uni bartaraf etish yo'lida maqsadli, tizimli va tadrijiy faoliyat olib borish zarur bo'ladi. Egallangan bilimlar qanchalik xolis va chuqur bo'lsa, uning zamirida yuzaga keladigan baholar, qadriyatlar ham shunchalik

mustahkam bo‘ladi. Shakllangan qadriyatlar tizimi esa turli tahdidlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Xalqaro missionerlik tashkilotlari va ularning targ‘ibot usullari. Missionerlik harakatini eng ko‘p olib boradiganlar, hozirgi kunda, bu «Iegov shohidlari» diniy tashkiloti vakillaridir. Ularning vakillarini jamoat joylarida, xiyobon va mahallalarda ochiqdan-ochiq missionerlik ruhidagi adabiyotlarini tarqatishlarini kuzatish mumkin.

Missionerlik bilan faol shug‘ullanuvchi «Iegov shohidlari» sektasida ta’sir etish mexanizmlari aniq va lo‘nda qilib ishlangan. Bu yo‘nalish 19-asrning 70-yillarida AQSHda vujudga kelgan. Bugungi kunda jahonning turli mamlakatlarida 100 ga yaqin bo‘linmalariga ega. Bu tashkilot qat’iy markazlashgan bo‘lib, uning boshqaruvchi raisi cheklanmagan hokimiyatga ega. YUqoridan pastga ko‘rsatmalar va adabiyotlar, pastdan yuqoriga hisobotlar yuborib turiladi. «Iegov shohidlari» o‘zining matbuot organiga ega. «Posbon minora», «Uyg‘on». Bu jurnallar jahon xalqlarining 160 dan ziyod tilida nashr qilinib, dunyoning turli burchaklarida tarqatiladi.

Ularning tarqatayotgan adabiyotlari didli, rangli va chiroyli manzaralar bilan tasvirlangan. «Jalb etuvchilar»ning ovoz ohanglari tinchlantiruvchi va mehrlil sado etadi. Mutaxassislarning aytishicha, «Iegov shohidlari» sektasi a‘zolari jalb etishning 86 xil usulidan foydalanar ekanlar.

Ular ko‘pincha quyidagi turdagi kishilarni o‘z ta’sir doiralariga olishga urinadilar.

-birinchi va to‘rtinchi kurs talabalari;

-keksalar ayniqsa, endigina nafaqaga chiqqanlar va yolg'iz qariyalar;

-o'z o'rnini topishga intilayotgan o'smirlar;

-kuchli stressni (kasallik, yaqin odamining vafoti, ajralish va x.k.) boshidan kechirayotganlar;

-qochoqlar va ishsizlar.

Yana bir missionerlik harakati bilan shug'ullanayotgan diniy tashkilot «To'liq injil xristian cherkovi»dir. Ular ba'zi ibodat uylarida o'zbek tilida ibodatlarni olib bormoqdalar, moddiy yordam ko'rsatish orqali o'z dinlariga da'vat qilishga harakat qilmoqdalar.

Missionerlik qonun orqali ta'qib qilinib turiladi: O'zbekiston Respublikasida vijdon erkinligi qonunan kafolatlangan. Har bir fuqaro xohlagan diniga e'tiqod qilishi mumkin. Davlat va diniy tashkilotlar bir-biridan ajratilgan. SHu bilan birga diniy konfessiyalar o'rtasidagi tinchlik, totuvlik va daxlsizlikni ta'minlash maqsadida prozelitizm (bir diniy konfessiyadagi dindorlarni boshqasiga kiritishga qatilgan xatti-harakatlar) va har qanday missionerlik faoliyati qonunan man etilgan.

Ushbu qoidaning buzlishiga aybdor bo'lgan shaxslar qonun oldida javobgarlikka tortiladilar.(Jinoyat kodeksining 216(1), 216(2) moddalari)

Aholining, xususan soha mutaxassislarining, missionerlik haqida ma'lumotga ega bo'lishlari ularning burch va vazifalari sanaladi. CHunki yurtboshimiz ta'kidlaganidek: "Islom-bu ajdodlarimiz, ota-

bobolarimiz dini. Uni tashqi ta'sir, buzg'unchi unsurlardan tozalash muqaddas burch sanaladi.”

Hozirgi kunda Markaziy Osiyoning bir qismini ham qamrab olgan ushbu hudud xristian missiyalarining asosiy harakat nuqtasiga aylangan. Missiyalar tomonidan ushbu hududlarni o'zlashtirish uchun bir qator rejalar ishlab chiqilgan. “Tong - 2000” nomli missionerlik dasturining muallifi J. Montgomerining fikricha, xristianlik o'z tarixida bir avlod hayot davrining o'zida amalga oshirish uchun 700 dan ortiq Butunjahon injillashtirish rejalariga ega bo'lgan.

Muayyan ijtimoiy guruhlarni tanlab olish va ular bilan maqsadli ishlash missionerlik strategiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Xususan, protestant missioneri R.Adler “Havoriy Pavlus davrida va hozirgi kunda missionerlik metodlari” kitobida yozishicha, Xitoyda “Qo'llab-quvvatlash jamiyati” nomli missionerlik tashkiloti ziyolilar va mansabdor shaxslarni o'ziga jalb qilish orqali muvaffaqiyatlarga erishgan.

«Dunyo operatsiyasi» kitobining muallifi, taniqli missioner P.Djonstoun esa, talabalarni missionerlik faoliyatining asosiy ob'ekti deb qarab, jumladan, shunday deydi: “Butun dunyoda universitet va kollejlarda 37 million talaba tahsil oladi. Ularning ko'plari 20 yildan so'ng yirik mansablarni egallashadi”. Darhaqiqat missionerlar o'z faoliyatida talabalar va yoshlarga katta ahamiyat beradilar. Masalan, “Kechki Bishkek” tashkiloti tomonidan chiqarilgan axborotnoma va Qirg'iziston xavfsizlik xizmati ma'lumotlariga ko'ra, hozirda ayrim qirg'iz yoshlaridan 15 mingi xristianlikni qabul qilgan. Qozog'istonda

ham ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunga kelib 800 000 ga yaqin sobiq musulmon aholi protestantlikni qabul qilgan.

Missionerlik strategiyasining yana bir muhim tarkibiy qismi bu diniy tashkilotlar sonini oshirishga intilishdir. "DAWN" ("Kun chiqishi") missionerlik harakati rahbari D.Montgommeri fikricha: "Cherkovlarni ko'paytirish strategiyasi - xalqlarni masihiylikka o'tkazishning eng to'g'ri yo'lidir".

Buning isbotini Qirg'iziston hukumati xuzuridagi Din ishlari qo'mitasining ma'lumotlarida ham ko'rish mumkin. Unga ko'ra, hozirgi kunda Qirg'izistonda 216 protestant diniy tashkiloti, shu jumladan, 20 ta xorijiy konfessiyalarning missiyalari faoliyat yuritmoqda. So'nggi yillarda mamlakatga 830 ta missioner kelgan, ularning asosiy ulushi Janubiy Koreya, AQSH, Germaniya kabi davlatlardan kelgan da'vatchilarga to'g'ri keladi.

Missionerlar tomonidan "Mun izdoshlari", "Greys cherkovi", "Iso Masih cherkovi", "Yangi Hayot", "Sunn Bag'ym" kabi cherkovlar tuzilib, Ettinchi kun adventistlari, baptistlar, To'liq injil xristianlari, Iegovo shohidlari cherkovlari ishi faollashtirilgan.

Missionerlar o'z faoliyatlari orqasida siyosiy yoki iqtisodiy maqsadlar yotganini umuman tan olishmaydi. «10/40 Oyna» hududiga qiziqishlarini ular diniy nuqtai nazardan asoslashga urinadilar.

Xususan, ularning fikrlaricha, ushbu hududda "Bibliya"dagi ko'p voqealar sodir bo'lgan. Xudo ilk insonlar Odam va Havvoni shu hududga tushirgani, Iso Masih tug'ilib o'sib, o'z havoriylari bilan faoliyat olib borgani xamda ilk masihiy cherkovi shu erda paydo

bo'lgani haqidagi fikrlar shular jumlasidandir. Bu hudud quruqlikning 1/3 qismini tashkil qilishi, 4 milliard aholi istiqomat qilishi, dunyodagi eng kam injillashtirilgan 50 davlatning 37 tasi shu hududda joylashgani ham bu xalqlarga «Najot keltiruvchi Xushxabarni» etkazish zarurligiga “asos” sifatida keltiriladi.

Bu gaplar asl maqsadni yashirish uchun bir niqob, xolos. Aslida asosiy maqsad ushbu hududlardagi xalqlarni injillashtirish orqali ularning birdamligiga putur etkazish, ichki nizolarni keltirib chiqarish orqali ularning rivojlanishiga to'sqinlik qilish va qaram etishdan iborat. Agar «masihiy» lardan biri yuqori davlat organlariga ishga kirsa nur ustiga a'lo nur bo'ladi.

Missionerlikka boyish yo'llaridan biri sifatida qarovchilar ham talaygina ekanini ham qayd etish lozim. Ma'lumki, ko'pchilik protestant jamoalari o'z a'zolari daromadlarining muayyan qismini cherkov hisobiga o'tkazishni talab qiladi. Ba'zi cherkovlarda bu narsa majburiy bo'lmasa, xayr-ehson qilish qattiq targ'ib qilinadi. Tadrijiy va agressiv targ'ibot olib borilishi natijasida kishilar “o'z xohishlari bilan” bor budlarini cherkovga topshirishadi. Oddiy dindorlar, jumladan, yangi prozelitlar ham kamtarona, tashkilot rahbarlari esa hashamatli ofislarda o'tirib shohona hayot kechirishadi.

Buning isboti sifatida quyidagi misolni keltirish mumkin. Rossiyada «Serkov Bogomateri» nomli sekta ustidan bo'lib o'tgan sud jarayonlarida ushbu sekta rahbarlari o'z izdoshlaridan xudo yo'lida xonadonlarini o'z rahnamolariga xadya qilishga da'vat qilishgani va shu

yo'sinda bir necha fuqarolar o'z kvartiralarini soxta rahbarlarga hadya qilib yuborishgani e'lon qilindi.

Mamlakatimizdagi bir qator cherkovlarda ham xayr-ehson yig'ish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Cherkovlarga keladiganlar orasida o'ziga to'q odamlar juda kamchilikni tashkil qilsa-da har bir ishtirokchi eng kamida 3000-4000 so'mdan xayriya qilishi tabiiy hol xisoblanadi.

Bugungi kunda missionerlar o'z targ'ibot faoliyatlarida yangi, zamonaviy usul va vositalardan, jumladan, zamonaviy tele, audio, video, radio va kompyuter texnologiyalaridan keng foydalanmoqdalar. Missionerlar maqsadlarini amalga oshirishda turli xil uslublardan keng foydalanishadi.

Ma'rifat tarqatish, tibbiy yordam ko'rsatish, yoshlarni jalb qiladigan o'quv markazlari tashkillashtirish, radio, televideniya va bolalar uchun mo'ljallangan rasmi jurnallar nashr etish ularning asosiy targ'ibot yo'nalishlari sanaladi.

Missionerlarning birgina oqimi sanalgan adventistlar bir yuz sakson to'rt mamlakatda 22 000 dan ortiq cherkov, 5000 dan ortiq o'quv markazlari, 50 ta nashriyot, 160 ta kasalxonaga ega. Bundan tashqari 170 dan ortiq tilda missionerlik adabiyotlarini chop etadilar. Dunyodagi umumiy missionerlarning 2/3 qismini katolik missionerlari tashkil etadi.

Katoliklik va protestantlikda missionerlik bilan shug'ullanish har bir masihiyning burchi darajasiga ko'tarilgan. Shuningdek, missionerlar o'zlari faoliyat yuritmoqchi bo'lgan hudud aholisi diniy e'tiqodi, ularning ijtimoiy muammolari haqida ma'lumot olishlari uchun o'z tadqiqot markazlariga ham egalar.

Missionerlar bugungi kunda xohlagan tilda va adadda o‘z diniy adabiyotlarini chop eta olishlari mumkinligi ham ularning imkoniyatlari naqadar keng va kuchli ekanini ko‘rsatadi. Ular har bir Yurtning tub aholisi uchun, o‘sha xalqning sonidan ham ziyod tirajda kitob chiqarishlariga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Misol tariqasida keltiradigan bo‘lsak, rus tilida chop etilgan “Injil” kitobi bir chop etilishda 164 mln nus’hada nashr etilgan.

O‘zbek tilidagi missionerlikka targ‘ib qiluvchi kitobcha esa, bir chop etilishda 50 mln.dan ko‘p nus’hada nashr etilgan. Buni O‘zbekiston aholisi soniga nisbatan olib qarasak, hali tug‘ilmagan farzandlar uchun ham kitoblar nashrdan chiqarilib, tayyor holga keltirilgan deyish mumkin.

Uyma-uy yurib «Xushxabar» etkazish, ya’ni odamlar bilan kunning dolzarb muammolari haqida suhbatlashish, ularning dardlariga qiziqish bildirish va ushbu muammolardan chiqish yo‘llarini ko‘rsatib berishni taklif qilib, o‘z tashkilotlariga jalb qilish missionerlikdagi yaxshi samara beradigan usullardan biri hisoblanadi. Ushbu usuldan faol foydalayotgan “Iegovo shohidlari” oqimi a’zolari, o‘zlarini Iso Masih o‘z havoriylariga buyurgan yo‘ldan foydalanayotganlarini ta’kidlashadi.

Missionerlikda mahalliy tillarda xristianlikni targ‘ib qiluvchi adabiyotlarni chop qilish va tarqatish ham eng ko‘p qo‘llaniladigan usullardan biri hisoblanadi. Kichik hajmdagi qo‘llanmalar juda ham ta’sirchan qilib yoziladi va odamlarning e’tiborini jalb qilish uchun chiroyli suratlarga boy bo‘ladi. Ularda dinni qabul qilish ochiq-oydin taklif qilinmaydi. Ammo adabiyot oxirida qo‘shimcha ma’lumot olish

uchun tashkilot manzili yoki telefoni keltiriladiki, risolani o‘qigan va diniy bilmi sayoz bo‘lgan inson bu narsaga uchishi mumkin.

Masalan, «Iegovo shohidlari» tashkiloti tomonidan tarqatilgan kitobchalarning birida shunday yozilgan: *“Albatta, Iehovo shohidlarining butun ta’limotini ushbu kichik kitobda qamrab olishning iloji yo‘q, lekin biz sizga qo‘shimcha ma’lumotga ega bo‘lishingiz uchun turar joyingizda istiqomat qiluvchi Iehovaning shohidlariga murojaat qilishingizni taklif etamiz”*

.Yuzaki qaraganda, bunday usul yaxshi natija bermaydigandek tuyuladi. Aslidachi? Ma’lumotlarga ko‘ra, 200 dan ortiq mamlakatda To‘liq Injil xristianlariga qarashli 120 dan ortiq Bibliya jamiyatlari faoliyat yuritadi.

Ushbu oqimga kirgan yangi vakillarning yarmidan ko‘pi dinni qabul qilishlarini xristian adabiyotlari ta’siri bilan bog‘lashlari esa yuqoridagi uslubning nechog‘lik samarali ekanini ko‘rsatadi.

Adabiyotlarni olib kirish va tarqatish ko‘pincha mavjud qonunlarga zid ravishda amalga oshiriladi. Masalan, Tojikistonda protestant diniy adabiyotlarini tarqatish bilan Ukrainadan kelgan “Din so‘zi” nomli tashkilot shug‘ullanadi. Ushbu tashkilot Tojikistonda Bibliya yilini e’lon qilgani va har bir protestantga kamida bitta boshqa din vakilini Bibliya bilan tanishtirishni vazifa qilib qo‘ygani bu yo‘ldagi harakatlar aniq maqsadlarga qaratilgan holda tashkil etilayotganini ko‘rsatadi.

Xayriya yordamlari ko‘rsatish ham missionerlikdagi eng qadimiy va samarali usullardan biri hisoblanadi. Bunda turli xil ma’rifiy tadbirlar

uyushtirilib, ularga asosan yoshlar jalb etiladi. Ishtirokchilarga xristian adabiyotlarini ham o‘z ichiga olgan sovg‘alar ulashiladi, tadbir so‘ngida albatta ibodat va Bibliya o‘qish ham bo‘ladi. Zilzila, toshqin, ocharchilik kabi ofatlarning sodir bo‘lishi missionerlar uchun ayni muddao hisoblanadi. Qaerda yuqoridagidek holatlar yuz bersa o‘sha erga birinchi bo‘lib missionerlar etib borishadi. Dastlab ular o‘zlarini beg‘araz yordam ko‘rsatayotganlarini ko‘z-ko‘z qilib, asta-sekin asl maqsadlarini ko‘rsatadilar.

Aslida missionerlar hech qachon, hech kimga beg‘araz yordam ko‘rsatmaganlari va ko‘rsatmasliklarini ham unutmazlik lozim. Bunga dalil sifatida quyidagi misolni keltirishimiz mumkin. 2003 yilda Qirg‘iziston bosh vaziri bilan uchrashuv chog‘ida, AQSH ning YUTA shtati delegatsiyasi rahbari Rassel Nelson o‘z shtatidan Qirg‘izistonga insonparvarlik yordamining ko‘paytirilishi Qirg‘iziston xududida Mormon cherkovi faoliyatining nechog‘liq tez qonuniylashtirish bilan bog‘liq ekanini qayd qilgan.

Rossiya Federatsiyasining Federal Xavfsizlik Xizmati ma‘lumotlariga ko‘ra, Mormon cherkovlari rahbariyati NATOga kiruvchi mamlakatlar maxsus xizmatlari vakillaridan iboratdir. Ularning bunday tadbirlarni tez-tez o‘tkazishga urinishlari, jamiyat ongida ularning ijobiy imidji shakllanishi va o‘zaro munosabatlarning, shuningdek, mahalliy xokimiyat vakillari bilan ham yaxshilanishiga olib keladi.

Tibbiy va ta‘lim-tarbiya sohalariga maxsus kadrlarni yuborish ham eng qadimiy usullardan biridir. Hozirgi kunda bir qator missioner

jamoalar ushbu usuldan samarali foydalanishmoqda. Jumladan, ma'lumotlarga ko'ra "Ettinchi kun Adventistlari" jamoasi dunyoning turli chekkalarida 200 dan ortiq bepul shifoxonalarga ega. "Ruhiy tiklanish" missionerlik assotsiatsiyasining ma'lumot byulletenlarida bayon qilingan, mintaqaviy missioner markazlarni rivojlantirish konsepsiyasida tibbiy missiyalarning asosiy vazifasi: "Yangi cherkovlarni tuzish va evangellashtirish", deb belgilanganini qayd etish lozim.

Misol uchun, 2002 yilda Tojikistonning So'g'd viloyatiga Janubiy Koreyadan xirurglar, terapevtlar va pediater vrachlar guruhi tashrif buyurdi. 2003 yil iyulida esa xuddi shunday tashrif bilan endi CHkalovsk shahriga yana sakkizta missioner vrachlar kelishgan.

Missionerlarning yoshlar bilan ishlashda bir necha usullari mavjud: talabalar, bolalar uchun missiyalar, yozgi oromgohlar shular jumlasidandir. Hozirgi kunda "Xalqaro xristian oromgohlari" assotsiatsiyasiga MDH ning 7 mamlakatida 177 oromgoh a'zo bo'lgan. Ushbu oromgohlar dasturi shunday ishlab chiqilganki, mavsum oxiriga borib u erda dam olgan bola xristianlikni qabul qiladi.

Hozirgi kunda missionerlik tashkilotlari xristianlikni targ'ib qilishda audio, video va elektron mahsulotlar, ro'znoma va oynomalar, teledasturlar, internetda onlayn o'quv kurslari tashkil etish yo'llaridan ham faol foydalanmoqda. Jumladan, missionerlik mazmunidagi kassetalar ishlab chiqarish va tarqatish bilan shug'ullanuvchi ko'p sonli xalqaro agentliklar faoliyat yuritmoqda. Ushbu yo'nalishdagi eng yirik

tashkilot- Global Recordings bo‘lib, u 21 milliy agentlikni birlashtiradi va hozirgi kunga kelib 4562 til va lahjada mahsulot ishlab chiqarmoqda.

Yevropa va Amerika qit‘alarida missioner da‘vatchilar mashhurlilik borasida shou-biznes va kinosanoat yulduzlaridan qolishmaydi. Ma‘lum bo‘lishicha, televidenie orqali da‘vat qilishdan eng ko‘p Adventistlar va To‘liq Injil Xristianlari jamoalari foydalanishadi.

MDH hududida ham bir qator missionerlik dasturlari efirga uzatilmoqda. Jumladan, Rossiyaning “TV-3” kanali orqali butun MDH ga uzatiladigan «Kennet Kouplend missiyasi»ga qarashli “Iymonli kishining baralla ovozi” dasturi, bundan tashqari Pyatidesyatnik yo‘nalishiga tegishli “CNL”, “ICB” kabi telekanallar Injilni targ‘ib qilish bilan shug‘ullanadi.

Internet tarmog‘ida ham missioner tashkilotlar o‘z sahifalariga ega berilgan. Ushbu saytlarda missionerlarga turli maslahatlar, jumladan musulmonlarni protestantlikka o‘tkazish haqida tegishli ko‘rsatmalar va missiologiya bo‘yicha o‘quv kurslari berib boriladi.

Masalaning ana shu jihatiga e‘tibor berilsa, missionerlik harakatlari ortida diniy zaminda millatni ichidan bo‘lib tashlashga qaratilgan g‘arazli siyosiy maqsadlar yotganini va u keltirib chiqaradigan fojialarni anglab etish mumkin.

Bu, missionerlar o‘z oldilariga qo‘ygan maqsadlarga erishadigan bo‘lsalar ular faoliyat olib borayotgan mamlakatda ham xalqning parokandalikka yuz tutishi va ma‘naviy tanazzulning kelib chiqishi mumkinligi haqida xulosa chiqarish imkonini beradi.

Missionerlarning bugungi kundagi faoliyati hech bir mintaqa, hech bir davlat bunday tahdiddan holi emasligini ko'rsatadi. Bunday holatlarning oldini olish uchun esa missionerlikning mohiyatini to'g'ri va chuqurroq anglash, uni bartaraf etish yo'lida maqsadli, tizimli va tadrijiy faoliyat olib borish zarur bo'ladi.

Birinchidan, xushyor bo'lishimiz, loqaydlikka berilmasligimiz kerak bo'ladi, chunki "Vatan", "millat", "imon-e'tiqod" bu muqaddas tushunchalardir. Uni hech narsaga almashtirib bo'lmaydi.

Ikkinchidan, har bir inson biror narsa haqida to'g'ri tushunchaga ega bo'lishi darkor. Hech kimning biror narsani, hatto dinni ham noto'g'ri, yanglish va bo'yab talqin qilishga xaqqi yo'q va bo'lmasligi kerak.

Uchinchidan va eng muhimi musulmonlar uchun nima kerak va muhim va nojoiz va kerak emasligini yana bir eslatib qo'yish lozim bo'ladi.

Mamlakatimizdagi diniy bag'rikenglik muhitini yanada mustahkamlash va missionerlikning oldini olish har birimizdan ijtimoiy faollik va fidoyilikni talab qiladi.

Darhaqiqat, shunday. Respublikamizda konfessiyalararo tortuvlik va bag'rikenglik ustunvor qilmoqda. Har bir fuqaromizning missionerlikning mohiyatini chuqur anglab etishi, befarqlik va loqaydlikka yo'l qo'ymagan holda, uning oldini olish bo'yicha ishlarda faol ishtirok etish ana shu barqarorlik muhitini saqlab qolish va yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Befarqlik ijtimoiy illat sifatida og‘ir oqibatlarni keltirib chiqarishi hayotiy tajribadan ma’lum. Mashhur faylasuflardan biri befarqlik oqibatlariga to‘xtalib shunday deb yozgan edi: “Dushmanlardan qo‘rqma – nari borsa, ular seni o‘ldirishi mumkin. Do‘stlardan qo‘rqma – nari borsa, ular senga xiyonat qilishi mumkin. Befarq odamlardan qo‘rq – ular seni o‘ldirmaydi ham, sotmaydi ham, faqat ularning jim va beparvo qarab turishi tufayli er yuzida xiyonat va qotilliklar sodir bo‘laveradi”.

Har bir kishida xalqimizning ertangi kuni, jamiyatimiz istiqboli va Vatanimiz taqdiri uchun daxldorlik tuyg‘usini, o‘z bilim va malakasi, irodasi va qudratini el – yurt manfaatlari, uning birligi va taraqqiyoti yo‘lida safarbar etishda namoyon bo‘ladigan fidoyilikni tarbiyalashda hayotiy – amaliy ahamiyat kasb etadi. Yurtboshimiz so‘zlari bilan aytganda, “... har kuni, har soatda fidoyi bo‘lish, o‘zini tomchi va tomchi, zarrama – zarra buyuk maqsadlar sari charchamay, toliqmay tinimsiz safarbar etib borish, bu fazilatni doimiy, kundalik faoliyat mezoniga aylantirish” gina ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni ta’minlashimizga mustahkam zamin yaratadi.

Tahlillar hech bir mintaqa, hech bir davlat bunday tahdiddan xoli emasligini ko‘rsatadi. Bunday holatlarning oldini olish uchun esa missionerlikning mohiyatini to‘g‘ri va chuqurroq anglash, uni bartaraf etish yo‘lida maqsadli, tizimli va tadrijiy faoliyat olib borish zarur bo‘ladi. Egallangan bilimlar qanchalik xolis va chuqur bo‘lsa, uning zamirida yuzaga keladigan baholar, qadriyatlar ham shunchalik mustahkam bo‘ladi. Shakllangan qadriyatlar tizimi esa turli tahdidlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Globalashuv sharoitida mafkura poligonlarida inson qalbi va ongini zabt etishga boʻlgan harakatlar tobora kuchaymoqda. Zero, global miqyosda gʻoyaviy - mafkuraviy tahdid sifatida namoyon boʻlayotgan missionerlikning kuchayishi dunyo jamoatchiligi ongi, ruhiyati va maʼnaviyatiga jiddiy taʼsir oʻtkazmoqda. Bu haqda fikr yuritganda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev qayd etganidek: “Barchamizga yaxshi maʼlumki, hozirgi kunda dunyo shiddat bilan oʻzgarmoqda. Insoniyatning taqdiri va kelajagiga tahdid solayotgan xavf-xatarlar tobora kuchayib bormoqda”,-deya taʼkidlagani bejiz emas. Zero, bugungi kunda missionerlik zamirida taraqqiyot sari intilayotgan mamlakatlarning davlat suvereniteti, konstitusion tuzumga qilinayotgan tajovuzlarni mafkuraviy qoʻllab quvvatlash, mafkura poligonlarida olib borilayotgan kurash uchun juda katta sarmoyalarni safarbar etishayotganligi kuzatish mumkin.

Oʻzbekiston hududida missionerlik harakati qonunan taʼqiqlangan. Chunki bu harakat, asosiy aholisi musulmon boʻlgan xalqimizning parokandaligiga va yurtimizda nizolar chiqishiga sabab boʻladi. Koʻpgina ogohlantirish va maʼmuriy choralar koʻrilishiga qaramasdan, ular yurtimizda oʻzlarining missionerlik faoliyatlarini olib borishga intilishmoqda.

“Yakshanba kunlari oʻzbek tilida maʼruzalar oʻqish, qoʻshimcha “Bibliya” oʻqish darslari tashkil qilish, “xosil yigʻish kuni” deb ataladigan va har bir aʼzo cherkovga yangi odam olib kelishini ragʻbatlantirishga qaratilgan amaliyotlar” shular jumlasidandir. Missionerlar kishilarni oʻz saflariga jalb qilish uslublari, ular avvalo vaziyatni, kishilarni va ularning koʻngliga yoʻl topishni yaxshilab

o‘rganadilar. Keyin esa asta-sekin insoniy yordam, tibbiy xizmat, xayru ehsonga o‘xshash narsalardan gap ochadilar. Qo‘lidan ish keladiganlarga “sovg‘alar” uyushtiradilar. Asta-sekin u yer-bu yerdan odamlarni to‘plash boshlanadi, oddiy suhbat, choy ichish, videofilm ko‘rish, kichkinagina sovg‘a va sovg‘aga qo‘shib, suhbatdoshning ona tilidagi missionerning dini haqidagi kitob beriladi. Kitobning so‘ngida albatta, tushunmay qolganda so‘rab-surishtirish uchun telefon raqami yoki manzil ko‘rsatilgan bo‘ladi.

Yangi a‘zolarga “do‘stona maslahat”lar ham beriladi: “Yangi dinga yangi a‘zo bo‘lgan kishi ko‘proq savob topishi kerak, – buning eng oson yo‘li – oila a‘zolaringni, yaqin kishilaringni dinimizga chaqirishing”, “Agar har hafta bittadan yangi odam olib kelsang, savobning tagida qolasan. Ko‘chada yurganingda ham bekor yurma, o‘zing bilan mana bu kitobchalardan olib yur”, “Odamlar gavjum bo‘ladigan do‘kon, bekatga o‘xshash joylarga bitta-bitta tashlab qo‘y. Odamlarning ulariga – ostonasidan ichkariga tashlab qo‘ysang, yana ham yaxshi bo‘ladi”. Natija esa, ayon. O‘zimizdan chiqqan iymonfurushlar o‘z xalqini buzishga, Ona Vatanini zaiflashtirishga va unda yangi front ochishga jon-jahdi bilan harakat qiladi. Missionerlik faoliyati mafkuramiz uchun shunchaki yot unsur bo‘lib qolmay, balki ma‘naviyatimiz rivoji uchun ham katta to‘siq sanaladi. Ularning maqsadlari — o‘z safdoshlarini ko‘paytirish orqali, qabih rejalarini amalga oshirish. Bu esa o‘z o‘rnida jamiyat hayotida notinchlik, beqarorlik va parokandalikni keltirib chiqaradi. Bundan esa mana shu zaminda yashayotgan har bir fuqoro, u kim bo‘lishidan yoki qanday dinga e‘tiqod qilishidan qat’iy nazar ogoh bo‘lishi va bunga yo‘l

qo‘ymasligi lozim. Chunki buning zamirida barchamiz uchun birdek muhim bo‘lgan “tinchlik” masalasi turadi.

Yuqoridagi mulohazalar zamonaviy missionerlik geosiyosiy maqsadlarga erishish, u yoki bu mintaqaga ta’sir o‘tkazishning o‘ziga xos vositasi va nihoyat, serdaromad sohaga aylanib qolgani haqida xulosa chiqarish imkonini beradi. Jamiyat taraqqiy etib, yuksalib borgan sari missionerlik ham unga mos ravishda zamonaviy fan-texnika va texnologiyalardan ustalik bilan foydalangan holda o‘z uslub va vositalarini takomillashtirib bormoqda.

3. Kiber makonda Missionerlik va prozelitizmning ma’naviy barqarorlikka tahdidi hamda uni oldini olishning mexanizmlari.

Bugungi kunda missionerlik va prozelitizm g‘oyasi tinchlik va barqarorlik, millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglikka bevosita tahdid ko‘rsatayotgan xatarli g‘oyalardan biriga aylanmoqda. Din, e’tiqod masalasi insoniyat hayotida doimiy muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo undagi muammo shundan iboratki, din targ‘iboti ijobiy yoki salbiy maqsadlarga qaratilib, ma’lum bir dinning yoyilishi, insonlarning ongiga singdirilishida missionerlar alohida o‘rin tutishi mumkin.

Hozirgi kunda missionerlik harakati fuqarolar o‘rtasida ijtimoiy munosabatlarning keskinlashuviga olib kelib, ular o‘z tashkiliy asoslarini yaratishda asosan nashriyotlar, xayriya, tibbiy yordam ko‘rsatish va nodavlat, notijorat tashkilotlari maqomidan foydalanib, ba’zi tashkilotlar tibbiy uyushmalar niqobi ostida faoliyat yuritmoqda va odatdagidek missionerlar qarorgohi hududida cherkov, kichik butxona

yoki masjid, missioner-monaxlar yotoqxonasi joylashgan bo‘lib chiqmoqda.

Missionerlarning ko‘zlagan maqsadlari faqat siyosiy bo‘lib, bugunda demokratiyaga oid oddiy bir misol bo‘lib ko‘rinayotgan harakatlarining tagida ertangi kunga mo‘ljallangan, juda katta siyosiy nayranglar yotibdi va bu nayranglar quyidagi yovuz maqsadlarda yashiringandir.

Birinchidan, an’anaviy musulmon bo‘lib kelgan, mafkurasi, urf-odati, butun boshli ma’naviy tarixiy ildizi bir xil bo‘lgan (aslida, mamlakatimizni kuch-qudrati ham shunda!) xalqimizning yuragini parchalab zaiflashtirish va parokanda qilish hamda turli-tuman siyosiy va iqtisodiy bosimlar bilan o‘z holimizcha yashashga yo‘l qo‘ymaslik.

Ikkinchidan, yurtimizni doimiy nizo maydoniga aylantirib, uni hal qilishda o‘zlariga muhtoj qilib qo‘yish.

Uchinchidan, iloji boricha, ba’zi hududlarga alohida ahamiyat berib, u yerlarda o‘zlariga ergashganlar sonini ko‘paytirib, kelajakda go‘yo ularning xohish-irodasi va kayfiyatlari sifatida bo‘linish (separatistik) g‘alayonlarni chiqarish va oqibatda mamlakatni parchalab tashlash.

To‘rtinchidan, “Inson huquqlarini himoya qilish”, “Vijdon erkinligini ta’minlash” kabi sirtdan chiroyli shiorlar niqobi ostida oddiy sud-prokuratura organlaridan tortib to davlat rahbari ishlarigacha aralashish va mustaqil davlat boshqaruviga yo‘l qo‘ymaslik.

Beshinchidan, jamiyatni doimiy bezovta qilib turish orqali boshqaruvda asabiy bir vaziyatni vujudga keltirish; turli-tuman matbuot organlari va nodavlat tashkilotlar vositasida tashviqot yuritib, o'zlarini go'yo xalqning himoyachisi qilib ko'rsatish va xalq "dardi"ni aytib, davlatga qarshi gij-gijlash, davlatni esa bu qutqularni bostirish uchun keskin choralar ko'rishga majburlash va mana shu yo'l bilan xalq va davlat orasiga o'zaro ishonchsizlik ruhini singdirish.

Muammo nafaqat diniy, balki siyosiy kuchsizlantirishga qaratilganligi bilan xavfli va tashvishlidir. Chunki natija bevosita mamlakat xavfsizligiga daxldor bo'lib, ularning qilmishlari shu nuqtai nazardan baholanishi va chora-tadbirlar ham shunga ko'ra belgilanishi lozim. Aks holda, biz kelajak avlod uchun kuchli, ozod va obod Vatanni emas, balki xalqining ruhi-dili bir-biriga begona va shu bois qator muammolar girdobiga g'arq bo'lib, parokandalik, ma'naviy ziddiyatlar avj olgan, zaif va qaram bir o'lkani taqdim etishimiz ehtimoldan xoli emas!

Missionerlik va prozelitizm globallasuv jarayonida ma'naviy-mafkuraviy tahdid vositasi bo'lib, avvalo, jahondagi muayyan kuchlarning geopolitik maqsad va manfaatlariga yo'naltirilgan holda olib borilmoqda.

Ikkinchi tomondan, xalqning milliy ma'naviyati, urf-odat va an'analari, milliy mentaliteti diniy ta'limot sifatida shakllangan bo'lib, missionerlik va prozelitizm xalqning milliy o'zligidan begonalashuviga, manqurtlashuviga, davlatning ichki hayotida milliy, diniy, ijtimoiy ziddiyatlarning chuqurlashuviga sababchi bo'ladi.

Shuning uchun ham bugungi kunda O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati qurish jarayonlarida milliy istiqlol mafkurasining asosiy g‘oyalari fuqarolar ongi – tafakkuriga singdirishga, ularda mafkuraviy immunitetni shakllantirishga muhim e‘tibor berilmoqda.

Xususan, bugungi kunda yoshlarimiz ongi va qalbiga buyuk ma‘naviyatimizni singdirish orqali sog‘lom dunyoqarashni shakllantirish orqali chetdan juda katta ma‘naviy xuruj sifatida namoyon bo‘layotgan missionerlik ta‘siriga ham qarshi tura oladigan barkamol insonlar sifatida kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Binobarin, bugungi kunda globallashuvning shiddatli tus olishi dunyoda keskin g‘oyaviy kurashlar, turli mafkuralar to‘qnashuvlari jarayonida demokratiya yoki turli diniy ta‘limotlar shiorlarini o‘zida namoyon etuvchi yovuz g‘oyalarni singdirishga bo‘lgan intilish tobora kuchayib bormoqda.

Zero, missionerlik tarafdorlari tomonidan ilgari surilayotgan demokratiya niqobidagi balandparvoz targ‘ibot va tashviqotlar bizning milliy mentalitetimizga mutlaqo to‘g‘ri kelmasligini bemalol aytishga to‘la haqlimiz.

Missionerlik tarafdorlarining asosiy maqsadi yoshlarimizni milliy zamindan, azaliy qadriyat – ma‘naviyatimizdan judo qilish orqali manqurtga aylantirish kabi illatlarini maqsad qilayotganligi tashvishlidir. Shuni e‘tiborga olgan holda xalqimiz, millatimizni turli soxta va zararli g‘oyalar ta‘siridan asrashda eng avallo, o‘z qadriyatlarimizni e‘zozlash orqali belgilangan maqsad va vazifalarimizga eri shamiz. Yuqorida bildirib o‘tgan fikrlardan xulosa qilib aytsak, missionerlikning

taqiqlanishi ham siyosiy, ham ma'naviy, ham ijtimoiy sabab hamda omillarga asoslangan bo'lib, maqsadimiz yurtimizda hukm surayotgan barqarorlik, tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash orqali Yurtimiz mustaqilligini mustahkamlashdir.

O'z navbatida, missionerlik tahdidini bartaraf etishda eng avvalo, hukumatimiz tomonidan missionerlikka oid ilmiy-ma'rifiy manbalar hamda muammoning amaliyotdagi holatini o'rganish orqali ilmiy tajribalar asosida aholining keng qatlamlari ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarini shakllantirishning nazariy-amaliy asoslarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Missionerlik tahdidlaridan doimo ogoh bo'lish, mazkur harhkatlarni o'z vaqtida anglash va ularni bartaraf etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Bunday keng ko'lamli o'ta muhim masalalarni hal qilishda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan olib borilayotgan tajribalari asosida missionerlik harakatini bartaraf etishda, avvalo, oila, ta'lim sohasi va jamoat tashkilotlarining ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarini shakllantirish mamlakatimizda jamiyatimizning barcha qatlamlarini missionerlik tahdidiga qarshi g'oyaviy-mafkuraviy qurollantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda jahonda keng quloq yozgan va inson ma'naviyatini buzishga qaratilgan tahdid bu Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "ommaviy madaniyat" ko'rinishida kirib kelayotgan turli tahdidlar, giyohvandlik, diniy ekstremizm, missionerlik kabi balo-qazolardan yoshlarimizni asrash, ularning ta'lim-tarbiyasiga har birimiz mas'ul ekanimizni hech qachon

unutmasligimiz kerak” (Mirziyoyev, 2017). Zero, yosh mamlakatimizda missionerlik tahdidlarining oldini olish, uni bartaraf etish orqali tinchlik, osoyishtalik, barqarorlik, totuvlik, millatlararo hamjihatlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etishini har bir vatandoshimiz anglashi lozim.

Mavzu bo‘yicha savollar

1. Kibermakon deganda nima nazarda tutiladi?
2. Kibermakonda missionerlik qanday namoyon bo‘ladi?
3. Missionerlik deganda nima tushuniladi?
4. Prozelitizm missionerlikdan qanday farq qiladi?
5. Missionerlik tahdidini bartaraf etishda ma'naviyat va mafkura qanday ahamiyatga ega?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muratov D., Alimova M., Karimov J. Dinshunoslik, darslik. – Toshkent, «Navro‘z» nashriyoti, 2019. – 264 b.
2. Raximdjanov D., Ernazarov O. Dinshunoslikka kirish. O‘quv qo‘llanma. – T.: «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. – 304 b.
3. Isoqjonov R. Qiyosiy dinshunoslik. O‘quv qo‘llanma. – T.: OOO «Complex print», 2020. – 198 b.
4. Kamilov D. Dinshunoslik. O‘quv qo‘llanma. – T.: Lesson Press, 2021. – 128 b.
5. Shermuxamedova N.A. Diniy fanatizm fenomeni//Inson falsafasi. – T.: Noshir, 2016. B.314-499.

Kiber makonda din. Missionerlik va prozelitizmning ijtimoiy-siyosiy xavfi mavzusi yuzasidan test topshiriqlari

1. Missionerlik deganda nima tushuniladi?

A) Faqat kitob tarqatish

B) Boshqa dinni qabul qildirish harakati

C) Sport musobaqalari

D) O‘zbek tilini o‘rgatish

2. Missionerlik O‘zbekistonda qonun bilan taqiqlanganmi?

A) Ha, taqiqlangan

B) Yo‘q, erkin

C) Faqat yoshlarga ruxsat

D) Faqat xorijliklarga ruxsat

3 Missionerlikning asosiy maqsadi nima deb hisoblanadi?

A) Odamlarning sog‘lig‘ini yaxshilash

B) Xalqni parokanda qilish va siyosiy zaiflashtirish

C) O‘zbekiston iqtisodini yaxshilash

D) Sportni rivojlantirish

4. Kibermakonda missionerlik qanday tarqaladi?

A) Faqat kitoblar orqali

B) Ijtimoiy tarmoqlar, internet orqali

C) Faqat radio orqali

D) Hech qanday tarqalmaydi

5. Missionerlik xalqning milliy ma’naviyatiga qanday ta’sir qiladi?

A) Yaxshilaydi

B) Begonalashtiradi va manqurtlashtiradi

C) Hech qanday ta’sir qilmaydi

D) Faqat tilni o‘zgartiradi

6. Missionerlik tarafdorlari qanday shiorlardan foydalanadi?

- A) “Urush qilaylik”
- B) “Inson huquqlari”, “Vijdon erkinligi”
- C) “Sportni rivojlantiramiz”
- D) “Hech narsa demaymiz”

7. O‘zbekistonda missionerlikka qarshi asosiy choralar nimalardan iborat?

- A) Faqat urush
- B) Ma’rifiy ishlar, qonunlar, mafkuraviy tarbiya
- C) Faqat televizor ko‘rsatish
- D) Hech qanday chora yo‘q

8. Kibermakonam tahdidlariga qarshi nima qilish kerak?

- A) Internetdan umuman foydalanmaslik
- B) Ogohlik va ma’rifiy tarbiya
- C) Faqat o‘yin o‘ynash
- D) Hech narsa qilmaslik

9. Missionerlik tahdidini bartaraf etishning asosiy maqsadi nima?

- A) Pul topish
- B) Tinchlik, barqarorlik va mustaqillikni saqlash
- C) Faqat yoshlarni o‘ynatish
- D) Hech qanday maqsad yo‘q

10. Missionerlik va kibermakonam tahdidlaridan asrash uchun nima muhim?

- A) Faqat uyda o‘tirish
- B) O‘z qadriyatlarimizni e‘zozlash va ogoh bo‘lish
- C) Hech narsa qilmaslik
- D) Faqat televizor ko‘rish

3-MAVZU. DINIY FANATIZM, EKSTREMIZM, FUNDAMENTALIZM, TERRORIZMNING TARIXI VA ULARNING HOZIRGI DAVRDA XAVFSIZLIKGA TAHDIDI

Darsning maqsadi: ekstremizm, aqidaparsatlik, mutaassiblikning mohiyatini tushuntirish, terror va unga olib boradigan yo‘llarni ko‘rsatish, din niqobida faoliyat yuritadigan ekstremistik guruhlar hamda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari borasida ma’lumotlar berish.

REJA:

1. Diniy fanatizm, ekstremizm, fundamentalizmning tarixi va rivojlanish bosqichlari. Terrorizmning mohiyati va uning shakllari. Din niqobidagi terrorizm amaliyotining oqibatlari.
2. Markaziy Osiyo mintaqasida faoliyati kuzutilgan diniy ekstremistik harakatlarning maqsadlari.
3. Xalqaro diniy terroristik guruhlar – al-Qoida, Ixvanul muslimin, ISHID, Boko xaram, tolibonlar tashkilotlarining xavfsizlikga tahdidi.
4. O‘zbekistonda sodir etilgan terroristik harakatlar va ularning barqaror taraqqiyotga ta’siri.
5. O‘zbekistonda radikal oqimlarga qarshi kurashning yo‘nalishlari va huquqiy asoslari.

Tayanch tushunchalar: *ekstremizm, diniy ekstremizm, fundamentalizm, mutaassiblik, aqidaparastlik, terror, terrorizm, xalqaro terrorizm, firqalar, xorijiylar, soxta salafiylar.*

1. Diniy fanatizm, ekstremizm, fundamentalizmning tarixi va rivojlanish bosqichlari. Terrorizmning mohiyati va uning shakllari.

Din niqobidagi terrorizm amaliyotining oqibatlari.

Bugungi globalashuv sharoitida yoshlarni yot g'oyalardan asrash, ularda mafkuraviy sog'lom immunitetni ta'minlash, diniy fanatizm, ekstremizm kabi ma'naviy tahdidlarni bartaraf etish bugungi kun uchun dolzarb masalaga aylangan. Ma'lumki biror bir illatni oldini olish uchun avvalo uni keltirib chiqaruvchi omillar va sabablarni anglash zarur.

Diniy fanatizm (lot. Fanaticus "g'azablangan") — diniy g'oyalarga ko'r-ko'rona sodiqlik va amaliy hayotda ularga rioya qilish istagining juda katta ahamiyatga ega ekanligi. Diniy fanatizm asosan diniy mazhablarda yaqqol namoyon bo'ladi. Bu diniy faoliyatga, undagi turli marosimlar va ibodatga mutaassiblik bilan kirishish va o'z xayrixoh guruhlari ichida birlashib ketishdir.

Diniy fanatizm odatda diniy tamoyillar nomi bilan qurbonlikni muqaddasligiga asoslanadi. Uning psixologik asosi — e'tiqoddur. Diniy mutaassib shaxsning emotsional kechinmalari uning ratsional fikrlash qobiliyatidan ustunligi bilan tasniflanadi. Ya'ni diniy aqidaparast shaxs voqea-hodisalarni kognitiv bilish orqali emas balki emotsional kechinmalar ta'sirida tahlil etadi va yondashadi. Diniy aqidaparastlikning asosiy turlari orasida passiv-fikrlovchi va aktiv-ekstremistik turlari ajralib turadi.

Aqidaparastlik tushunchasini ilk bor fransuz voizi va ilohiyotchisi Jak-Benin Bossyue (1627–1704) tomonidan qo'llanilgan bo'lib, u o'z davrida katolik dinini monarxiya hokimiyati ustuvorlik qiluvchi

Fransiya uchun rasmiy qarashlar tizimi sifatida ko'rgan fransuz absolyutizmining asosiy mafkurachilaridan biri edi. Bossyue aqidaparast tushunchasini o'sha davr o'z diniy e'tiqodlarini cherkov munosabatlari va qoidalariga emas, balki faqat xudogagina bog'liqligiga ishongan protestantlarga nisbatan qo'llagan. Bossyue dinning asosini axloq va intizomda deb bilgan. Xristianlik u uchun axloq normalarining namunasi edi, lekin u har qanday ilohiy his-tuyg'ular va mistik hodisalarni "ruhiy vabo" (la peste spirituelle) sifatida qabul qilgan. Shu ko'rinishdagi diniy e'tiqod vakillarini uning nazdida diniy aqidaparast va bid'atchi deya hisoblagan. Bossyue diniy murosasizlik targ'ibotchisi edi. U Lyudovik XIV 1685-yili Genrix IV tomonidan protestantlar va katoliklar uchun tenglikni joriy etish uchun 1598-yili qabul qilingan Nantes farmonini bekor qilishga undagan. 1764-yili Jenevada "Falsafiy lug'at" nashr etildi, unda fransuz faylasufi, ma'rifatchi, tarixchi va shoiri Volter (1694–1778)ning "fanatizim" so'ziga bergan izohi chop etildi. Volterning ta'kidlashicha aqidaparast shaxs — "O'z nodonligini kuch orqali himoya qiluvchilar"dir. Ular o'z g'oyasini himoya qilar ekan, unga qarshi bo'lgan barcha insonlarga nisbatan kuch ishlatish va qatl qilishga tayyordir. Bunga misol sifatida Volter tarixiy Varfolamey kechasini misol qilib keltiradi.

"Aqidaparastlar — bu o'zlarining g'oyalaridan o'zgacha fikrlovchilarga o'lim hukmini o'quvchi sudiyalardir" — deya e'tirof etgan edi Volter. Diniy aqidaparastlik psixologiyasi to'g'risida to'xtalar ekan, Volter — bu shunchaki "johillik mevasi" yoki Beyl ta'kidlaganidek "ibtidoiy jon" emas, balki olamon psixologiyasi bilan chambarchas bog'liq holatdir deya ta'kidlaydi. Fanatiziya har doim

qabihlik va shafqatsizlik xususiyatiga egadir. U ayni vaqtda xurofot, g'azab va johillik kabi illatlarning asoschisi hisoblanadi deb alohida e'tirof etadi Volter. Shu o'rinda alohida ta'kidlash zarurki, diniy fanatizimni yuzaga kelishining nafaqat ijtimoiy balki psixologik ildizlari ham mavjud.

Diniy aqidaparastlik tushunchasi haqida so'z borar ekan, e'tiborni xarakter aktsentuatsiyasi tushunchasiga qaratish zarurdir. Ma'lumki, shaxsdagi xarakter aktsentuatsiyasi — shaxsdagi bir xarakter xususiyati boshqalariga ko'ra bo'rktiribroq namoyon bo'lishi va muayyan shaxsning o'ziga xos xususiyati sifatida gavdalanadi.

Xarakter aktsentuatsiyasi — norma va patologiya o'rtasidagi oraliq bosqich sifatida qaralib, uning patologik bosqichiga qadar namoyon bo'lishi psixopatiyaga aylanish xavfini tug'diradi. Xarakterning aktsentuatsiyalashganligi turli ijtimoiy-psixologik og'ishlarni yuzaga kelishiga zamin yaratishi mumkin. Shaxsdagi turli fanatik holatlarni va hatto diniy fanatizimning ham kelib chiqishda xarakter aktsentuatsiyasining ahamiyati katta bo'lishi mumkin. Quyida bu kabi holatlarga ta'sir etuvchi turli aktsentuatsiya tiplarini keltirib o'tamiz: demonstrativ (namoyishkorona) tip. Ushbu turdagi xarakter aktsentuatsiyasi egasi doimo diqqat markazida bo'lishga intiladi, uning barcha faoliyati aynan shu masalaga yo'naltirilgan holda kechadi. Bu turdagi xarakter anomaliyasi asosida o'z dinini va e'tiqodini barchaga ko'z-ko'z qilish orqali har qanday yo'l bilan o'zining dindorligini barchaga e'lon qilishga intiladi. Aslida esa dinning asosiy talablariga subyektiv tarzda e'tiqod qilmaydigan aqidaparast shaxs shakllanadi.

Distim shizioid tip. Bu turga mansub shaxslar emotsiyalari sust ifodalangan va introvert tipdagi bo'lib, ko'p holatlarda salbiy kayfiyatda bo'ladilar. Bu xildagi xarakter asosida diniy qarashlariga mukkasidan ketgan va atrofdagi insonlarga va voqelikga nisbatan befarq shaxs shakllanadi. Shuningdek, bunday shaxslar o'z xatti-harakatlarining boshqa insonlarga nisbatan ko'rsatishi mumkin bo'lgan ta'siriga befarq qaraydilar.

Epileptoid— qo'zg'aluvchan . Bu kabi xarakter aktsentuatsiyasiga mansub shaxslarda shafqatsizlik, tajovuzkorlik va reaktivlik xususiyatlari ajralib turadi. Qo'zg'aluvchan odamlarning reaksiyalari impulsiv bo'lib, ular biror narsani xushlamasalar masalaga kelishuv asosida yondashmaydi aksincha bag'rikenglik ular uchun begona. Aksincha yuz ifodalari va so'zlari bilan salbiy emotsiyalariga erk berishni va o'z talablarini ochiqcha e'lon qilishga moyildir.

Qotib qolgan tip Bu kabi xarakter xususiyatidagi shaxslarda adolatga intilish va qasos olishga moyillik yorqin ifodalangan bo'lib, bu xarakter aktsentuatsiyasiga ega bo'lgan shaxslarda diniy aqidaparastlikning yuzaga kelishi boshqa turlaridan ko'ra xavfli hisoblanadi. Bu kabi insonlardan jamiyat uchun turli tahdidlarni keltirib chiqarishi mumkin. Rus diniy va siyosiy faylasufi Nikolay Aleksandrovich Berdyaev (1874–1948) o'zining 1937-yili “Russkie zapiski” jurnalida chop qilingan “Aqidaparastlik, ortodoksiya va haqiqat haqida” nomli maqolasida diniy aqidaparastlikka tanqidiy fikrlarini bildirib o'tadi. U “aqidaparastilik” so'ziga sinonim sifatida “murosasizlik” nisbiy ma'noda rashkchi ma'nosini keltiradi. Uning

fikricha aqidaparast shaxs xuddi rashkchi bir insondek barcha yerda xiyonat va sotqinlikni ko'radi.

Bunday shaxslar o'ta shubha va gumonlarga beriluvchan bo'lib, go'yoki hamma yerda uning e'tiqodiga nisbatan fitna uyushtirilayotgandek tuyuladi. Berdyaev diniy aqidaparastlikning ziddiyatli xususiyatlariga ishora qilib quyidagi fikrlarni keltirib o'tadi: "Aqidaparast shaxs doimo o'zining qandaydir taqib ostida deb his qiladi, atrofda uni shaytonning turli xiyla-yu nayranglari qamrab olganday his qiladi. O'zini doimo turli dushmanlarining taqib osti deb his qiluvchi inson — o'ta xavfli mavjudotdir, xavfda yashovchi inson o'zi ham aslida taqib qiluvchiga aylanadi".

Berdyaevning fikricha aqidaparast insonlar shaytonga ilohning mavjudligidan ko'ra ko'proq e'tiqod qiladilar. Aqidaparast insonlar o'z ichki qo'rquvini yengish uchun zo'ravonlik qiladi, bu ularning ojizliklarining yaqqol na'munasi. Uning e'tiqodi salbiy tusga ega, chunki aqidaparastlikning asli xam e'tiqodning ojizligining yaqqol dalilidir.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, aqidaparastlikni keltirib chiqaruvchi birlamchi omil ilmsizlikdir, ya'ni shaxs ma'nan kuchli e'tiqodga ega bo'lishi mumkin, lekin uning e'tiqodi zaruriy bilim va ko'nikmalar bilan boyitilmagan bo'lsa, unda dinning asl mohiyatini tushunish, uni ijtimoiy hayotga tatbiq etishda ko'r-ko'ronalik va fundamentalizm kabi yondashuvlarga berilish ustunlik qilishi mumkin.

E'tibor qiladigan bo'lsak, aslida barcha dinlar insoniyatni komillikka, yaratuvchanlik va buyuk qadriyatlarga chorlaydi. Agar

shaxsga nazar solsak undagi tug'ma instinktlar uning biologik jihatidan himoyalovchi bo'lib xizmat qilsa, din insoniyatni ma'naviy olamini himoya mexanizmi hisoblanadi.

Ekstremizm, aqidaparastlik va mutaassiblikning mazmun-mohiyati. Diniy ekstremizm va terrorizm kabi hodisalarning ildizlari uzoq tarixga borib taqalsa-da, ular hech qachon ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyot uchun bugungidek tahdid solmagan. Zero, hozirda diniy ekstremizm va terrorizm global xarakterga ega bo'lib, dunyoning barcha mamlakatlari hamda mintaqalariga birdek xavf solmoqda. Shunday ekan, uning oldini olish va unga qarshi kurashish insoniyatning istiqboliga daxldor masalaga aylandi.

Ekstremizm (lotincha – «aql bovar qilmas darajada», «haddan oshish») jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidalarga zid radikal qarashlar va harakatlarni anglatadi. Ularga diniy tus berish esa, diniy ekstremizmga olib keladi.

Diniy ekstremizm – jamiyat uchun an'anaviy bo'lgan diniy qadriyatlar va aqidalarni rad etish, ularga zid g'oyalarni aldov va zo'rlik bilan targ'ib qilishga asoslangan nazariya va amaliyotni anglatadi.

Ekstremistik qarashlarni barcha dinlarda, buddaviylik, xristianlik, islomdagi turli oqimlarda uchratish mumkin. Masalan, mutaxassislar katolik cherkovining erkin fikr yurituvchi, hukmron feodal-katolik cherkovi aqidalarini rad etuvchi kishilar – papa hokimiyati dushmanlarini ta'qib qilish uchun XIII asrda tuzilgan va minglab odamlarning qurbon bo'lishiga olib kelgan inkvizitsiya faoliyatini ham ekstremizmning o'ziga xos ko'rinishi sifatida baholaydilar. Ammo

hozirda islom dini niqobi ostidagi diniy-siyosiy harakatlar a'zolari tomonidan turli jinoyatlar sodir etilayotgani jamiyat xavfsizligiga jiddiy tahdid solmoqda.

Fundamentalizm – (lotincha – «asos») tushunchasining ma'nosi muayyan ijtimoiy hodisaning dastlabki ko'rinishini anglatadi.

Diniy fundamentalizm – «ma'lum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish va bu yo'l bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin», degan fikrni ilgari surish ta'limotini anglatadi. Istilohda aqidaning o'zgarmasligini himoya qiladigan, muayyan diniy e'tiqod shakllanishining boshlang'ich davrida belgilangan barcha yo'l-yo'riqlarni qat'iy va og'ishmay bajarilishini talab qiladigan diniy oqimlarni ifodalashda qo'llaniladi.

«Fundamentalizm» atamasi aslida xristian dini bilan bog'liqdir. Fundamentalizm iborasi birinchi bor I-jahon urushi arafasida vujudga kelgan protestantlikdagi ortodoksal oqimlarni ifodalash uchun ishlatilgan. Bu oqim 1910 -yildan keyin shu nom bilan atala boshlagan. Fundamentalistlar xristianlikning an'anaviy aqidalariga, ayniqsa Bibliyaning mutlaqo mukammalligiga ishonishni mustahkamlash, uni so'zma-so'z sharhlashga qat'iy rioya qilishni talab qildilar. Bu oqim keyinchalik Amerikada keng tarqalib ketdi. 1919 -yili Filadelfiyada Jahon xristian fundamentalistlari assotsiatsiyasiga asos solindi.

XX asrning 70-yillaridan boshlab, bu so'z islomga nisbatan qo'llanila boshladi. Bunda «fundamentalizm» atamasi – Qur'on va hadislarni so'zma-so'z talqin etuvchi, ilk islomga qaytishga qaratilgan aqidalarni targ'ib qiluvchi diniy-konservativ ruhdagi yo'nalishga

nisbatan ishlatildi. Buning natijasida jahon matbuotlarida islom niqobidagi mutaassib jangarilarni «fundamentalistlar» deb atash ham odat tusiga kirdi.

Din va diniy e'tiqod asli turli ijtimoiy-psixologik muommolarni keltirib chiqishi emas, balki ularni oldini olish uchun mavjud normalar yig'indisi sifatida jamiyatda rol o'ynashi zarur. Shundagina biz uchun yot bo'lgan turli aqidaviy buzulishlar va ma'naviy og'ishlar o'rmini yaratuvchanlik, komillik kabi buyuk insoniy qadriyatlar egallashi mumkin.

Diniy ekstremizmning tarixiy ildizlari va oqimlari. Terrorizm – jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish, aholi keng qatlamlarida vahima va qo'rquv uyg'otishga qaratilgan siyosiy kurashning o'ziga xos usulidir. U yashirin (konspirativ) ruhdagi tashkilotlar tomonidan beqarorlik keltirib chiqarish orqali hokimiyatni egallash maqsadida amalga oshiriladi. Terrorchi guruhlar jamiyatda aholining keng qatlami nomidan harakat qilayotgandek taassurot uyg'otish maqsadida diniy shiorlardan niqob sifatida foydalanadilar.

Diniy ekstremizm – jamiyat uchun an'anaviy bo'lgan diniy qadriyatlar va aqidalarni rad etish, ularga zid bo'lgan g'oyalarni aldov va zo'rlik bilan targ'ib qilishga asoslangan nazariya va amaliyotni anglatadi.

Ekstremizm va terrorizm bir-biri bilan bog'liq bo'lgan yagona jarayonning birin-ketin rivojlanadigan bosqichlaridir.

Diniy-ekstremizm kelib chiqishining birinchi va asosiysi sababi mutaassib fikr va qarashlarning paydo bo'lishidir. Mutaassiblik

muayyan g'oyalarning to'g'ri ekaniga qattiq ishonish, ularga mukkasidan ketish, “o'zgalar” va “o'zgacha” qarash va g'oyalarga murosasiz munosabatda bo'lish, boshqa firqa va mazhablarni butunlay rad etgan holda, ularni tan olmaslikda namoyon bo'ladi. Mutaassiblik barcha davrlarda turli din va yo'nalishlar orasida keskin nizo va to'qnashuvlar kelib chiqishiga sabab bo'lgan.

Ayni paytda, dunyoviy va diniy bilimlarning sayozligi, sof diniy tushunchalarning asl mazmunini bilmaslik ham diniy ekstremistik g'oyalarning tarqalishiga sabab bo'lishi mumkin.

Yuqorida qayd etilganidek, diniy ekstremistik tashkilotlarning aksariyati o'z nomini muqaddas islom dini bilan bog'lashga urinadi. Ular o'zlarini “najot topgan guruh”, qolgan musulmonlarni esa kofir deb hisoblaydilar.

“Islom” so'zining lug'aviy ma'nolaridan biri “tinchlik” bo'lib, u hech qachon buzg'unchilikka, qotillikka undamagan va undamaydi ham. Zamonaviy terrorchilar esa buzg'unchilik va qotillik, odamlarni dahshatga solishni o'zlarining maslaklariga aylantirib olganlar.

Terrorizmning eng asosiy xususiyatlaridan biri ushbu harakat tarafdorlarining “Kuch ishlatish va zo'ravonlik davlatni qulatuvchi va hokimiyatga erishishni osonlashtiruvchi parokandalikka olib keladi”, degan g'oyaga asoslanib harakat qilishlaridir.

Terrorizmning yana bir xususiyati hech qanday urush bo'lmayotgan, demokratik institutlar faoliyat ko'rsatayotgan, tinchlik hukmron jamiyat sharoitida muqobil usullarni atayin inkor etgan holda, siyosiy masalalarni zo'rlik yo'li bilan hal qilishga intilishda ko'rinadi.

Terrorizm (lotincha “qo’rqitish”, “vahimaga solish”) – aholining keng qatlamlarida vahima va qo’rquv uyg’otish, jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish orqali davlat hokimiyatini egallash maqsadiga qaratilgan jinoiy faoliyatdir. Hozirgi davrda u global miqyos kasb etib, xalqaro terrorizm shaklini oldi. Bunday shaklda u xalqaro ijtimoiy-siyosiy aks-sado beradigan qo’poruvchilik sifatida namoyon bo’lmoqda.

Terror – ommaviy va siyosiy maqsadlarga erishish uchun zo’ravonlikdan hamda zo’ravonlik qilish bilan tahdid solishdan muntazam foydalanishdir. Shunday qilib, «terror» dushmanni jismoniy zo’ravonlik yo’li bilan qo’rqitish, hatto uni jismonan yo’q qilishni anglatadi. «Terrorizm» esa terror amaliyotidir. Bu ikki tushunchani shu tarzda chegaralash maqbul bo’lsa, u holda terrordan kelib chiqqan terrorizm aslo yangi hodisa bo’lmay, bugungi kungacha asrlar qo’ynidan yetib kelgan, deb hisoblash mumkin.

Qur’oni karimda begunoh odamlarning joniga qasd qilish qoralanadi. Jumladan, “Niso” surasining 93-oyatida bunday marhamat qilinadi: “Kimda-kim qasddan bir mo’minni o’ldirsa, uning jazosi jahannamda abadiy qolishdir. Yana unga Alloh g’azab qilgay, la’natlagay va unga ulkan azobni tayyorlab qo’ygay”.

Hadislarda ham bu borada ko’plab xabarlar kelgan. Jumladan, Imom Termiziy rivoyat qilgan hadisda bunday deyiladi: “Rasululloh (s.a.v.): “Alloh taoloning nazdida bir musulmon kishining nohaq qatl etilishidan ko’ra, yorug’ dunyoning barbod bo’lib ketishi yengilroqdir”, dedilar”.

Hozirda dunyoda ko'plab ekstremistik va terrorchi tashkilotlar mavjud bo'lib, afsuski, ularning muayyan qismi islom dini niqobi ostida faoliyat yuritadi. Ular qatorida “Al-Qoida”, “Hizbut-tahrir al-islomiy” (Ozodlik islomiy partiyasi), “Al-Jihod”, “At-Takfir val-hijra” (Takfir va xijrat), “Turkiston islom harakati”, “Islomiy jihod ittihodi” (Islomiy jihod uyushmasi), “Katibatul Imam al-Buxari” (Imom Buxoriy bataloni), “Jamoat Anzorulloh” (Allohning yordamchilari jamoasi), “Jabhatunnusra” (G'alaba fronti) va “Islom davlati” kabi tashkilotlarni sanash **mumkin.**

Darhaqiqat, hozirgi kunga kelib diniy-ekstremistik tashkilotlar keng tarmoqli tizimga aylanib ulgurdi. Bu chuqur o'ylangan strategiyaning bir qismidir.

Avvalo, barcha ekstremistik tashkilotlar bir tadqiqot markazi, ta'bir joiz bo'lsa, “g'oyaviy laboratoriya”lar mahsuli ekanini alohida qayd etishimiz lozim. Shu o'rinda, diniy-ekstremistik oqimlarni bajaradigan funktsiyalariga ko'ra shartli ravishda 3 guruhga bo'lishimiz mumkin. Birinchi guruhga kiruvchi tashkilotlarning asosiy vazifasi odamlarni go'yoki “islomlashtirish”, “taqvoga chaqirish”dan iborat. Bunday guruhlar qatoriga “Tablig'chilar” harakatini kiritish mumkin. Ikkinchi guruh tashkilotlari esa aholiga mutaassiblik g'oyalari singdirish, ulardan muayyan g'oya va rahnamoga og'ishmay, so'zsiz ergashadigan “kadr”larni tayyorlash bilan shug'ullanadi. Bunday guruhlar qatoriga “Hizbut-tahrir” kabi diniy-ekstremistik tashkilotlarni kiritish mumkin. Uchinchi guruhga mansub harakatlar esa hech qanday asossiz musulmon diyorlarni “kufr diyori” deb e'lon qilib, u yerdagilarni “hijrat” qilishga undash orqali turli nizo va fitna o'choqlariga jalb qilish, qo'lga qurol

olib tinch aholi vakillari va boshqa din vakillarini qirish orqali mintaqada urush olovini yoqish, jihod tushunchasini noto'g'ri talqin qilish orqali yoshlarni qotilliklar qilishga chorlash bilan shug'ullanadilar. Bu guruhga barcha terrorchi tashkilotlarni kiritishimiz mumkin.

Terrorizm va diniy terrorizm tushunchasi, shakllari, sabablari va ularga qarshi kurash mexanizmlari. Terrorizm bu insoniyatning ashaddiy dushmani. Xalqaro tinchlik va osoyishtalikka tahdid solayotgan hozirgi davrning o'ta salbiy ijtimoiy hodisasi. Aniqroq qilib aytganda terrorizm – millati, dini va ma'lum hududi yo'q ofat, XXI asrning dahshatli vabosi. U bugun vujudga kelmagan, qadim-qadimdan mavjud.

Terrorizm so'zi lotincha – terrore so'zidan olingan bo'lib dahshat , vahima, falokat ma'nosini anglatadi. Terrorizm qadim va o'rta asrlar davrida boylik orttirish uchun kurashgan bir guruh qaroqchi, banditlar harakati ko'rinishida bo'lgan. XIX asr o'rtalaridan bu harakat «o'ta inqilobiy harakat», fitnachilar, qo'poruvchilar harakati shaklini oldi.

Masalan Rossiyada narodniklar chiqishi va boshqa XX asr o'rtalaridan boshlab terrorizm keng siyosiy tus oldi, ko'p mamlakatlarga yoyildi, xalqaro xarakter shaklini oldi. Insoniyatga behisob fojealar keltirdi. U qaysi mamlakatda sodir bo'lmasin surbetlarcha oddiy xalq va din nomidan ish ko'radi. o'zini go'yo xalq manfaatini va dinning sofligini ko'zlovchilar sifatida ko'rsata boshladi.

Masalan G'arbiy Germaniyada «Qizil armiya», Italiyada «Qizil brigada», Ispaniyada basklar tashkiloti, Olgsterda (Angliya)«Inqilobiy xaloskorlar armiyasi», Peruda «Porloq hayot», Afg'onistonda «Hisb-ut-

tahrir», «Al-Qoida», «Islom lashkarlari» va boshqa nomlar bilan yuritildi. Xalqaro terrorizmning eng ishonchli tayanchi Afg'oniston, Chechiniston, Janubiy Tojikiston bo'lib qoldi.

Shunday ekan, ekstremizm yoki fundamentalizmni faqat muayyan din bilan bog'lash mutlaqo asossiz. Xususan, islom dini, u bilan bog'liq turmush tarzi va qadriyatlar majmui hech qachon ekstremistik tuzilmalarning go'yo din va musulmon jamoasi ravnaqi yo'lida amalga oshirayotgan terrorchilik xurujlarining asosiy sababi sifatida qaralishi mumkin emas.

Islom shiorlaridan tanlab foydalanadigan, dinning asl mohiyatini buzib talqin qiladigan ekstremistik tuzilmalar xuddi yuqoridagi kabi go'yoki, keng xalq ommasi bilan uzviy birlik mavjudligini ko'rsatish, aslida esa jamiyatda tartibsizlik va parokandalikni yuzaga keltirish uchun mablag' yig'ish, asosiy tahdid manbai sifatida odamlar ongini egallash, jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish orqali hokimiyatga erishishdek ehtiyojlarini qondirish maqsadini ko'zlaydi.

Hozirgi davrda ko'plab ekstremistik uyushmalar va mutaassib harakatlar turli dinlar, shu jumladan, islom, xristianlik, yahudiylik dinlari ta'limotlaridan foydalanmoqdalar.

Aqidaparastlik (arab. – «aqida» – «ishonch», «biror narsani ikkinchisiga bog'lash») muayyan sharoitda, biron-bir g'oyaga qat'iy ishonib, uni mutlaqlashtirish asosida shakllangan qoida va tartiblarni sharoit, holat, vaziyatni hisobga olmagan holda, ko'r-ko'rona qo'llash yoki shunga urinishni anglatadi. U muayyan qonun va qoidalar ta'sir doirasini sun'iy kengaytirishga urinishda yorqin namoyon bo'ladi.

Mutaassiblik (arab. – «g‘uluv ketish», «chuqur ketish») o‘z fikr-mulohaza va dunyoqarashi to‘g‘riligiga o‘ta qattiq ishonib, boshqa diniy e‘tiqodlarga murosasiz munosabatda bo‘lishni anglatadi. Mutaassiblik barcha davrlarda turli din va yo‘nalishlar orasida keskin nizo va to‘qnashuvlar kelib chiqishiga sabab bo‘lgan.

Ayni paytda, dunyoviy va diniy bilimlarning sayozligi, sof diniy tushunchalarning asl mazmunini bilmaslik ham diniy mutaassiblik g‘oyalarning tarqalishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bu jarayonning eng xatarli jihati dinni siyosiyashtirish vositasida hokimiyatga intilish, dindan odamlar orasiga nifoq solish, qo‘poruvchilik ishlarini amalga oshirish va g‘arazli manfaatlarni ro‘yobga chiqarishda foydalanishga urinishlarda namoyon bo‘lmoqda.

Demak, diniy ekstremizm kelib chiqishining birinchi va asosiysi sababi bu – mutaassib fikr va qarashlarning paydo bo‘lishidir. Mutaassiblik diniy ekstremizm va terrorizmga zamin tayyorlaydi. Shu o‘rin qayd etish joizki, ko‘p manbalarda «aqidaparastlik» so‘zi hozirgi voqelikdan kelib chiqib «mutaassiblik» so‘zi bilan almashtirilgan holda iste’foda etilmoqda.

Mutaassiblik va g‘uluv Qur’oni karimda muhokama qilingan mavzulardan hisoblanib, uning har qanday ko‘rinishi qat’iy rad etilgan. Jumladan, «Moida» surasida shunday deyiladi:

«Ey, imon keltirganlar! Sizlar uchun Alloh halol qilib qo‘ygan narsalarni haromga chiqarmangiz va haddan oshmangiz! Zero, Alloh haddan oshuvchilarni yoqtirmaydi» (Moida, 87).

Payg‘ambarimiz (alayhis-salom) ham o‘zlarining qator hadislarida diniy masalalarda haddan oshganlar noto‘g‘ri yo‘lda ekanini ko‘p bor ta’kidlab, ularning aksariyati Allohning g‘azabiga uchrab, halok bo‘lganini aytib o‘tganlar. Jumladan, Abu Hurayra (r.a.)dan rivoyat qilingan hadisi sharifda: «Albatta, din osonlikdir. Kim dinda chuqur ketsa, u yengiladi», deyilgan. Boshqa bir hadisda esa, Rasululloh (alayhis-salom) «Dinda chuqur ketadiganlar halok bo‘ldi. Dinda chuqur ketadiganlar halok bo‘ldi. Dinda chuqur ketadiganlar halok bo‘ldi», deb uch bora takror aytganlarining o‘zidan ham mutaassiblik va g‘uluvning naqadar yomon illat ekanini ko‘rishimiz mumkin.

Yuqorida keltirilgan ta’riflarda terrorizmning nihoyatda muhim bir xususiyati – uning muayyan siyosiy maqsad yoki amaliy natijalariga emas, balki u yoki bu xuruj natijasida odamlar orasida, ijtimoiy fikrda yuzaga keladigan xavotirli aks-sado, shov-shuvga erishishga qaratilgani ta’kidlangan. XX asrning 60-yillaridan boshlab, terrorizmning mojarolarni keltirib chiqaruvchi hodisa sifatidagi salohiyati, butun-butun mintaqalar yo‘nalishi turlicha bo‘lgan terrorchi tashkilotlar va guruhlar faoliyat ko‘rsatgan joylarga aylanib qoldi. Buning natijasida, terrorchilik harakatining ko‘lamigina emas, balki metodlari ham o‘zgardi. Uning eng dahshatli ko‘rinishlaridan biri – o‘zini avvaldan o‘limga tayyorlagan terrorchi-kamikadzelar tomonidan amalga oshirilayotgan harakatlarni keltirish mumkin.

Musulmon mamlakatlarida terrorchi uyushmalar ommaviy bo‘la olmagan uchun aholining keng qatlamlari nomidan harakat qilish taassurotini uyg‘otish maqsadida diniy shiorlardan niqob sifatida foydalanadilar.

Demak, terror, terrorchilik faoliyati, terrorchi birgalikda bir butun hodisa sifatida terrorizmni tashkil etadi. Hozirgi davrda u global miqyos kasb etib, xalqaro terrorizm shaklini oldi.

2. Markaziy Osiyo mintaqasida faoliyati kuzatilgan diniy ekstremistik harakatlarning maqsadlari.

Markaziy Osiyo mintaqasida diniy mutaassib oqimlar faoliyati XX asrning 80- yillari boshlarida xorijiy ekstremistik markazlar sa'y-harakatlari bilan shakllana boshladi. Mintaqada xorijdan kelayotgan moliyaviy yordam hisobiga jangari sifatida foydalaniladigan guruhlar paydo bo'ldi.

Markaziy Osiyo respublikalari mustaqillikga erishgan 1990-yillarning boshlarida esa, bu guruhlar faollashib ketdi. Shuning natijasida, mintaqada diniy ekstremizm asosan firqabozlikka asoslangan yangi guruhlarning paydo bo'lishi, norasmiy yo'l bilan diniy saboq berish, noqonuniy tarzda diniy mahsulotlar tayyorlash, olib kirish, tarqatish, missionerlik va prozelitizmning avj olishi kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ldi.

Ekstremizm va terrorizmning jamiyat barqarorligi rivojiga ko'rsatgan salbiy ta'siri Markaziy Osiyo mintaqasida faoliyati kuzatilgan birqancha mutaassib harakatlarning maqsadi tahlil qilinganida yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Mintaqada asosan "Hizbut-tahrir", "Turkiston islom harakati", "Akromiylar", "Nurchilar" kabi guruhlarning faoliyati kuzatildi.

Hizbut-tahrir al-islomiy

Tashkilot nomi. Hizbut-tahrir al-islomiy (arab. “Islom ozodlik partiyasi”). “Hizbchilar”, “Tahrirchilar” deb ham yuritiladi.

Asoschisi va yuzaga kelish tarixi. Falastinlik Taqiyiddin Nabahoniy (1909-1979) mazkur ekstremistik tashkilotning asoschisi hisoblanadi. Isroil davlatini tashkil etish haqidagi BMT qaroridan keyin 1947 yilda yilda oilasini olib, Falastindan Bayrutga ko‘chgan.

Aslida Misrdagi “al-Ixvon al-muslimun” (“Musulmon birodarlar”) tashkiloti a'zosi bo‘lgan Nabahoniy 1953 yilda mazkur jamoa a'zolidan chiqib, Quddus (Iyerusalim)da “Hizbut-tahrir al-islomiy” tashkilotini tuzgan.

Nabahoniy vafotidan so‘ng hizbga falastinlik Abdulqadim Zallum (1925-2003) boshchilik qildi. Uning rahbarligi davrida tashkilot sobiq Ittifoq tarkibiga kirgan respublikalarda (asosan Markaziy Osiyo hududida) o‘z faoliyatini jadallashtirgan.

1990-yillardan so‘ng Markaziy Osiyoda diniy radikalizm va ekstremistik g‘oyalarga asoslangan harakatlar avj oldi. Bunday tashkilotlarning faoliyati aksariyat davlatlarda qonun yoki Oliy sud hukmi bilan taqiqlandi. Shunga qaramay mahalliy aholi orasida bu diniy oqimlarga a‘zo bo‘layotganlar ko‘p.

Yaqin Sharqda "Islomiy davlat" guruhi xalifalik e'lon qilgach, Markaziy Osiyo davlatlarining har biridan minglab odamlar, hatto oilasi bilan bu terroristik guruh safiga borib qo‘shildi. Ayni paytda bu guruh

ustidan g'alaba qilingach, jangchilarning xotin va farzandlari vataniga qaytarilmoqda.

Birinчилardan bo'lib Qozog'iston va Tojikiston Suriya va Iroqdagi vatandoshlarni olib keldi. Ammo jamiyatda ularni qaytarish xavfli ekani to'g'risidagi gap-so'zlar ko'payib, jamoatchilik ikkiga bo'linmoqda. Shunga qaramay, O'zbekiston ham jang maydonidagi vatandosh ayol va bolalarni qaytarishga qaror qildi. Qirg'izstonda bu masala o'rganilmoqda. Iroq va Suriya jang maydonlarida beva qolgan ayol va yetim bolalar masalasi Markaziy Osiyoda davlat va jamiyat uchun jiddiy muammo bo'ldi.

Radikalizmning oldini olish, ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishda Qozog'iston o'ziga xos tajribaga ega. Dinshunos olim, "Shanirak" diniy masalalar bo'yicha maslahat markazi rahbari Mirxat Madiyarovning aytishicha, hamma muammo jamiyatda ideologiyaning yo'qligida.

"Agar jamiyat o'z ideologiyasi bilan to'la bo'lsa, bu muammo xatarli emas. Biz Markaziy Osiyo, Qozog'istonda bugun ko'rayotgan holimiz - bu inqiroz.

Sovet Ittifoqi parchalanganidan so'ng ideologiya yo'qoldi. Hamma ketdi, maktabdan direktor, o'qituvchi, bog'chadan tarbiyachi va boshqalar. Sovet Ittifoqi paytidagi ideologiyaning o'rni birdaniga bo'sh qoldi.

Agar jamiyat o'z g'oyasi bilan to'la bo'lsa, unga boshqa g'oyaning kirib kelishi juda qiyin. Agar bo'sh bo'lsa, darrov kirib keladi. Biz ko'rayotgan narsamiz ideologlarning yetishmasligi. Mafkura bo'sh

qoldi. Bunday holatda tashqi xavflar oson ta'sir o'tkaza oladi. Ayni holatda tashqi ta'sir bu axborot urushlari. Agar bizning ideologiya to'la bo'lganida edi, bu xavf-xatarlar bizni chetlab o'tar edi. Ya'ni u jamiyatga kira olmas edi.

Masalan, Turkiya davlati. U yerda, garchi Suriya va Iroq davlatlariga bizdan ko'ra yaqinroq joylashgan bo'lsa ham, muammo biznikichalik xavf solmadi", - deydi u.

Markaziy osiyoda ma'naviyat va ma'rifat markazi raisi Ilhom Yusupovning aytishicha, fuqarolarning ekstremistik va terroristik guruhlariga qo'shilib ketishini oldini olishga qaratilgan barcha targ'ibot-tashviqot va tushuntirish ishlari ularning ona tilida olib borilishi lozim.

Markaziy osiyoda ekstremizm, terrorizm bilan kurash masalasida hukumatlar baholi qudrat ish qilyapti.

Lekin ular hech qanday samara bermayapti. Har qanday terrorizm yoki boshqa-boshqa oqimlar ruhiyatni, ma'naviyatni sustligi, imon sustligi orqali kirib keladi. Aynan ma'naviyat, ruhiyat har xil guruhlariga yo'naltiradi. Chunki u oqimlar shu ruhiyatini o'g'irlyadi. Ana shu ruhiyatni saqlab qolish uchun ma'naviyat kerak.

Bugungi kunda sir emaski, Markaziy osiyodan ham IShIDga kirib ketayotganlar, boshqa oqimlarga kirib ketayotganlar orasida ko'plap markaziy osiyoliklar bor, ana shular ichida tushuntirish va boshqa ishlarni olib borish lozim. Yo'ldan adashganlarni to'g'ri yo'lga solish yoki adashmaslik uchun nima ishlar qilish kerak? Markaziy osiyodagi davlatlar aholi orasida bunday ishlarning yo'lga qo'yilishi lozim Din odam qalbiga kirib bora oladi. Ammo uning antivirusi ona tili bilan kirib

borishi lozim. Boshqa til bilan, terrorizm bu yomon narsa, degan gaplarning o'zi bilan hech qanday samara bo'lmaydi. Lekin uning qalbini uyg'ota olish kerak. Bu adabiyot uyg'ota oladi, til uyg'ota oladi, ma'naviyat uyg'ota oladi", - deydi Yusupov.

3. Xalqaro diniy terroristik guruhlar – al-Qoida, Ixvanul muslimin, ISHID, Boko xaram, tolibonlar tashkilotlarining xavfsizlikga tahdidi.

«Xalqaro terrorizm» tushunchasi davlatlar, xalqaro tashkilotlar, siyosiy partiya va harakatlarni beqarorlashtirishga qaratilgan siyosiy qo'poruvchilik faoliyatini ifodalaydi. U og'ir jinoyatlardan bo'lib, uzoq davom etgan jarayonlarning hosilasi hisoblanadi.

Xalqaro terrorizmning mohiyati va maqsadi nimadan iborat? Terrorizm bu – begunoh odamlarni, xususan davlat va jamiyat rahbarlarini suiqasd yo'li bilan o'ldirish, garovga olish, jamoat binolari, turar joylar, ijtimoiy obyektlarni, transport vositalarini portlatish yo'li bilan xalqni hukumatdan norozi qilish, parokandalikni vujudga keltirish orqali hokimiyatni qo'lga olishga qaratilgan jinoiy guruh harakatidir.

Xalqaro terrorizmning hozirgi xususiyatlari nimadan iborat?

Bular tubandagilar:

Terrorizm ilgari ham, hozir ham xalq nomidan gapiruvchi go'yo xalq manfaatini aks ettiruvchi soxta ko'rinishi saqlab kelyapdi. Bu bosh xususiyat bo'lib, uning barcha ko'rinishlariga xosdir.

Ilgari terrorchilar turli mamlakatlarda bir-birlaridan ajralgan holda harakat qilardi. Endilikda esa ularning faoliyati bir yoki bir nechta

qudratli markazlar tomonidan boshqariladigan xalqaro jinoyatchi guruhlarning siyosiy harakatiga aylandi.

Hozirgi terroristlar juda katta moddiy, texnika imkoniyatga ega. Eng zamonaviy qurollarga, hatto raketa texnikasi, ximiyaviy va bakterologik qurollarga, aloqa vositalariga ega.

Xalqaro terrorizm hozirgi paytda narkobiznes, diniy ekstremizm, diniy millatchilik, separatizm, davlat to'ntarishi kabi global ijtimoiy illatlar bilan qo'shilib ketdi. Diniy ekstremizm, millatchilik g'oyasi bu harakatning asosiy mafkurasi, terrorizm esa uning amaliyoti bo'lib qoldi.

O'ta xavfli retsedivistlar, narkomanlar, jinoyatchilar soxta diniy g'oyalar bilan aldangan, siyosiy saviyasi past yoshlar bu harakatning sotsial bazasidir.

Terrorizmning o'ta xavfli harakatga aylanish sababi nimada?

Ma'lumki XX asr oxiriga kelib ko'pchilik davlatlarida demokratlashtirish jarayoni yuz beradi. Xalqning xohish-irodasini ifodalovchi tizim ustuvor bo'la boshladi. Odamlarning ongi, dunyoqarashi va tafakkurida ijobiy o'zgarishlar yuzaga keldi. Ayni paytda eski tartib tarafdorlari, reaksion guruhlar, diniy ekstrimistlar va aqidaparastlar bundan tahlikaga tushib, ana shu ijobiy jarayonni izdan chiqarishga, hokimiyatga egalik qilish uchun terrorizmdan ishonchli vosita sifatida foydalanishga harakat qildilar. Bunday harakat nafaqat Yevropada, Sharqning Afg'oniston, Pokiston, Tojikiston, Saudiya Arabistoni, Misr, Jazoir, Indoneziya, Yaponiya va boshqa joylarda ham kuchayib ketdi. Bu xarakatning kengayishiga jahonning rivojlangan

davlatlari hamda jamoatchilikning beparvoligi, loqaydligi ham sabab bo'ldi.

Yurtboshimiz xalqaro tinchlik va barqarorlikka rahna soluvchi bu jiddiy xavfni bartaraf etish bo'yicha jahon davlatlari bilan hamkorlik choralari ko'rish bugungi kunning eng dolzarb vazifasi ekanini ko'rsatdi. Darhaqiqat, Prezidentimiz I. Karimov terrorizmga qarshi kurashni tashkil etish bo'yicha xalqaro nufuzli yig'ilishlarda ishtirok etib bir qator takliflarni ilgari surdi. Jumladan, BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida (1993-yil sentabr) 2000-yil dekabrda bo'lib o'tgan ming yillik sammitida so'zlagan nutqida, 1999-yil noyabrda Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik tashkilotining Istanbulda bo'lgan sammitida, 1999-yil aprelda NATO ning 50 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishda, 1999-yil iyulda Toshkentda 6Q2 guruhiga kirgan davlatlar yig'ilishida, 2000 – 2001-yillarda MDH davlat rahbarlarining Moskva sammitida, Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining (O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston) Dushanba, Bishkek va Toshkent uchrashuvlarida (2000- 2001-yil), shuningdek, 2003-yil iyunda Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo bo'lgan davlat rahbarlari sammitida so'zlagan nutqlarida Prezidentimiz I. Karimov xalqaro terrorizmga qarshi bir qator samarali takliflarni maydonga tashladi:

Terrorizmni butun insoniyat uchun xatarli illat ekanligini ko'rsatib unga qarshi barcha kuch va imkoniyatlarni birlashtirish lozimligini ko'rsatdi.

BMT qoshida xalqaro terrorizmga qarshi kurash markazini tashkil etish va bu markazning vazifasi faqat terrorizmning o'zi bilan emas,

balki uni qo'llab- quvvatlayotgan qurol yarog' va mablag'lar bilan ta'minlayotgan kuchlarga, markazlarga ham qarshi kurashni muvofiqlashtirish zarurligini qayd etdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining deyarlik keyingi barcha sessiyalarida (ayniqsa 2-chaqiriq 7,9,11-sessiyalarida 2001 – 2003-yil) bu masalalarga alohida e'tibor berildi. 2000-yil avgustida Oliy Majlisning jahon parlamentlari va xalqlariga qarata murojaatnomasida barcha davlatlarni xalqaro terrorizmga qarshi kurashda birlashishga chaqirdi. O'zbekiston Oliy Majlisi 2000- yil 15-dekabrda 31-moddadan iborat "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida" gi qonunni qabul qildi.

Qonunda terrorizmga qarshi kurashning asosiy tamoyillari, ularga qarshi kurashning eng oliy vositasi mamlakat fuqarolarining ma'naviyatini yuksaltirish, huquqiy ongini oshirish, dunyoqarashini kengaytirish zarurligi, odamlarga islom dinimizning insonparvarlik mohiyatini, vayronagarchilik, genotsidga asoslangan terrorizm va ekstremizmning o'ta zararli illat ekanligini tushuntirish lozimligi qayd etildi.

2001-yil oktabrida AQSh boshliq harbiy koalitsiya Afg'onistondagi terrorizm o'choqlarini tugatish maqsadida keng miqyosda harbiy harakatlarni boshlab yubordi.

AQSh harbiy kuchlari terroristlar va ularni qo'llab-quvvatlagan tolibonlarning harbiy kuchlari, tayanch punktlariga AQSh qaqshatqich zarba berdi. AQSh boshliq koalitsiyaning aksilterror harakatiga 40 dan ziyod davlatlar qo'shildi, bir yuzga yaqin davlatlar xayrixohlik bildirdi.

Hatto Angliya, Germaniya, Kanada, Avstraliya va boshqa davlatlar bu kurashda qatnashdilar. Kurash o'zining ijobiy natijasini berdi, 23 yildan buyon davom etgan va afg'on xalqi boshiga behisob musibat keltirgan afg'on urushi nihoyat tugadi. Jafokash afg'on xalqi tinch hayot kechirish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Shu yil 6-oktabrdagi e'lon qilgan bayonotida O'zbekiston Prezidenti AQSh ning Afg'onistondagi antiterrorchilik harakatiga o'zining xayrixohligini bildirdi. Shu munosabat bilan respublika matbuotda terrorizmga qarshi maxsus murojaat e'lon qilindi. Murojaatda terrorizmning mohiyati, basharasi ochib tashlandi, bu harakat afg'on xalqiga, islom diniga qarshi qaratilgan harakat ekanligi xalqqa tushuntirildi.

O'zbekiston hukumati insoniyat hayotiga jiddiy xavf solayotgan XXI asr bevosita qarshi, uni tugatgunga qadar jahon hamjamiyati bilan o'zining birdam ekanligini e'lon qildi. Ma'lumki, Afg'onisondan keyin Yaqin Sharqda Iroq davlati diniy ekstremizm va xalqaro terrorizm o'chog'iga aylanib qolgan edi. Saddam Xusayn boshliq mustabid hukumati ularni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlab kelayotgan edi.

Iroqda jahon hamjamiyati uchun juda xavfli vaziyat yuzaga keldi. Bu yerda BMT tomonidan ta'qiqlangan yadroviy, ximyaviy, baktereoloigk qurollar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi, armiyaning soni salkam bir millionga yetkazildi. Iroq hukumati BMTning yalpi qirg'in qurollarini ishlab chiqarishni to'xtatish, tugatish va tarqatmaslik haqidagi talabini bajarishdan bosh tortdi, AQSh hukumati Iroqda

Saddam Xusayin diktaturasini ag'darib tashlash, bu yerdagi xalqaro terrorizm tayanchini tugatish, Iroqda demokratik boshqaruv tizimini qaror topdirishga qaratilgan harbiy operatsiyani boshlab yuborishga qaror qildi. Bu operatsiya 2003-yil 20-martda boshlandi va uch hafta davom qildi.

Bu harakatda Angliya va Ispaniya harbiy kuchlari ham ishtirok etdi. Koalitsiyaning harbiy harakatini jahonning 40 dan ortiq davlatlari qo'llab-quvvatladi. Shu jumladan O'zbekiston hukumati ham AQShning Iroqdagi siyosatiga o'zining xayrixohligini bildirdi. Natijada Saddam Xusayin diktaturasi ag'darildi, xalqaro terrorizmning yana bir xavfli o'chog'i tugatildi. Endilikda Iroqni demokratlashtirish uchun zarur choralar ko'rilmoqda.

Prezidentimiz Islom Karimov Oliy Majlis 2-chaqiriq 11-sessiyasida so'zlagan nutqida Afg'oniston va Iroq masalasida respublika hukumatining pozitsiyasini chuqur analiz qildi, shu davlatlarni tinch taraqqiyot yo'liga o'tishga har taraflama yordam berganligini bildirdi. Demak O'zbekiston nafaqat Afg'oniston va Iroq zaminida, balki butun dunyoda terrorizm va ekstrimizm o'choqlarining butunlay tugatilishidan manfaatdordir, chunki buning zamirida yurtimiz tinchligi, xavfsizligi, Vatanimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligi mujassamdir. Jahonda adolat va ezgulik timsoli bo'lgan demokratik kuchlar yovuzlik, jaholat timsoli bo'lgan diniy ekstrimizm va terrorchilik ustidan muqarrar g'alaba qozonadi, bunga shubha bo'lishi mumkin emas.

Xalqaro terrorizm fenomeni, ayniqsa, XX asr boshlarida avj ola boshladi, ya'ni xalqaro terrorizmga qarshi kurashda davlatlararo

hamkorlikni yo'lga qo'yilishi o'tgan asrning 30-yillaridan boshlangan. Masalan, 1934 yilda Madridda bo'lib o'tgan jinoyatchilikka oid qonunlarni unifikatsiyalashtirish muammolariga bag'ishlangan konferensiyada terrorizmning «Aholini dahshatga solish va har qanday ijtimoiy tashkillashuvni yo'q qilish maqsadida biror bir vositani qo'llash» degan ma'nodagi ta'rifi qabul qilinishiga erishilgan. 1937 yilda 20dan ortiq davlat terrorizmning oldini olish va bunday harakatlar uchun jazolash haqidagi Konvensiyani imzoladi.

Bugungi kunda terrorchilik uslublari ancha kengayganini ta'kidlash zarur. 1970-yillarda biror shaxs yoki siyosiy arbobga qarshi uyushtirilgan terror amaliyoti ko'proq uchragan bo'lsa, hozirda jamoat joylarida, samolyot, avtobus va poyezdlarda portlashlarni sodir etish orqali ko'plab tasodifiy kishilarning qurbon bo'lishiga olib keladigan qo'poruvchilikni amalga oshirishga e'tibor berilmoqda. Ekspertlarning fikricha, bunday harakatlar birinchi navbatda nobud bo'lganlardan ko'ra, uning guvohlariga qaratilgan.

Xalqaro terrorchilik harakatlarining asosiy belgilari:

Xalqaro huquq himoyasidagi ob'ekt yoki sub'ektlarga qarshi qaratilgani;

Davlatlar chegaralarini buzish orqali amalga oshirilishi;

A'zolari ikki yoki undan ortiq davlat fuqarolari, shu jumladan, yollanma Shaxslar bo'lgan ekstremistik guruhlar tomonidan sodir etilishi;

Ekstremistik guruhlar tarkibida qo‘poruvchilik harakatlari bo‘yicha xorijlik yo‘riqchilarning qatnashishi;

Ekstremistik guruh a‘zolarining boshqa davlatlar hududida tashkil etilgan maxsus lagerlarda tayyorgarlik ko‘rishi;

Tayyorgarlik ko‘rish va qo‘poruvchilikni sodir etishda xorijiy davlatlar va ekstremistik uyushmalar yordamidan, xalqaro tus olgan noqonuniy qurol-yarog‘ savdosi va narkobiznesdan keladigan moliyaviy manbalardan foydalanilishi.

Muayyan mamlakat hududida sodir etilgan terrorchilik xurujida qayd etilgan u yoki bu belgilarning bo‘lishi, unga xalqaro maqom berilishi va shundan kelib chiqib, unga mos choralar ko‘rilishiga olib keladi.

Diniy ekstremizm va terrorizm kabi hodisalarning ildizlari uzoq tarixga borib taqalsa-da, ular hech qachon ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyot uchun bugungidek tahdid solmagan. Zero, hozirda diniy ekstremizm va terrorizm global xarakterga ega bo‘lib, dunyoning barcha mamlakatlari hamda mintaqalariga birdek xavf solmoqda.

Shunday ekan, uning oldini olish va unga qarshi kurashish insoniyatning istiqboliga daxldor masalaga aylandi. Ekstremizm (lotincha - «aql bovar qilmas darajada», «haddan oshish») jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidalarga zid radikal qarashlar va harakatlarni anglatadi. Ularga diniy tus berish esa, diniy ekstremizmga olib keladi.

Islom niqobidagi ekstremizmning g'oyaviy ildizlari Diniy ekstremizm o'z mohiyatiga ko'ra siyosiy hodisa bo'lib, u amaldagi siyosiy hokimiyat tizimini keskin o'zgartirishga yo'naltirilgan.

O'zini islom nomi bilan bog'laydigan diniy -ekstremistik tashkilotlarning xususiy jihatlari quyidagilardan iborat:

- dunyoviy davlat va jamiyatda murosasiz munosabatda bo'lish va uni shariatga asoslangan tuzumga aylantirishga harakat qilish;

- dinning davlatdan ajratilganligini rad etish va jamiyatning barcha a'zolarini majburan shariat talablari asosida hayot kechirishini ta'minlash;

- islom dinini dunyoning boshqa jamiyatlariga qarshi qoyish;

- mamlakatlarning mustaqilligi va hududiy yaxlitligini tan olmaslik; o'z maqsadlari yo'lida davlat va jamiyatda ijtimoiy -siyosiy barqarorlikni izdan chiqarishga qaratilgan hatti-harakatlarga urg'u berish.

Jamiyatlar barqarorligiga rahna solayotgan, ularning barqaror taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatayotgan terroristik harakatlardan biri:

Ma'lumotlarga ko'ra, bugun dunyoda 500 ga yaqin terrorchilik tashkiloti faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning 80 foizi islom niqobi ostida faoliyat yuritadi.

Ular qatoriga "IShID (Iroq va Shom islom davlati)", "Jabha an-Nusra", "Ansaru ash-Sham" (Suriya), "al-Qoida", "al-Jihod al-Islomiy", "at-Takfir va-l-Hijra" (Misr), "Abu Sayyaf" (Filippin), "Ozod Achex", "Lashkari jihod" (Indoneziya), "Qurolli islomiy harakat" (Jazoir), "Boko

haram” (Nigeriya), “Islom jihodi uyushmasi”, “O‘zbekiston islomiy harakati” Tolbion (Afg‘oniston, Pokiston) kabi tashkilotlarni kiritish mumkin.

Terrorizm odamlarning ertangi kuniga bo‘lgan ishonchiga putur yetkazibgina qolmay, balki xalqaro maydondagi muammolarni, jumladan, turli e‘tiqod vakillari bo‘lgan xalqlar orasidagi o‘zaro ishonchga soya solib, jahon taraqqiyotining xalqaro iqtisodiy va madaniy hamkorlikning rivojiga to‘siq bo‘lmoqda.

Ekspertlarning xabar berishicha, deyarli barcha din niqobi ostidagi terroristik tashkilotlarning barchasi yangiliklarni “kufr”deb atasalarda o‘zlari tomonidan hozirgi zamonaviy vositalardan foydalanishga harakat qilishmoqda.

Masalan, dunyodagi terroristik tashkilotlarning yuzdan ortig‘i eng zamonaviy qurollar bilan qurollangan va bu tashkilotlar bir-birlari bilan axborot almashadilar, qo‘poruvchilik ishlarini amlaga oshirayotgan paytda o‘zaro sherik bo‘ladilar, zarur bo‘lgan vaqtda bir-birlariga moliyaviy va boshqa shakldagi yordam beradilar hamda saflarini kengaytirish maqsadida internet tarmoqlaridan keng foydalanib kelinmoqda.

Manashunday terroristik tashkilotlarning eng yiriklari qatoriga “Musulmon birodarlari”(1928-yil mart oyida Misrning Islomiya shahrida Hasan al-Banno tomonidan asos solingan), “Al-Qoida” (“Butunjahon yahudiy va xristianlarga qarshi kurash islom jihodi fronti” bir qator xalqaro diniy-ekstremistik va terroristic tashkilotlar bazasidan iborat,tashkilot asoschisi Usoma bin Lodin) “Iroq va Shom

islom davlati” (“ISHID”), “Jabhat an-nusra”(salafiy-jihodiy yo‘nalishidagi harakat bo‘lib, 2012- yil yanvarda Suriyada yuzaga kelgan) “Boko haram”, “Hizbut-tahrir”, “Tolibon” va boshqa terroristik tashkilotlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Shunday ekan bugungi kunda global muammolar- umumbashariy hayot va taraqqiyot bilan bog‘liq hozirgi zamon muammolari.

XX asrning ikkinchi yarmi XXI asrda xalqaro maydonda o‘zining salbiy ta’siri bilan tanilgan, shubhasiz, ekstremizm bilan oziqlanib turgan, diniy shiorlar bilan burkanib olgan terrorizmdir.

Ma’lumotlarga qaraganda, bugungi dunyoda 500 ga yaqin terrorchi tashkilotlar ish olib bormoqda. 1968-1980-yillar davomida ular 6700 ga yaqin terrorchilik amaliyotlarini sodir etganlar. Natijada 3668 kishi halok bo‘lib, 7474 kishi turli jarohatlar olgan. 1970-2019-yillarda yer yuzida 195 mingdan ortiq terrorchilik aktlari sodir etilgan. So‘nggi 10 yil mobaynida terrorizm 200.000 dan ortiq kishining o‘limiga sabab bo‘ldi. Ularning yarmidan ziyodi beshta davlat ulishiga to‘g‘ri keladi.

Ular: Iroq, Pokiston, Suriya, Afg‘oniston va Hindiston hududida amalga oshirilgan. 2019-yilda dunyodagi 163 ta mamlakat ichida 63 ta davlat terrorchilik harakatlaridan zarar ko‘rgan. Terrorizm o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga 2014-yil chiqqan bo‘lib.”ISHID”, “Boko haram”, “Fulani”, “Tolibon” kabi guruhlar amalga oshirgan terroristik aktlar natijasida 2014-yilda vafot etganlar soni 33826 ta bo‘lgan bo‘lsa, 2019-yilda bu ko‘rsatkich pasayib 13826 kishini tashkil qilgan.

2019-yilda dunyoda sodir etilgan 8300 dan ziyod umumiy terroristik aktlar natijasida 25.000 dan ziyod kishi qurbon bo‘lgan. Ularning eng

ko‘pi, ya‘ni 11mingdan ortig‘i Afg‘oniston, Yaman, Hindiston Iroq, Nigeriya, Pokiston, Suriya va Somaliga to‘g‘ri keldi.

So‘nggi yillarda jahon hamjamiyati tomonidan amalga oshirilgan terrorizmga qarshi kurash natijasida 2020-yilda 60%ga pasaygan, ya‘ni 13ming 826 nafarni tashkil qildi. Bugungi kunga kelib boshqa davlatlarga nisbatan dunyoning 15 dan ziyod davlatlarga terrorizm ko‘proq xavf solmoqda. Bu davlatlar qatoriga Sudan, Misr, Suriya, Malayziya, Indoneziya, Falastin, Iroq, Hindiston, Saudiya Arabistoni, Jazoir, Liviya, Senegal, Pokiston va boshqa davlatlarda terrorizm eng ashaddiy ildiz otgan davlatlar sirasiga kiradi.

Hozirgi kunda eng dahshatli qo‘poruvchilik ishlari Suriya, Iroq va Afg‘oniston davlatlari hududlarida sodir bo‘lmoqda.

Terrorizmning jamiyatga zararlari qatoriga quidagilarni kiritish mumkin:

- Begunoh odamlarning qoni to‘kilishi;
- Mol-mulklarga zarar va talofatlar yetkazilishi;
- Jamiyatda qo‘rquv va xavfning paydo qilinishi;
- Davlat va boshqaruvni amalgam oshiruvchi subektlar(rahbarlar)ga qarshi isyon;
- Tartibsizliklar kelib chiqishi;
- tarqoqlik va bo‘linish va boshqalar.

Jamiyatda diniy asosda nizolar chiqishiga yo‘l qo‘ymaslik, dinni siyosiylashtirish va soxtalashtirish, terroristik harakatlar orqali orqali

mamlakatdagi ijtimoiy barqarorlikni izdan chiqarishga qaratilgan har qanday harakatning oldini olish davlat va jamiyatning oldida turgan eng muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda terrorizm alohida mamlakatlarning milliy xavfsizligi va umuman jahon hamjamiyatiga jiddiy tahdid solayotgan omilga aylandi. Umumbashariy global muammoga aylangan terrorizmni jahon hamjamiyati faqat birgalikda, turli tor geosiyosiy manfaatlardan voz kechgan holda harakat qilibgina yenga olishi mumkinligi aksariyat davlatlar tomonidan tan olingan ayni haqiqatdir. Terrorizm illatining so'nggi paytlarda tobora kuchayib borayotgani mazkur muammoning naqadar dolzarb ekanini ko'rsatadi.

“Iroq va SHom islom davlati” (ISHID) terrorchilar to'dasi. “Xalifalik” o'rnatish soxta iddaosi bilan musulmonlarni kofirga chiqarib, zulm qilib, tinch aholiga zo'ravonlik o'tkazgan. Niqob qilgan nomlari: “Iroq islom davlati” (2006), “Iroq va SHom islom davlati” (2013), “Islom davlati” (2014) deb atalmoqda. Aqidasi: xorijiyalar toifasidan bo'lmish azraqiylar hamda rofiziylar kabi adashgan firqalar aqidasi. To'da qarorgohi: Suriyaning Raqqa shahri. To'daboshi: “Abu Bakr Bag'dodiy” laqabli shaxs.

Soxta da'vo va belgilari: “Islom davlati” yoki “Xalifalik” qurishni iddao qilib, hatto islom dinining muqaddas kalimalarini qora bayroqlarga yozib olib, jirkanch maqsadlari yo'lida foydalanishmoqda. ISHID terrorchilik to'dasiga ba'zi o'zbekistonlik yoshlarning tushib qolishi achinarli hol.

Mafkura maqsadi: musulmonlarni kofirga chiqarib tuhmat orqali yo`q qilish, o`zlari yashaydigan joydan boshqa er kufr diyori deb hijrat qilishga chorlab, jihod va shahidlik niqobi ostida razil maqsadlarini amalga oshirish. Qing`ir moliya manbalari: talon-taroj, qaroqchilik, o`g`rilik, bosqinchilik, qora bozordagi neft savdosi, odamlarni qul qilib sotish va shu kabilar.

Al-Qoida (arabcha القاعدة — „asos“) sunniy jihodchi harbiy tashkilotlarning xalqaro birlashmasidir. Uning ildizlari 1989 yili Sovet qurolli kuchlarining Afg`onistondan olib chiqilishi bilan mamlakatda kuch yig`a boshlagan diniy fundamentalistlar va ularning homiylari (Usoma bin Lodin va boshqalar)ga borib taqaladi. Al-Qoidaning dasturiga musulmon o`lkalarda xorijiy ta`sirlarga chek qo`yish va yangi islomiy xalifalik yaratish kiradi.

„Al-Qoida“ tashkiloti 1980-yillar oxirida tashkil etilgan. 1998-yil AQShning Tanzaniya va Keniyadagi elchixonalaridagi portlashlar va 2001-yil 11-sentyabrida Nyu-Yorkdagi teraktlardan so`ng „Al-Qoida“ jahondagi eng yirik va qudratli terrorchilik tashkiloti sifatida ko`rila boshlandi. Tashkilot asoschisi Usoma bin Lodin 2011-yil mayida Pokistonda yo`q qilingan. Uning o`limdan so`ng Ayman az-Zavahiri tashkilot yetakchisiga aylangan. 2022-yilning 31-iyulida az-Zavahiriy Kobulda AQSh dron hujumi natijasida o`ldirildi.

Al-Qoida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xavfsizlik Kengashi, NATOYevropa Ittifoqi, Amerika Qo`shma Shtatlari, Avstraliya, Kanada, Isroil, Yaponiya, Niderlandiya, Birlashgan Qirollik, Rossiya, Shvetsiya, va Shveysariya tomonidan terroristik tashkilot deb topilgan.

Biroq Al-Qoida qarshi keng harbiy va ommaviy kampaniya 2001-yil 11-sentyabr terror xurujlarigacha boshlanmagan.

4. O‘zbekistonda sodir etilgan terroristik harakatlar va ularning barqaror taraqqiyotga ta’siri.

Oxirgi paytlarda dunyoning ko‘plab mintaqalarini qamrab olgan terrorizm va ekstremizm bilan bog‘liq muammolar faol muhokama qilinmoqda. Terrorizm va diniy-ekstremizmga qarshi kurash Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan, O‘zbekiston uchun ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda diniy-ekstremistik, terroristik guruhlar faoliyatida muhim o‘zgarishlar kuzatilmoqda. O‘zbekiston va boshqa davlatlarda diniy-ekstremistik, terroristik harakatlarga nisbatan olib borilayotgan murosasiz yondashuv natijasida guruh a‘zolari o‘z harakatlarini ochiq namoyon etishni ma’qul ko‘rmay, aksincha, xufyona targ‘ibot-tashviqot ishlari orqali, jumladan internet orqali o‘z g‘oyalarini tarqatish bilan faoliyatlarini jadallashtirishmoqdalar.

O‘zbekiston mustaqilikka erishgach, mazkur hudud turli manfaatdor kuchlarning nishoniga aylandi. Siyosiy maqsadlarni din niqobi ostida amalga oshirishga intiluvchi diniy-ekstremistik va terrorchilik guruhlari mintaqaga suqilib kirishga harakat qildilar. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish uchun mustahkam asosga ehtiyoj sezildi. 2000-yil 15-dekabrda O‘zbekiston Respublikasining “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonunining qabul qilinishi davlatimiz

suvereniteti va xalqimiz farovonligi, yurtimiz taraqqiyotiga katta tahdid soluvchi terrorizmga qarshi kurash borasida katta qadam bo'ldi.

G'oyaviy jihatdan milliy manfaatlarga zid bo'lgan diniy mazmundagi mahsulotlarni respublika hududiga olib kirish va tarqatishga urinish holatlari O'zbekistonda ham kuzatilmoqda. Bu kabi ekstremistik ruhdagi mahsulotlarni internet va boshqa yo'llar orqali tarqatilishi aholi tomonidan dinning noto'g'ri talqin etilishiga, kam ma'lumotga ega o'quvchilar ma'naviy ongining buzilishiga, turli e'tiqod va qarashlarga ega bo'lgan odamlar, xususan yoshlar orasida adovat va xusumat uyg'onishiga zamin yaratmoqda. Shu bilan birga, bunday faoliyatlar hukumatga qarshi yo'naltirilgan va O'zbekiston Respublikasi milliy xavfsizligiga muayyan tarzda tahdid solishni maqsad qilgan.

20-asr oxirlarigacha diniy-ekstremizm va aqidaparastlikni tarqatish va aholi orasida yoyishning asosiy qurollari bo'lib turli adabiyot va nashrlar xizmat qilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiya vositalari rivojlangan hozirgi davrda ommaviy axborot vositalari, ayniqsa internet tarmog'i diniy ekstremistik va aqidaparastlik g'oyalarini tarqatishning eng optimal va qulay manbaiga aylandi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, hozirda turli guruh va oqimlar tomonidan diniy ekstremizm va aqidaparastlikni targ'ib qilishda, jamiyatda norozilik kayfiyatini tarqatishda ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanilmoqda. Internet orqali suhbat olib borish jarayonida yoshlarga "kufri diyori", "hijrat", "jihod", "shahidlik", "xalifalikni tiklash" kabi g'oyalar singdirilib, ular turli to'qnashuv va nizo o'choqlariga jalb qilinmoqda.

Turli kuchlarning nog'orasiga o'ynayotgan diniy-ekstremistik va terrorchi oqimlar tomonidan u yerlarda amaliyotni o'tab kelgan aqidaparast, diydasi qotgan, mustaqil fikrlashdan mahrum, rahnamolarining har qanday buyruqlarini qonun deb biluvchi zombi-jangarilardan tinch mintaqalarda ham turli nizolar va beqarorliklarni keltirib chiqarishda foydalanish maqsadi bugun ko'pchilikka ayon haqiqatdir.

Internet tarmog'ining chegara bilmasligi, sun'iy yo'ldosh orqali efirga uzatiladigan fazoviy kanallarga to'siq qo'yishning iloji yo'qligini hisobga oladigan bo'lsak, hozirgi kunda bu kabi buzg'unchi g'oyalardan aholini, xususan yoshlarni asrash uchun ularda bu kabi yot g'oyalarga qarshi ma'naviy immunitetni hosil qilish, internet va OAV orqali mazkur guruhlariga asosli raddiyalar berish, sof diniy ta'limotlarni yoshlarga yetkazish, ularni xalqparvarlik, vatanparvarlik, milliy va diniy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyatga ega ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Umuman, islom ekstremizmi, fundamentalizmi tomonidan O'zbekiston xavfsizligiga mustaqillik yillarida qilingan tahdidlar va hozirgi vaqtda ham mavjud urinishlar:

1. Dindor musulmonlarning islohotchi davlatga ishonchini yo'qotish, demokratik jamiyatni obro'sizlantirish, barqarorlikni va milliy totuvlikni buzish.

2. Asossiz da'vatlar orqali yoshlarni mutelik, erksizlik holiga tushirib qo'yish,

aqliga va taqdiriga hukmron bo'lish.

3. Qarama-qarshilikni keltirib chiqarish, mamlakatni parchalab tashlash

(separatizm).

4. Din uchun kurashuvchi jangarilarning yangi avlodini vujudga keltirish.

5. Musulmon va nomusulmon mamlakatlar orasida O'zbekiston obro'sini to'kish, obro'sizlantirish.

6. Islom va boshqa sivilizatsiyalar o'rtasida ziddiyatlarni keltirib chiqarish.

7. Omma ongida soxta tasavvurlarni qaror toptirish.

8. Diniy radikal kuchlarning terroristik jinoiy harakatlari. 1991 yil 9 dekabrda

Namangan shahrida bir guruh qo'poruvchi kuchlar viloyat ijroiya qo'mitasini

egallab, O'zbekistonni Islom davlatiga aylantirishdagi da'volariyu 1990-1992

yillarda Namangan viloyatida "Otavali-xon" jome masjidida Abdulla O'taev, Tohir Yo'ldoshevlar oqimlari:

1) Hizb-ut Tahrir. 2) Akromiylar. 3) "Nurchi"lar. 4) "Tavbach"lar. 5) Islom

lashkarlari. 6) "Adolat" diniy uyushmasi va hakazo.

9. 2001 yil 11 sentyabrda AQShning Nyu-York shahrida terrorchilik harakatlarida 3 ming kishi halok bo'ldi.

10. Fashizm o'z maqsadlarini oshkora e'lon qilib, zo'rovonlik yo'li bilan singdiradi

Siyosiy hokimiyatga intilayotgan, diniy shiorlarni niqob qilib olgan aqidaparast oqimlar Markaziy Osiyo mamlakatlari, xususan, O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga salbiy ta'sir o'tkazishga harakat qilmoqda.

So'nggi yillarda "jihodchilar", soxta "salafiyalar" kabi diniy-siyosiy guruhlar, shuningdek, "Xizbut tahrir" diniy-ekstremistik guruhi respublikamizda faol harakat qilishga urinmoqdalar.

So'nggi yillarda mutaassib oqimlar yoshlar ichidagi faoliyatini xorijiy mamlakatlardagi mehnat migrantlarini ta'sir doirasiga olish, "Internet" orqali targ'ibot o'tkazish, oila a'zolari, yaqinlari va qo'shnilarini o'z guruhiga tortish, yashirin "hujralar" tashkil etish, diniy-ekstremistik mazmundagi materiallarni bosma, elektron ko'rinishda tarqatish kabi usullarda amalga oshirmoqda.

Mutaxassislarning fikricha hozirda 100 mingdan ortiq ekstremizmning turli ko'rinishlarini o'zida tashuvchi g'oyalar targ'iboti bilan shug'ullanuvchi saytlar faoliyat olib bormoqda.

Internet orqali suhbat olib borish jarayonida yoshlarga kufr diyori, hijrat, jehod, shahidlik, xalifalikni tiklash kabi g'oyalar singdirilib, ular turli to'qnashuv va nizo o'choqlariga jalb qilinmoqda.

Muayyan siyosiy kuchlarning nog'orasiga o'ynayotgan diniy-ekstremistik va terrorchi oqimlar tomonidan u yerlarda amaliyotni o'tab

kelgan aqidaparast, diydasi qotgan, mustaqil fikrlashdan mahrum, rahnamolarining har qanday buyruqlarini qonun deb biluvchi zombi jangarilardan tinch mintaqalarda ham turli nizolar va beqarorliklarni keltirib chiqarishda foydalanish maqsadi bugun ko'pchilikka ayon haqiqatdir.

Ayniqsa, "jihodchi" guruhlar o'z safiga yangi shaxslarni jalb etishda internet va ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanmoqda.

Turli internet saytlari, "Odnoklasnik", "Ttwitter" kabi ijtimoiy saytlarda tashkil etilgan turli nomlardagi forum va guruhlar, "You Tube" portalidan keng foydalanilmoqda.

Mazkur guruhlarining targ'ibotchilari ko'p vaqtini internetda o'tkazuvchi, vaqtincha ishsiz, xorijda pul topish ilinjida yurgan va ijtimoiy holatdan norozi shaxslarni o'z saflariga qo'shish maqsadida ular bilan go'yoki "musulmonlarning azoblanayotgani" suhbatlar olib boradilar.

So'ngra islom olamidagi "muammolar" sanab o'tilib, aybdorlar sifatida dunyoviy davlat va jamiyat ko'rsatiladi. Bundan keyin esa barcha muammolarning "yechimi" sifatida "kofirlarga" qarshi "jihod" qilish taklif etiladi.

Buning uchun esa avvalambor "hijrat" qilish lozimligi uqtiriladi. Bilimsiz, o'z mustaqil fikri va atrofdagi hodisalarni tahlil etish malakasiga ega bo'lmagan

Yoshlar bunday da'vatlarga uchib, aqidaparast oqimlarga moyil bo'la boshlaydilar. Qisqa qilib aytganda "ijtimoiy tarmoqlar"

“ekstremistik qarmoqlar” vazifasini o‘tamoqda. Aslida esa, yoshlarni o‘z safiga chorlayotgan, o‘zini “mujohid” deb tanitayotgan kimsalar tinch aholini qatl etmoqda, ayol-qizlarni xo‘rlab, nomuslariga tajovuz qilmoqda. Norasida bolalarni o‘ldirmoqda. Islomning beshinchi arkoni bo‘lgan haj amalini bajarishga borayotganlarni “toshga sig‘inuvchilar” deb e‘lon qilib, ularga tahdid qilmoqda. Dinimiz qiblasini bo‘lgan muqaddas Baytullohni vayron qilishga va‘da bermoqda. Uy-joylar, maktab va kutubxonalar, qishlog‘ushaharlarni buzib, mo‘ysafid otaxon, mushipar onalar, norasida go‘daklarni ko‘chalarda sargardon qilmoqda. Ming taassufki, bizning yurtimizdan ham ayrim yoshlar ota-onasini qon yig‘latib Suriya, Iroq kabi fitna o‘choqlariga ketib qolmoqdalar. U yerlarda diydasi qotgan jallodlarga aylangan bu johillar yurtiga qurol o‘qtalib o‘z xalqi, ota-onasi va dindoshlariga tahdid bilan dag‘dag‘a qilishdek tubanlikka yuz tutyaptilar.

Aqidaparastlik jamiyatimizdagi fuqarolarni “haqiqiy” va “soxta” dindorlarga ajratishi bilan ham tahdid solmoqda. Bunday harakatlarning oddiy misollari sifatida go‘yoki islomiy libos deb ilgari surilayotgan “hijob” masalasiga haddan tashqari urg‘u berish, dunyoviy hayot kechiruvchi fuqarolarni go‘yoki “imoni sust” sifatida ko‘rishni qayd etish mumkin.

Ta’kidlash joizki, bunday fitna chiqarishlar qanday oqibatlarga olib kelishi Afg‘oniston, Pokiston va Jazoirda sodir bo‘lgan hamda hozirda Iroq va Suriya davlatlarida yuz berayotgan voqealardan bizga ma’lum. Barcha buyumlarni “halol” va “harom”ga ajratishda g‘uluvga ketish oqibatida ba’zi qo‘shni mamlakatlarimizda hattoki “halol taksi”

chiqqanini qanday izohlash mumkin? Vaholanki, islom dini o‘rtalik, mo‘‘tadillikka chaqiradi.

Darhaqiqat hozirgi kunga kelib diniy-ekstremistik tashkilotlar keng tarmoqli tizimga aylanib ulgurdi. Bu chuqur o‘ylangan strategiyaning bir qismidir. Avvalo, barcha ekstremistik tashkilotlar bir tadqiqot markazlari, ta‘bir joiz bo‘lsa, “g‘oyaviy laboratoriya”lar mahsuli ekanini alohida qayd etishimiz lozim.

Birinchi guruh qatoriga “Tablig‘chilar” jamoasi tashkilotini kiritish mumkin.

Ikkinchi guruhlar qatoriga “Nurchilar”, “Hizbut-tahrir” kabi diniy-ekstremistik tashkilotlarni kiritish mumkin.

Uchinchi guruhga esa barcha jihodiy, soxta “salafiy” jamoalar kiradi. Diniy-ekstremistik ruhdagi terrorchi tashkilotlarning strategik maqsadlari, avvalo, go‘yoki, shariatga asoslangan davlat tuzish bo‘lib, bu bir necha bosqichda amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

“Turkiston islom harakati” (Sobiq “O‘zbekiston islom harakati”) diniy-ekstremistik va terrorchi tashkilot.

Asoschisi va yuzaga kelish tarixi. Ushbu tashkilot 1996 yilda “O‘zbekiston islom harakati” nomi ostida tashkil etilgan. Haraktni shakillantirishda 1992-1993 yillarda O‘zbekistonda faoliyati ta‘qiqqlangan “Adolat uyushmasi” (Namangan), “Islom uyg‘onish partiyasi” (1990 yil Astraxanda asos solinib, 1991 yil yanvaridan O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatgan) “Odamiylik va insonparvarlik”

(Qo‘qon), “Turkiston islom partiyasi”, “Islom lashkarlari” (Namangan) kabi diniy ekstremistik guruhlarining sobiq faollari ishtirok etgan.

Tashkilot g‘oyalari va asoslari. Tashkilotning asosiy maqsadi Markaziy Osiyo hududida “Buyuk islom xalifaligi”ni tuzish, unda musulmonlar yashaydigan Kavkaz va Rossiya Federatsiyasining Volga bo‘yi respublikalarini qamrab olishdan iborat.

Harakat strategiyasi. Tashkilot o‘z maqsadiga erishish uchun qo‘paruvchilik va terrorchilik haraktlarni amalga oshirish, harbiy harakatlar uyushtirish, odamlarni garovga olish orqali mintaqadagi ichki siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish kabi vositalardan foydalanadi.

“Turkiston islom harakati” so‘ngi yillarda talofatlar, strukturaviy o‘zgarishlar, rahbar a'zolar orasidagi yo‘qotishlarga duch keldi. Hozirda g‘oyaviy targ‘ibot kuchaytirilib, bosma va elektron nashrlar tarqatilishiga katta urg‘u berilmoqda.

Akromiylar. Respublikamiz hududida tashkil topib, hozirda faoliyati deyarli to‘xtatilgan noan‘anaviy ham islom ta‘limotiga ham konstitutsiyaviy davlatchilik asoslariga zid bo‘lgan guruh “Akromiylar”dir.

Akromiylar 1996-1997-yillarda Andijonda tashkil topib, uning nomi guruh asoschisi 1963-yilda tug‘ilgan Yo‘ldoshev Akrom nomi bilan bog‘liq. A. Yo‘ldoshev Xizbut at-tahrirning etakchisi an-Nabahoniy g‘oyalari asosida 12 darsga mo‘ljallangan “Imonga yo‘l” risolasini yozgan. Shu sababdan akromiylarni “Imonchilar” deb ham yuritiladi. Akromiylar ham davlat tepasiga chiqish kabi g‘arazli maqsadlarni ko‘zlaydilar.

Biroq, ular taxrirchilardan farqli o'laroq, xalifalik davlatini mahalliy sharoitdan kelib chiqib, avvalo Andijonda, so'ng Farg'ona vodiysida amalga oshirmoqchi bo'ldilar. Akromiyalar siyosiy xokimiyatga erishishning 5 bosqichini rejalashtirganlar - "sirli", "moddiy", "uzviy", "maydon" va "oxirat". To'rtinchi va beshinchi bosqichlar tamomila islomlashtirish davri tugagach boshlanishi va ochiqdan-ochiq hokimiyat uchun kurash bosqichlari bo'lmog'i lozim edi.

Bu guruh a'zolari asosan hunarmandlardan iborat bo'lib, ular rasmiy ishxonalardan bo'shab, jamoa ma'qullagan mehnat faoliyati bilan shug'ullanganlar. Zarurat tug'ilganda "birodarlari"ga "jamoabanki"dan moddiy yordam berganlar. Undan tashqari jamoa a'zolariga tashkiliy ravishda oziq-ovqat mollari tarqatib turilgan. Quda-andachilik faqat "birodarlar" o'rtasida amalga oshirilgan.

Soxta salafiylik "Salaf" so'zi lug'atda - "avval yashab o'tganlar", "ajdodlar", "o'tmishdoshlar" degan ma'nolarni anglatadi. Shar'iy istilohda "salaf" so'zi muayyan bir davr bilan bog'liq ma'noni anglatadi.

Ya'ni, Nabiy alayhissalom zamonlarida va undan keyingi ikki asrda yashagan musulmonlar "salafi solih", ya'ni, "solih ajdodlar" deyiladi. Bu borada Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam o'zlarining muborak hadislarida shunday deganlar:

Abdulloh ibn Mas'ud raziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Nabiy sallallohu alayhi vasallam shunday dedilar: "Eng yaxshi davr mening davrim, so'ng ularga yaqin bo'lgan, so'ng ularga yaqin bo'lgan davrlardir. So'ngra shunday insonlar keladiki, ularning guvohliklari

qasamlaridan, qasamlari esa guvohliklaridan o‘zib ketadi” (Imom Buxoriy va Muslim rivoyatlari).

Mazkur hadisga ko‘ra, Islom ulamolari Muhammad sallallohu alayhi vasallam zamonlarida va undan keyingi ikki davrda yashagan musulmonlarni “salafi solih”, ya’ni, “solih ajdodlar” deb tavsiflaydilar. Ulardan keyingi davrlarda yashagan musulmonlarga nisbatan bu nomlar qo‘llanilmaydi.

Ahli sunna val-jamo'a an'anasiga ko‘ra, salafi solihlar davridan keyin yashagan musulmonlar “xalafar”, ya’ni “keyingilar” deb ataladi. Xalaf ya’ni, keyingi asr olimlari daraxt o‘z ildizidan oziqlangani kabi salafi solihlarning qarashlari asosida shakllandilar.

So‘nggi yillarda “salaf solihlarga ergashish” shiorini niqob qilib olgan, mutaassib ko‘rinishdagi soxta salafiylar barcha aqidaviy va hukmiy masalalarni hijriy sananing dastlabki uch asriga muvofiq ravishda hayotga tatbiq etishni targ‘ib qilsalarda aslida, ularning qarashlari asosan 18-asrning o‘rtalarida yashab o‘tgan najdlik Muhammad ibn Abdulvahhobning mutaassibona g‘oyalari ustiga qurilgandir. Muhammad ibn Abdulvahhobning qarashlari esa Islom dinida birinchi bo‘linishga sabab bo‘lgan Xavorijlar aqidasi bilan yo‘g‘irilgan.

Bu oqim a‘zolari diniy masalaning yechimini topishda faqat oyat yoki hadisni uzuq-yuluq holda keltirib, unga yuzaki yondashib, go‘yo muammoga javob topgan bo‘ladi. Ularning bu uslubi avom xalqqa oson tushunilgandek, go‘yo to‘g‘ridek tuyuladi. Shu yo‘l bilan ham ular o‘z tarafdorlari sonini ko‘paytirishga urinadi.

Salafiylik g'oyasi tarafdorlarining asosiy maqsadlari Qur'on va sunnatni o'zlaricha mahkam tutish va qariyb 13 asrdiki Islom ummatining birdamligini ta'minlab kelayotgan fiqhiy mazhablarni yo'q qilib, ularni ildizi bilan qo'porib tashlashdan iborat.

Ularning da'vosiga ko'ra, go'yo musulmonlarning ixtilofdan najot topishi faqat Qur'on va hadisni qattiq ushlash bilan bo'ladi, mazhablar mavjud bo'lar ekan, Qur'on va hadisni mahkam ushlash amri mahol emish.

Go'yoki bu bilan ular Qur'on va sunnatni mahkam tutishmoqda-yu, butun ummat e'tirof etgan va avalgi 3 asrda yashab o'tgan mazhab boshilar uni mahkam tutishmagani iddao qilishlarini anglash qiyin emas.

Voqe'likda esa, ular mazhablar orasidagi juz'iy ixtiloflarni qoralagan holda, hammani mazhabni tashlashga hamda Qur'on va hadislarni o'rganib, tushunganicha ularga amal qilishga, boshqacha qilib aytganda, hammani o'zi ijtihod qilishga chaqiradilar. Bu esa, shubhasiz, yanada ixtiloflar va qarama-qarshi fikrlarning ko'payishiga olib keladi. Agar mazhablar orasidagi ixtiloflar ma'lum chegara bilan cheklangan bo'lsa, mazhabsizlikning bu da'vati esa cheksiz ixtiloflarga sabab bo'ladi va musulmonlar hayotida dahshatli falokatlarni keltirib chiqaradi.

Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, fiqhiy mazhablar orasidagi juz'iy ixtiloflar sahobalar va tobeinlar orasida mavjud bo'lgan ixtiloflar ta'sirida yuzaga kelgan. Rasululloh sallallohu alayhi vasallam:

ya'ni "Sahobalarimning ixtilofi sizlar uchun rahmatdir", - deb marhamat qilganlar (Imom Bayhaqiy, Imom Tabaroniy va Imom Daylamiy rivoyat qilishgan).

Qolaversa, asrlar davomida barcha musulmonlar amal qilib kelgan an'anaviy mazhablarni va unga ergashgan mo'min-musulmonlarni adashganlik va zalolatda ayblashning o'zi ulkan bo'xtondir. Bu Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallamning muborak sunnatlariga ham to'g'ri kelmaydi. Zero u Zot:

ya'ni "Alloh ummatimni biror zalolatga jamlamas", - deya marhamat qilganlar (Imom ibn Moja va Imom Tabaroniy rivoyatlari). Mashhur sahoba Abdulloh ibn Mas'ud raziyallohu anhu shunday deydilar:

ya'ni: "Musulmonlar yaxshi deb bilgan narsa Allohning huzuruda ham yaxshidir" (Imom Ahmad rivoyatlari).

Soxta salafiylar dunyoning qayeriga bormasin, musulmonlar orasida tushunmovchiliklar, ixtiloflar va tashvishlar avj oladi. Bugungi kunda ularning axli sunna val-jamoadan og'ishganligi, ular na saxobalar va na tobe'inlar yo'lidan yurmayotganlari o'z isbotini topib ulgurgan.

Ko'plab ulamolar tomonidan ularning buzg'unchi g'oyalariga nisbatan ilmiy raddiyalar e'lon qilingan. Jumladan XIX asrda yashab, ijod etgan mashhur hindistonlik olim Muhammad Siddiq Hasan al-Qanujiy (1832-1890) soxta salafiylar haqida fikr bildirib, shunday deydi: "Hozirgi kunda bir riyokor va shuhratparast guruh paydo bo'lgan bo'lib, ular Qur'on va hadisni bilish va unga amal qilishni da'vo qilmoqda... Ajablanarlisi shundaki, ular o'zlarini eng ixlosli va eng taqvodor, deb

boshqalarni mushriklar deb nomlamoqda. Ular eng mutaassib va dinda g‘uluvga ketgan kishilardir. Bu dindan emas, balki Yer yuzida tarqalgan fitna va katta fasoddir” (“Taqlidu-l-aimma” 16-17 betlar].

O‘tgan asrimizning ko‘zga ko‘ringan yetuk allomalardan biri marhum Shayx Muhammad Said Ramazon Butiy rahimahulloh o‘zlarining “salafiyalar” deb atayotganlarga raddiya sifatida “Salafiylik islomiy mazhab emas, balki u muborak davr bosqichidir” nomli asarlarida jumladan shunday deydilar: “Islom dinining o‘tagan o‘n to‘rt asrlik tarixi davomida biror mo‘tabar imom yoki ulamodan eshitmaganmizki, musulmonlarning hidoyatda bo‘lishlarining hujjati “salafiyalar” deb nomlagan guruhga mansub bo‘lish hisoblansa. Balki, “salafiylik” degan guruhga mansub bo‘lishning o‘zi ayni bid’atdir” (231-232-betlar).

Xulosa qilib aytganda ota-bobolarimiz, ming yillik mu‘min-musulmonlar barchasi ahli sunna val-jamoa ta’limotida bo‘lib kelishgan. Birok, yigirmanchi melodiy asrning o‘rtalariga kelib, ahli sunna val-jamoadan og‘ishgan vahhobiylik oqimi tizimidan sizib, yangi va soxta salafiylik yuzaga keldi. Asrlar davomida Islom ulamolari tomonidan yozilgan asarlar va orttirilgan malaka, erishilgan yutuqlarni rad etib, faqatgina “salafi solihlar” davrini e’tiborga olish da’vosida bo‘lish soxta salafiylikning tor mohiyatini namoyon etadi.

Bugungi kunimizda yurtdoshlarimiz ichida hali ham bilib-bilmay soxta salafiyalarning asossiz da’volarining ta’sirida yurgan kishilarning mavjud ekanligi ushbu toifaning ildizlarini o‘rganib, uning asl mohiyatini ochib berish, uni odamlarga, xalqimizga to‘g‘ri tushuntirib

berish dolzarb ekanligini bildirmoqda. Ayniqsa, bizning eng asosiy vazifamiz yoshlarni bunday soxta salafiylar domiga tushib qolishdan asrashimiz va buning uchun esa doim ogohlik bilan ularga qarshi ilmiy raddiyalar berib borishimiz kerak bo‘ladi.

Vahobiylik XVIII asrda Arabiston yarim orolida vujudga kelgan dini-siyosiy oqimdir. Uning asoschisi Muhammad ibn Abd al-Vahhob 1703 yili Arabiston yarim oroli Najd o‘lkasining al-Uyayna degan joyida tavallud topgan. Bu davrda uning otasi Abd al-Vahhob ibn Sulaymon mustaqil mahalliy amir hokimiyatida qozilik lavozimida xizmat qilar edi. Muhammad yoshligidan diniy ilmlarni o‘z otasi rahbarligida o‘rgana boshladi. U an’anaga ko‘ra, Qur’onni yod oldi, tafsir va hadis ilmlari bilan tanisha boshladi. Bir necha bor Misr, Suriya, Ko‘rdiston, Iroq, Eron mamlakatlarida bo‘lib, ko‘pincha ulamolar suhbatida o‘zining janjalkashligi va mutaassibliigi bilan ajralib turgan.

U o‘z targ‘ibotchilik faoliyatini 1730 yillarda boshlab, birinchi maqsadi o‘ziga munosib homiy topish bo‘ldi. 1745 yili Muhammad ibn Abd al-Vahhob ad-Diriyya vodiysiga uning amiri Muhammad ibn Saud taklifiga binoan ko‘chib o‘tdi. Bu bilan Muhammad ibn Saud o‘z hokimiyatini kuchaytirishda vahhobiylikdek mafkuraviy qurolga ega bo‘ldi.

Vahhobiylar o‘zlari xohlagan jamoani kufirda yoki shirkda ayblashlari va unga qarshi jihod e‘lon qilishlari mumkin edi. Ibn Saud esa bu jihodni amalga oshirib, o‘z hokimiyati chegaralarini kengaytirishni boshladi. Muhammad ibn Abd al-Vahhob 1792-yili vafot etdi. Ibn Saud va uning sulolasi vaxhobiylik bayrog‘i ostida olib borgan

urushlari 1932-yilda Saudiya Arabistoni davlatining tuzilishi bilan yakunlandi.

Vahhobiylik ta'limoti diniy masalalarda din fundamenti, ya'ni Payg'ambar davri voqeyiliklariga qaytishni talab etdi. Ular barcha muxoliflarini bid'atchilikda, ya'ni dinga yangilik kiritganlikda aybladilar, o'zlarining siyosiy dushmanlarini esa mushriklikda ayblab, ularga qarshi jihad olib borishga fatvo berdilar.

Axloqiy masalalarda nazariy jihatdan, garchi shaxsiy kamtarlik, mol-mulkka hirs qo'ymaslik, dunyoviy hayotda toat-ibodatga aksariyat vaqtni sarflashni targ'ib 173 qilsalarda, lekin amalda saroy ahlining bosqinchilik urushlari qo'shni qabilalar mol-mulklarini talash oqibatida gap bilan amal o'rtasida ziddiyat paydo bo'ldi. Vahhobiylik harakatlari Usmoniylar imperiyasi (1453-1924) hududlarida vujudga kelganligi va imperiya bilan bu harakat o'rtasida bir necha qonli to'qnashuvlar yuz berganligi tufayli bu oqimda turk islomiga qarshi bo'lgan kuchli kayfiyat o'z aksini topdi.

Imperiyaning markaziy hududlarida hanafiylik mazhabi mutlaq hukmron mavqega ega bo'lganligi uchun mazkur maktab qoidalari qattiq tanqid qilindi.

Shuningdek, vahhobiylik harakati mafkurasining markazida avvaliga Arabiston erlarini birlashtirish orqali, keyinchalik butun islom dunyosida islom davlatini shakllantirish g'oyasi ham mavjud edi. Ular bu maqsad yo'lida har qanday qurbonliklarga tayyor edilar. Vahhobiylarning chet ellarda ko'plab tashkilotlari bo'lib, ular faol harakat olib boradilar.

Ularning ko'pchiligi yashirin siyosiy faoliyat olib boradi. Ish uslublari - diniy hissiyotlari kuchli bo'lgan fuqarolarni jamiyatlarga tortib, ularni qayta tarbiyalash, so'ng ulardan tashviqot va ijtimoiy tartibbuzarlik, ekstremistik harakatlarda foydalanish. Bu ishlarga, ayniqsa, yoshlarni, bolalarni, hayot tarzidan norozi bo'lgan shaxslarni jalb qiladilar. Xayriya fondlari orqali mayib-majruhlarga, etim-yesirlarga yordam, diniy ta'lim berish, turli diniy adabiyotlarni tarqatish kabi yo'llar bilan keng targ'ibot ishlarini olib boradilar. Kishilarga fanatizm, murosasizlik, o'zgarar fikrlari va manfaatlariga hurmatsizlik ruhini singdirishga urinadilar.

Ixvon al-muslimun. XIX asr dastlabki yillaridan islom dini tarqalgan mamlakatlar iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hayotida katta tarixiy o'zgarishlar yuz bera boshladi. Bu o'zgarayotgan yangi sharoitlarga diniy-falsafiy, huquqiy normalarning XIX asr yarmidan boshlangan moslashuvi fanda "Islomiy islohotlar" nomini oldi. Lekin bu jarayon haddan tashqari cho'zilib ketdi va ko'p sohalarda ziddiyatli hollarni keltirib chiqardi. Ular orasida panislamizm va musulmon jamoalarining boshqa konfessiyalardan ajratish g'oyasini aytishimiz mumkin. Panislamizm g'oyasini birinchi bo'lib ilgari surgan Jamoliddin al-Afg'oniy (1839- 174 1897) hisoblanadi.

U diniy-siyosiy arbob bo'lib, 1884 yili Parijda Muhammad Abdux (1849-1905) bilan birgalikda "al-Urvat al-vusqo" jurnalini nashr etdi va unda panislamizm g'oyalarini targ'ib qila boshladi. Afg'oniyning g'oyalarini keyinchalik "Musulmon birodarlar" ("al-Ixvon al-muslimun") radikal shakllarida rivojlantirildi. Al-Ixvon al-muslimun - 1928 yili Misrning Ismoiliya shahrida Misrlik shayx Xasan al-Banno

tomonidan tashkil etilgan diniy-siyosiy tashkilot. Xasan al-Banno Jamoliddin al-Afg'oni, Muhammad Abduh, Rashid Rizo asarlaridan ta'sirlanib, panislamizm g'oyasida "jihad", "islomiy millatchilik", "islomiy davlat" ta'limotlarini ishlab chiqdi. Ixvon al-muslimun bu ta'limotlar asosida islom dini tarqalgan mamlakatlarda

Qur'on va shariatda ifodalangan qoidalarga to'lik rioya qiluvchi, "islomiy adolat" printsiplari o'rnatilgan jamiyat qurish uchun siyosiy kurashni boshlab yubordi. Ixvon al-muslimun o'z tarixida bir necha bosqichlarni bosib o'tdi.

1928- 1936- yillardagi davrni xayriya va ma'rifatchilik bosqichi deb atasa bo'ladi. Keyinchalik u kurash uslubi sifatida terrorni qo'llash darajasiga etgan siyosiy tashkilot sifatida maydonga chiqdi. Ko'plab davlatlarda uning faoliyati taqiqlandi.

Keyingi davrda ixvon al-muslimun orasida bo'linish yuz berib, ular 3 yo'nalishga bo'linib ketdi: 1. "mo'tadillar" - Xasan al-Banno va Sayyid Qutb tarafdorlari; 2. "islom demokratlari" - "islom sotsializmi" ta'limoti tarafdorlari; 3. "at-Takfir va-l-xijra", "al-Jixod", "Xizb at-Taxrir al-islomiy" kabi terror uslubini qo'llovchi tashkilotlar.

Xizbut at-Tahrir 1952 yili Quddus shahrida falastinlik ilohiyotchi Taqiy ad-din an-Nabahoniy (1909-1979) tomonidan asos solingan diniy-siyosiy partiya. U Xayfada tug'ilib o'sgan, Qohiradagi "al-Azhar" universitetida ta'lim olgan. Partiyaning asosiy maqsadi - avval arab davlatlari miqyosida, keyin islom dunyosi miqyosida va nihoyat jahon miqyosida xalifalik shaklidagi islom davlatini tuzish. Ularning asosiy da'vosi - Mustafu Kamol Otaturk tomonidan 1924-yili 175 Usmoniy

xalifa Ikinchi Abd al-Majid (1922-1924) xalifalikdan g'ayriqonuniy chetlatildi. Davlat diniy-islomiy qonunlar asosida xalifa tomonidan idora etilishi lozim.

Partiya dasturi 187 banddan iborat bo'lib, asosiy maqsadi - hokimiyatga erishish. Bunday asosiy yo'l - islomiy fikrlovchi shaxslarni shakllantirish. Ularga islomiy ta'lim-tarbiya berish ikki bosqichdan iborat:

1) u bilan islom ta'limotini o'rgatish yo'lida madaniy-ma'rifiy ishlar olib borish;

2) siyosiy faoliyatga tortish. Maqsadga erishish uchun kurash uch bosqichdan iborat:

1. g'oyaviy-fikriy kurash; 2. jamiyatda g'oyaviy inqilobni amalga oshirish; 3. hokimiyatga faqatgina umma - jamoaning to'liq roziligidan so'ng kelish.

Xizbut at-Tahrir tarafdorlari ko'pgina musulmon davlatlari, jumladan Tunis, Iroq, Jazoir, Sudan, Yaman va boshqalarda o'z faoliyatlarini yashirin olib bormoqdalar. Uning hozirgi kundagi rahbari Abd al-g'adim az-Zallumdir.

Xizbut at-Tahrir tuzilish jihatidan piramida shaklidir. Har bir guruh (xalqa) alohida-alohida bo'lib, 5-6 kishidan iborat. Guruhlarning o'quv ishiga "mushrif" rahbarlik qiladi. Undan tashqari guruhda yana bir rahbar - "amir" bo'lib, u mushrifga mashg'ulotlarni o'tkazishda bevosita yordam ko'rsatadi. Mushrif bir vaqtning o'zida bir necha guruhda ta'lim ishlarini olib borishi mumkin. O'qish davomida tinglovchilar diniy

mavzudagi mashg'ulotlar bilan birga siyosiy, jumladan, musulmon davlatlarida sodir bo'layotgan voqealarni diqqat bilan o'rganadilar.

O'zbekiston hududida 1992-yildan boshlab partiyaning boshlang'ich bo'linmalari tashkil etila boshlagan. Partiya safiga kiruvchilar o'z partiyalari haqidagi ma'lumotlarni hech qachon oshkor etmaslikka o'z mushrifi buyurgan vazifalarni so'zsiz bajarishga Qur'on bilan qasam ichadilar.

Partiya mutasaddilari o'z tarafdorlarini ko'proq ziyolilar, ilmiy xodimlar, talaba yoshlar orasidan qidiradilar. Yetarli ta'lim olgan shaxslar keyinchalik o'zlari mustaqil guruh tuzishlari lozim. Taxrirlarning ta'limi bosqichma-bosqich olib boriladi.

Birinchi bosqichda "Islom nizomi" va "Izzat va sharaf sari" kitoblari bo'yicha o'qitiladi, "al-Vay" jurnalidagi ma'lumotlar muhokama qilinadi. Keyingi bosqichlarda "Demokratiya kufr nizomi", "Siyosiy ong", "Xalifalikning tugatilishi", "Xizbut attahrir tushunchalari", "Islomiy da'vatni yoyish vazifalari va sifatleri" kabi kitoblari o'qitiladi.

Bu adabiyotlar partiya manfaatlarini ko'zlab, Qur'on oyatlari va hadislarini noto'g'ri talqin qilib dindorlar ongiga ta'sir qilish mo'ljallangan. Ushbu nashrlar dindorlarni siyosilashtirilgan islomga targ'ib etib, ularni fuqaroviy bo'ysunmaslikka va muomaladagi umumiy qoidalarni inkor etishga chaqiradi.

Hozirgi zamon islom ulamolari -Yusuf Qarzoviy, Sayyid Muhammad atTantoviy, Nosir ad-din al-Alboniylar Xizbut at-tahrirni

oxod hadislarga, qabr azobiga, sirot ko'prigiga ishonmasliklari uchun ularni axl as-sunna va-l-jamo'a safidan chiqqan hisoblaydilar.

”Nurchilik” (turkcha-Nurculuk) diniy-fundamental harkat. Xalq tilida “Nurchilar” degan nom bilan ham mashhur.

Asoschisi va yuzaga kelish tarixi. “Nurchilik” harakatining asoschisi Turkiyaning Bitlis viloyatidagi Nursa qishlog'ida tug'ilgan Said Nursiy (1876-1960) bo'lib, “Badiuzzamon” (arabcha-zamonaning buyugi, benazir) laqabi bilan tanilgan.

Harakat uning asoschisi tomonidan XX asirning 20-yillaridagi Turkiyadagi siyosiy va diniy vaziyatning o'zgarishi tasirida, xususan Usmoniylar xalifaligi ag'darilgandan keyin hokimyat tepasiga kelgan Mustafo Kamol Otaturkning dunyoviy davlat tuzishiga muxolif ravishda shakillantirilgan. Said Nursiy Turkiya Respublikasi konstitusiyasiga tahdidi va shariatga asoslangan davlat tuzishni uyushtirishda ayiblanib, 23 yil davomida qamoqda saqlangan.

Tashkilot g'oyalari. Harakat o'z faoliyatida Said Nursiy tomonidan yozilgan, uning talqinidagi Quroni karim oyatlari sharhlari va diniy ko'rsatmalarini o'z ichiga olgan “Risoi Nur” kulliyotida bayon etilgan g'oyalarga asoslanadi hamda undan boshqa barcha manbalar inkor etiladi. “Nurchilar” Turkiyaning amaldagi davlat tuzumi o'rniga islom shariatiga muvofiq qonun-qoidalarni joriy qilish orqali g'arazli maqsadlarga yetishni ko'zlaydi. Keyingi bosqichlarda, go'yoki turkiyzabon davlatlarni Turkiya soyasida birlashtirib, “islomiy davlat”ni barpo etish g'oyasi ilgari suriladi. Bunda harakat rahnomasi Fathulla Gyulenning “Butun Yer yuzi Allohning mulki, uni bu meniki, bu seniki, deb bo'lib olishga hech kimning haqqi yo'q” degan fikr ostida

boshqa xalqlarni Vatan tuyg‘usidan ajratib, ular ustidan hukimronlik o‘rnatish ko‘zlanadi.

5. O‘zbekistonda radikal oqimlarga qarshi kurashning yo‘nalishlari va huquqiy asoslari.

Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma‘naviy-ma‘rifiy asoslari. Musulmon mamlakatlarining diniy ekstremizmga qarshi kurash strategiyasi umuman olganda, har bir davlatning o‘ziga xos xususiyatlari va ustuvor yo‘nalishlaridan qat’i nazar, bilvosita va bevosita qarshilik ko‘rsatish usullarini o‘z ichiga oladi.

Bilvosita choralarga rasmiy diniy tashkilotlar bilan hamkorlik, zo‘ravonlikka qarshi kurashda diniy arbob va muassasalarning ahamiyatini oshirish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma‘rifiy chora-tadbirlarni amalga oshirishga yordam beradigan dasturlarni kiritish mumkin.

Bevosita qarshilik ko‘rsatish o‘z ichiga huquqni muhofaza qilish idoralari tomonidan ko‘riladigan choralarni, aksilterrorchilik qonunlarini qabul qilish, ulardan keng foydalanish kabi tadbirlarni oladi.

Diniy ekstremizm Markaziy Osiyo davlatlarining dunyoviy prinsiplariga, xalqimizning ma‘naviy qadriyatlariga ham ta‘sir o‘tkazmoqda. O‘zbekiston davlati buni oldini olish maqsadida izchil siyosat olib bormoqda. O‘zbekistonning diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi xalqaro maydonga izchil olib borayotgan siyosati tinchlik va barqarorlikni saqlash, xalqning farovon hayotini ta‘minlashga qaratilgan.

Bugungi kunda BMTning terrorizmga qarshi kurashga doir 14 tadan ortiq asosiy hujjatlari bo'lib, O'zbekiston bu konvensiya va protokollarni imzolagan va izchil ijro etib kelmoqda.

O'zbekiston davlati "Terrorizm, separatizm va ekstremizm bilan kurash haqidagi Shanxay konvensiyasi (Shanxay 15.06.2001)"ni bajarishda faollik ko'rsatmoqda.

Xalqaro terrorizmga qarshi Shanxay hamkorlik tashkiloti tomonidan bir qancha ishlar olib borildi. Shanxay hamkorlik tashkiloti Xitoy, Rossiya, Tojikiston, Qirg'iziston hamda O'zbekiston davlatlari o'rtasida 2001-yil 15-iyundan tashkil topgan. Uning asosiy maqsadlaridan biri mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, terrorizm, ekstremizmga qarshi birgalikda kurashish tashkilotning asosiy sohalariga kiradi.

O'zbekiston 2001-yil SHHTga a'zo bo'ldi. 2022-yil 15-16-sentabr Samarqand shahrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida SHHT davlat rahbarlari kengashining 22-majlis tadbirlari bo'lib o'tdi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta'kidlaganidek, bugungi kunda terrorizm, ekstremizm tahdidlari tobora kuchayib, yangi shakllar kasb etayotganini inobatga olib, Shanxay Hamkorlik Tashkilotining mintaqaviy aksilterror tuzilmasini tashkilot maqomida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha prinsipial jihatdan yangi vazifalarni hal qilishga moslashtirish zarurligi qayd etildi.

Pzeridentimiz Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida" qayd etganidek "O'zbekiston Respublikasi o'z tarixida ekstremizm va terrorizm bilan bog'liq holatlarga bir necha marta duch

kelgan. Ushbu yo'nalishda xavf-xatar, tahdid va tahlikalar saqlanib qolayotganini hisobga olgan holda, davlatimiz bundan buyon ham keng jamoatchilik va xalqaro hamjamiyat bilan birgalikda ekstremizm va terrorizm hamda ularni moliyalashtirishga qarshi kurashishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshiradi .

Bu sohadagi asosiy maqsadimiz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy tizimini himoya qilish, milliy xavfsizlik, shuningdek, fuqarolarning ushbu sohadagi huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga imkon beradigan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha samarali davlat siyosatini amalga oshirishdan iborat bo'lib qoladi".

Zamonaviy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash davlatlarning doimiy e'tiborini, uning oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan ko'pqirrali siyosatni amalga oshirishda o'zaro hamkorlik va sobitlikni talab etadi. Xalqaro terrorizmga qarshi kurashda dunyo hamjamiyatlari keng faoliyat olib bormoqda. Islom olamidagi nufuzli tashkilotlar ham hozirgi kunda er yuzda tinchlikni saqlash, har tamonlama aloqalar olib bormoqda.

Islom dini hozirgi kunda musulmon mamlakatlarining tashqi va ichki siyosatida, xalqaro munosabatlarda muhim o'rin tutmoqda. Islom dunyosiga mansub mamlakatlarning jahon iqtisodiyoti va ijtimoiy rivojlanishdagi o'rni ortib bormoqda. Hozirgi kunda ko'plab xalqaro va mintaqaviy darajadagi islomiy tashkilotlar mavjud.

Ular ichida eng nufuzli tashkilotlardan biri "Islom hamkorlik tashkiloti " hisoblanadi. "Islom hamkorlik tashkiloti" 1969-yilda 25-sentabr Marokashda Islom davlati rahbarlarining 1-yig'ilishida tashkil

topdi. Dastlab bu tashkilotga Osiyo va Afrikaning 25 ta davlati a'zo bo'lgan. Endilikda 57 tadan ortiq davlat a'zo bo'lib kirgan.

Tashkilot faoliyatida quyidagilar asosiy maqsad sifatida belgilangan:

- Islom birdamligini rag'batlantirish
- Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ilmiy va boshqa sohalarda hamkorlikni mustahkamlash
- Tinchlik va xavfsizlikni saqlash uchun tadbirlar belgilash.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida qayd etganidek “O'zbekiston Islom hamkorlik tashkiloti bilan ham izchil o'zaro hamkorlikni rivojlantirmoqda va uni muqaddas Islom dini qadriyatlarini saqlash hamda rivojlantirish, musulmon xalqlar orasidagi birdamlikni mustahkamlash, ularning taraqqiyoti va ravnaqiga ko'maklashishga qaratilgan samarali bo'g'in sifatida baholaydi. Bu borada biz Islom hamkorlik tashkilotining 2016-2025-yillarga mo'ljallangan O'n yillik harakatlar dasturi va uning ustuvor yo'nalishlarni qo'llab quvvatlaymiz” deb ta'kidlab o'tdi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida «terrorizm»ga quyidagicha ta'rif berilgan: «Terrorizm –xalqaro munosabatlarni murakkablashtirish, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzish, xavfsizligiga putur yetkazish, urush va qurolli mojarolar chiqarish, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, aholini qo'rqitish maqsadida davlat organini, xalqaro tashkilotni, ularning mansabdor shaxslarini, jismoniy va yuridik shaxsni biron bir faoliyatini amalga

oshirishga yoki amalga oshirishdan tiyilishga majbur qilish uchun zoʻrlik, kuch ishlatish, shaxs yoki mol-mulkka xavf tugʻdiruvchi boshqa qilmishlar yoxud ularni amalga oshirish tahdidi, shuningdek, terrorchilik tashkilotining mavjud boʻlishini, ishlab turishini, moliyalashtirilishni taʼminlashga, terrorchilik harakatlarini tayyorlash va sodir etishga, terrorchilik tashkilotlariga yoxud terrorchilik faoliyatiga koʻmaklashayotgan yoki bunday faoliyatda ishtirok etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita har qanday mablagʻ-vositalar va resurslar berish yoki yigʻishga, boshqa xizmatlar koʻrsatishga qaratilgan faoliyat» kiradi.

Diniy ekstremizm va terrorizmni bartaraf etishning huquqiy asoslari:

1. 1977 yil 27 yanvarda qabul qilingan “Terrorizmga qarshi kurash boʻyicha Evropa konventsiyasi”da terrorizm, uning sabablari, maqsadlaridan qatʼiy nazar jinoyat deb taʼriflandi.

2. 1978 yili Bonn shahrida kuchli “Ettilik” davlatlari terrorizmga qarshi kurash toʻgʻrisida bayonot qabul qildi.

3. 1981 yili Ottava shahrida, 1984 yili Londonda, 1986 yili Tokioda, 1996 yili Parijda boʻlib oʻtgan kuchli “sakkizlik” davlatlarining rahbarlari xalqaro terrorizm toʻgʻrisida deklaratsiya qabul qildilar.

4. 2000 yil oktyabrda Toshkentda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari “Markaziy Osiyoda narkotiklarning noqonuniy savdosi, uyushgan jinoyatchilik va terrorchilikka qarshi kurash boʻyicha hamkorlikning ustuvor yoʻnalishlari toʻgʻrisida”gi hujjat qabul qilindi.

5. 2000 yil 15 dekabrda O'zbekiston Respublikasining "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. O'zR Jinoyat Kodeksining 2-bo'limi "Tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar" deb nomlanib, unga qarshi kurash yo'llari bayot etildi.

6. 2001 yil 15 iyunda SHanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT) tomonidan 3 ta yovga qarshi "Xalqaro terrorizm, ekstremizm va separatizmga qarshi kurash haqida" Konventsiya qonuni qabul qilindi.

7. 2004 yil 17 yanvarida Toshkentda SHHTning Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi ijroiya qo'mitasi ish boshladi.

8. "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi qonun (2012 yil 25 dekabr).

9. "Ma'muriy qamoqni o'tash tartibi to'g'risida"gi qonun (2017 yil 3 yanvar) qabul qilindi.

10. "Sudlar to'g'risida"gi qonun (2017 yil 12 aprel) qabul qilindi.

11. "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi qonun (2017 yil 3 yanvar) qabul qilindi.

12. "Konstitutsiyaviy sud to'g'risida"gi qonun (2017 yil 31 may) qabul qilindi.

13. "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi (YAngi tahrir) qonuni (2017 yil 11 sentyabr) qabul qilindi.

14. "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonuni (2018 yil 12 aprel) qabul qilindi.

15. “Ekstremizmga qarshi kurashish to`g`risida” (2018 yil 30 iyul) qonuni qabul qilindi va hokazo.

Turli buzg`unchi oqimlarning domiga ilinib qolmaslik uchun yoshlarimiz quyidagilarga e`tibor qaratishlari lozim:

- diniy-ekstremistik ruhdagi saytlarga kirmaslik. Bunday saytlarning alomatlari: joylashtirilgan materiallarda “hijrat” va “jihod”ga da`vat qilish, dunyoviy hukumat va tuzumlarni kofirlikda ayblash, davlat mustaqilligi, Yangi yil, Navro`z, 8-mart kabi bayramlarni, tug`ilgan kunni nishonlashni harom deb e`lon qilish, Afg`oniston, Pokiston, Iroq, Suriya kabi mamlakatlardagi jangarilarni madh etish.

Shuningdek, Muhammad ibn Abdulvahhob, Ibn Taymiya, Nosiriddin Albony, Sayyid Qutb, Ayman az-Zavohiriy, Usoma bin Lodin, Abduvali qori, Obid qori, Rafiq qori, Rashod qori kabi aqidaparast shaxslarning kitoblari, fatvolari, audiomurojaatlari, savol-javob shaklidagi ma`ruzalari mavjudligi;

- ijtimoiy tarmoqlar, turli forumlarda diniy mavzuda ilmoqli, nozik savollar berib suhbatga chorlayotgan shaxslar bilan muloqotdan tiyilish, dunyoviy jamiyatni tanqid qilib, mutaasibona diniy turmush tarzini da`vat qilayotgan shaxslar bilan umuman aloqa qilmaslik;

- elektron pochta orqali noma`lum shaxslardan kelgan diniy mazmundagi da`vat va tanishuv haqidagi takliflarga javob bermaslik, yuborilgan elektron materiallarni yuklab olmaslik;

- mobil telefonlarga bilib-bilmay mutassiblik ruhidagi nashidalar (qo'shiqlar), ma'ruzalar, suratlar, videoroliklar yuklab olmaslik va tarqatmaslik.

Bu holat aksariyat hollarda maktab, kollej o'quvchilari va institut talabalari orasida kuzatiladi. Mutaassiblik va aqidaparastlik ruhidagi ma'lumotlarni bilib-bilmay yuklab olish, saqlash yoki uni boshqa shaxslarga tarqatish esa O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksining 1842-moddasiga muvofiq, shuningdek Jinoyat Kodeksining 2441-moddasiga ko'ra "Diniy-ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan, qirg'in solishga yoki fuqarolarni zo'rlik bilan ko'chirib yuborishga da'vat etadigan yoxud aholi orasida vahima chiqarishga qaratilgan materiallarni tayyorlash yoki ularni tarqatish maqsadida saqlash, shuningdek, diniy-ekstremistik, terrorchilik tashkilotlarining atributlarini yoki ramziy belgilarini tarqatish yoxud namoyish etish maqsadida tayyorlash, saqlash" eng kam ish haqining uch yuz baravaridan to'rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki olti oygacha qamoq yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilab qo'yilgan;

- ehtiyoj tug'ilgan diniy mavzudagi ma'lumotlarni faqat "uz" domenida rasmiy faoliyat olib borayotgan davlat va diniy tashkilotlar saytlaridan olish. Misol uchun: Islom.uz, Muslim.uz, Mehrob.uz kabi saytlar.

Yurtimizda tinchlik, farovonlik va millatlararo o'zaro totuvlik hukm surmoqda. Bu bebaho ne'matlarning qadriga yetish barchamizning

burchimizdir. Bu tinchlik, taraqqiyot va farovonlik o'z-o'zidan bo'layotgani yo'q, albatta. Bu, avvalambor, Alloh taoloning bizga ravo ko'rgan cheksiz inoyati bo'lsa, ikkinchidan, hukumatimiz tomonidan vijdon erkinligi va diniy bag'rikenglikni ta'minlashda olib borilayotgan oqilona siyosat natijasidir.

Yuqoridagi mulohaza va dalillar, diniy-ekstremizm va terrorizmning nafaqat umume'tirof etilgan zamonaviy qonunlar, balki islom dini asoslariga ham zid ekanini ko'rsatadi.

Shunday ekan, diniy-ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda barchamiz o'z mas'uliyatimizni his etishimiz, ogoh bo'lishimiz, vatanimizning kelajagi uchun javobgar ekanimizni unutmasligimiz lozim.

Mavzu bo'yicha savollar

1. Diniy fanatizm deganda nima tushuniladi?
2. Ekstremizm so'zi qanday ma'noni bildiradi?
3. Terrorizmning asosiy maqsadi nima?
4. Hizbut-tahrirning asosiy maqsadi nima?
5. O'zbekistonda Terrorizmga qarshi kurashda qanday choralar ko'rilmogda

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Muratov D., Alimova M., Karimov J. Dinshunoslik, darslik. – Toshkent, «Navro'z» nashriyoti, 2019. – 264 b.

2. Raximdjano D., Ernazarov O. Dinshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma. – T.: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. – 304 b.
3. Isoqjonov R. Qiyosiy dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: OOO «Complex print», 2020. – 198 b.
4. Kamilov D. Dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: Lesson Press, 2021. – 128 b.
5. Shermuxamedova N.A. Diniy fanatizm fenomeni//Inson falsafasi. – T.: Noshir, 2016. B.314-499.

Diniy fanatizm, ekstremizm, fundamentalizm, terrorizmning tarixi va ularning hozirgi davrda xavfsizlikga tahdidi mavzusi yuzasidan test topshiriqlari

- | | |
|--|---|
| <p>1. Diniy fanatizm deganda nima tushuniladi?</p> <p>A) Dinni o'rganish</p> <p>B) Diniy g'oyalarga ko'r-ko'rona sodiqlik va haddan tashqari mutaassiblik</p> <p>C) Dinni rad etish</p> <p>D) Dinni faqat bayramlarda nishonlash</p> | <p>2. Ekstremizm so'zining asl ma'nosi nima?</p> <p>A) O'rtacha yo'l</p> <p>B) Haddan oshish, radikal harakatlar</p> <p>C) Tinchlikparvarlik</p> <p>D) Ilmiy yondashuv</p> <p>3. Fundamentalizm qaysi davrda xristianlikda paydo bo'lgan?</p> |
|--|---|

- A) XIX asrda
- B) XX asr boshida (1910-yillar)
- C) O'rta asrlarda
- D) Qadimgi Yunonistonda
4. Terrorizmning asosiy maqsadi nima?
- A) Ta'lim berish
- B) Aholida vahima uyg'otib siyosiy maqsadlarga erishish
- C) Iqtisodiy rivojlanish
- D) Madaniy merosni saqlash
5. Hizbut-tahrir tashkilotining asosiy maqsadi nima?
- A) Xalifalik davlatini tiklash
- B) Dunyoviy ta'limni rivojlantirish
- C) Sport musobaqalarini o'tkazish
- D) Ekologiyani himoya qilish
6. ISHID (Iroq va Shom islom davlati) qaysi yilda o'zini "xalifalik" deb e'lon qilgan?
- A) 2011
- B) 2014
- C) 2017
- D) 2020
7. Al-Qoida tashkilotining asoschisi kim? A) Usoma bin Lodin
- B) Hasan al-Banno
- C) Taqiyiddin Nabahoniy
- D) Muhammad ibn Abdulvahhob
8. "Ixvonul muslimin" (Musulmon birodarlar) qayerda va qachon tashkil topgan?
- A) Misr, 1928 yil
- B) Saudiya Arabistoni, 1950 yil

C) Afg'oniston, 1996 yil

D) Pokiston, 2001 yil

9. O'zbekistonda 2005 yilda
qaysi voqea ekstremizm bilan
bog'liq bo'lgan?

A) Andijon voqealari

B) Toshkent portlashlari

C) Namangan isyonlari

D) Buxoro qo'zg'oloni

10. Diniy ekstremizmga qarshi
kurashning asosiy yo'nalishi
nima?

A) Faqat qurolli kurash

B) Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya
va mafkuraviy immunitet

C) Dinni taqiqlash

D) Internetni yopish

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018. – 40 b.

2. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida (yangi tahriri). // O‘zbekistonning yangi Qonunlari. 19-son. – T.: Adolat, 1998.

3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.

4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 416 b.

5. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019.

6. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019.

7. 2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 1-ilova // <http://www.lex.uz>.

8. Kamilov D. Dinshunoslik. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Lesson Press, 2021.–128 b

Muratov D., Alimova M., Karimov J. Dinshunoslik, darslik. –

Toshkent: «Navro‘z» nashriyoti, 2019. – 264 b.

9. Shermuxamedova N.A. Diniy fanatizm fenomeni/Inson falsafasi. – Darslik. Toshkent: Innovasiya-Ziyo, 2021. – B. 314-499.

10. Jalilov B. Dinlar falsafasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Noshir, 2019. –148 b.

11. Raximdjano D., Ernazarov O. Dinshunoslikka kirish. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: «O‘FMJ» nashriyoti, 2018. – 304 b.

12. Abu Xomid G‘azzoliy Kimyoi saodat//Ikki dunyo saodatiga eltuvchi bilim. 9 Samarkand: Imom Buxoriy xalkaro markazi, 2019.

13. Saifnazarov I., Sultonov T., Ilhomjonov L., Xalimmetova R. Dinshunoslik. o‘quv qollanmasi. –Toshkent: TDIU, 2019. – 180 b.

14. Islomov Z., Haydarov I. Xristianlik: ibodatxona, ibodat va marosimlari. – Toshkent: Qaqnus nashriyoti, 2020.

15. Farfiyev B. O‘zbekiston ijtimoiy taraqqiyotida islom ratsionalizm omili.–Toshkent: O‘FMJ nashriyoti, 2019.

16. Alimova M. Dinshunoslikni o‘qitishda interfaol uslublardan foydalanishning ahamiyati // Dinshunoslikning dolzarb muammolari. III-to‘plam. Ilmiy- amaliy anjuman materiallari. – T.: TIU, 2011. – B.44-47.

17. Alimova M. «Yangi dinlar» – modernizatsiya fenomeni sifatida // Dinshunoslikning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy amaliy konferensiya materiallari to‘plami. –T.: TIU, 2012. – B.41-43.

18. Alimova M. Millatlararo va dinlararo totuvlikni ta‘minlashda O‘zbekistonning tarixiy tajribasi // Konfessiyalararo muloqot va diniy bag‘rikenglik – jamiyat barqarorligi garovi. Xalqaro konferensiya materiallari to‘plami. –Toshkent 2014 yil, 12 noyabr. – B.264-267.

19. Beruniy Abu Rayhon. Qonuni Mas'udiy // Beruniy A.R. Tanlangan asarlar. V tom. Birinchi kitob. – T., 1973. – 590 b.

20. Beruniy, Abu Rayhon. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar // Beruniy A.R. Tanlangan asarlar. I tom. – T., 1968. – 486 b.

21. Vasilev L.S. Istoriya religiy Vostoka. Uchebnoye posobiye dlya vuzov. – 4-ye izd. – M.: «Knijniy dom «Universitet», 1999. – 432 s.

22. Vvedeniye v obsheye religiovedeniye: uchebnik / Pod red. prof. I.N. Yablokova. – M.: Knijniy dom «Universitet», 2001. – 576 s.

23. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv uslubiy qo'llanma/ Ta'limda innovatsion texnologiya seriyasi. – T.:TDIU, 2010. – 149 b.

24. Gorelov A.A. Istoriya mirovix religiy: uchebnoye posobiye / A.A. Gorelov. 2-izd., ispr. – M.: Flinta: MPSI, 2006. 360 s.

25. Davlat va din. O'quv qo'llanma/Tuzuvchilar: D.Rahimjonov, N.Ismatova, G.Xudayberganova, L.Alidjanova, O.Ernazarov.–Toshkent: Somplex Print, 2019. –136 b.

26. Dervish R.A., Lavteyeva L.G., Musakayeva A. Pamyatniki istorii religii i kulturi v Uzbekistane. Posobiye dlya fakultativa po istorii religii. – T.: Ukituvchi, 1994. – 80 s.

27. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari: o'quv qo'llanma / Mas'ul muharrir A.S.Ochildiyev; – T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2008. – B. 246.

28. Dinshunoslik. O'quv qo'llanma / Muratov D., Alimova M., Karimov J., Najmiddinov J., Jo'rayev Sh. –Toshkent, 2019. – 286 b.

29. Dinshunoslik asoslari. O‘quv qo‘llanma/mas’ul muharrir: I.Usmonov. – T.: TIU, 2013. – 319 b.

30. Dinshunoslikning dolzarb muammolari. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – T. : «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2011.

31. Dunyo dinlari tarixi. O‘quv qo‘llanma / Tuzuvchilar: S. Agzamxodjayev, D.Rahimjonov, N.Muhamedov va b. – T.: ToshDSHI, 2011. – 262 b.

32. Yovkochev Sh.A. Politizatsiya religii i problema islamskogo ekstremizma v sovremennom mire: uchebnoye posobiye. – T.: TashGIV, 2003.

33. Zelenkov M.Yu. Mirovie religii: istoriya i sovremennost: uchebnoye posobiye. – Rostov na Donu: Feniks, 2008. – 364 s.

34. Ziyomammedov B. Ta’lim texologiyalari. Metodik qo‘llanma. – T., 2012. – 60 b.

35. Ibragimov E.F. va b. Jahon dinlari tarixi: Mutaxassislik fanidan o‘quv -uslubiy qo‘llanma. – T.: TIU, 2007. - 48 b.

36. Ibtidoiy dinlar va mifologiya. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Somplex Print, 2019. – 102 b.

37. Islom va hozirgi zamon / O‘quv qo‘llanma. Mas’ul muharrir Sh.Yovqochev. – T.: «Toshkent islom universiyeti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2010. – 207 b.

38. Islom manbashunosligi. O‘quv qo‘llanma. / J.Tohirov. – Toshkent: “Qaqnus media” nashriyoti, 2019. – 364 b.

39. Islom ma'rifati: asliyat va talqin: o'quv-uslubiy qo'llanma / Mas'ul muharrir Usmonxon Alimov. – T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2011. – B. 158.

40. Islom ma'rifatida dunyoviy va diniy qadriyatlar uyg'unligi / mas'ul muharrir O.Yusupov. – T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2011. – B. 271.

41. "Islom tarixi" fani bo'yicha 570-661 yillarda sodir bo'lgan asosiy voqealar xronologiyasi. O'quv qo'llanma./ O'.Palvanov. – Toshkent: "Qaqnus media" nashriyoti, 2019. – 64 b.

42. Islom. Ensiklopediya: A-H /Z.Husniddinov tahriri ostida. – T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti.2004. – 320 b.

43. Islomda sog'lom bola tarbiyasi. / Mas'ul muharrir: I.Usmonov. – Toshkent. «Movarounnahr», 2014.

44. Islomshunoslik qomusiy lug'ati / Mas'ul muharrir Z.M.Islomov. – T. I. –T.: Movarounnahr, 2013. – 272 b.

45. Islomshunoslik qomusiy lug'ati / Mas'ul muharrir Z.M.Islomov. – T. II. –T.: Movarounnahr, 2014. – 432 b.

46. Isoqjonov R. Islom falsafasi. – Toshkent: Somplex Print, 2019. – 192b.

47. Karomatov H.S. O'zbekistonda moziy e'tiqodlar tarixi. – T.: JIDU nashriyoti, 2008. – 663 s.

48. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. K. 1. – T.: Yozuvchi, 1996. – 272 b.

49.Murodov D. Diniy manbalarni o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari // Dinshunoslikning dolzarb muammolari. 4-to'plam. – T.: «TIU» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2012. – B. 44-47.

50.Muhamedov N. Dinshunoslik fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati // Nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda ilg'or pedagogik uslublardan foydalanish. Ilmiy-uslubiy materiallar to'plami. -Toshkent, 2009. - B. 34-37.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1-mavzu. Yangi diniy ta'limotlar va sektalar.....	6
2-mavzu. Kiber makonda din. Missionerlik va prozelitizmning ijtimoiy-siyosiy xavfi.....	55
3-mavzu. Diniyfanatizm, ekstremizm, fundamentalism, terrorizmning tarixi va ularning hozirgi davrda xavfsizlikga tahdidi.....	117
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHAT.....	187

SOBIROV ZUHRIDDIN NAJMIDDIN O'G'LI

DINSHUNOSLIK

(Zamonaviy diniy harakatlar va oqimlar)

Uslubiy qo'llanma

Bosishga ruxsat etildi. 03.02.2026 y.

Qog'oz bichimi 60x84 1/16. Times New Roman
garniturasida terildi.

Ofset uslubida oq qog'ozda chop etildi.

Nashriyot hisob tabog'i 12, Adadi 50. Buyurtma № 21-02
Bahosi kelishuv asosida.

«ZUXRO BARAKA BIZNES» MChJ
bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent shahar, Chilonzor tumani,
Bunyodkor shoh ko'chasi 27 A-uy.